

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM
VAZIRLIGI
AJINIYOZ NOMIDAGI NUKUS DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI**



UDK
Qo‘lyozma huquqida

**MAGISTRATURA BO‘LIMI
O‘ZBEK TILI KAFEDRASI
Ibodullayeva Inobat Nurulla Qizi
“Qoraqalpog‘istondagi o‘zbek shevalarida ko‘makchilar”**

Mutaxassislik: 5A 111201- O‘zbek tili va adabiyoti

Magistr

akademik darajasini olish uchun yozilgan

DISSERTATSIYA

Davlat attestatsiya komissiyasida
himoya qilishga ruxsat berildi.

Magistratura bo‘limi boshlig‘i:

dots. M. Allamberganova

Kafedra mudiri:

p.f.n., dots. Sh. Yuldasheva

Ilmiy rahbar:

f.f.d., dots. Yu. M. Ibragimov

NUKUS 2018

MUNDARIJA:

KIRISH	3
--------------	---

**I BOB. QORAQALPOG‘ISTONDAGI O‘ZBEK SHEVALARIDA
DIALEKTAL SOF KO‘MAKCHILARNING LEKSIK-SEMANTIK
HAMDA GRAMMATIK TAVSIFI**

1.1. O‘zbek tilida ko‘makchilarni o‘rganishning ilmiy-nazariy asoslari.....	11
1.2. Qoraqalpog‘istondagi o‘zbek shevalarida dialektal sof ko‘makchilarning leksik-semantik va grammatik xususiyatlari..	21

**II BOB.DIALEKTAL OT VA SIFAT KO‘MAKCHILARNING
LEKSIK-SEMANTIK HAMDA GRAMMATIK XUSUSIYATLARI**

2.1. O‘zbek tilida dialektal ot ko‘makchilarning leksik-semantik va grammatik o‘zgachaliklari.....	40
2.2. Dialektal sifat ko‘makchilarning leksik-semantik va grammatik o‘zgachaliklari.....	55

**III BOB. DIALEKTAL FE’L VA RAVISH KO‘MAKCHILARNING
LEKSIK-SEMANTIK HAMDA GRAMMATIK XUSUSIYATLARI**

3.1. Dialektal fe’l ko‘makchilarning leksik-semantik va grammatik o‘zgachaliklari.....	59
3.2. Dialektal ravish ko‘makchilarning leksik-semantik va grammatik o‘zgachaliklari.....	62

UMUMIY XULOSALAR	79
------------------------	----

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.....	82
--------------------------------	----

Mavzuning dolzarbligi. Til birliklarining nutqiy vaziyat bilan bog‘liq holda reallashuvchi pragmatik vazifalarini aniqlash muammosi yuzaga keldi. Dissertatsiyada mana shu muammo o‘zbek xalq shevalaridagi ko‘makchilar va ularga vazifadosh kelishiklar misolida ilk bor tadqiq etilishi mavzuning dolzarbligini belgilaydi.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Ko‘makchilarning lingvistik belgi-xususiyatlari barcha turkiy tillarda, jumladan, o‘zbek tilshunosligida ham chuqur o‘rganilgan. Ko‘makchilar tadqiqiga oid izlanishlar ichida A.N.Kononov, Sh. Shoabdurahmonov, T.Rustamov, U.Tursunov, A.Pardaevlar tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotlar diqqatga sazovor.

Buning natijasida dialektal ko‘makchilarning nutqiy qo‘llanishda namoyon bo‘luvchi leksik-semantik va grammatik belgilari aniqlanmay qolmoqda. Bu holat dialektal ko‘makchilarning ma’no va vazifalarini o‘rganish zaruratini tug‘dirdi.

Dissertatsiyaning ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Tadqiqot mavzusi Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti o‘zbek tili kafedrasida ilmiy tadqiqot rejasiga kiritilgan «Turkiy tillarning taraqqiyoti va uni o‘qitish metodikasi» muammosi tarkibiy qismi sanaladi. Ushbu mavzu Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti ilmiy kengashi yig‘ilishida muhokama qilinib (15,10,2016) tasdiqlangan.

Tadqiqot maqsadi. Ishda dialektal ko‘makchilar va ularga vazifadosh kelishiklar vazifadoshligi muammosiga munosabat bildirish maqsad qilib belgilandi.

Tadqiqot vazifalari. Ishda quyidagi vazifalar amalga oshirildi:

-o‘zbek tilida so‘zlar orasidagi sintaktik aloqani ta’minlashga xizmat qiluvchi dialektal ko‘makchilar va ularga vazifadosh kelishiklarning gapda shakllantirish sabablarini o‘rganish;

- nutqiy tejamlilik asosida dialektal ko‘makchilarning qurilmalar va ularga vazifadosh kelishikli so‘z shakllari qonuniyatlarini belgilash;

- dialektal ko‘makchilarning qurilmalar va ularga vazifadosh kelishikli so‘z shakllari asosida sodda gapning mazmuniy murakkablashuvi sabablarini asoslash;

Ishning tadqiq ob‘ekt va materiallari. Qoraqalpog‘istondagi o‘zbek shevalaridan dialektal ko‘makchilar bo‘yicha yig‘ilgan materiallar ishning ob‘ekti hisoblanadi.

Tadqiqot metodologiyasi va bajarilish usullari. Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining «Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni

ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyatni rivojlantirish» ustivor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Himoyaga olib chiqilayotgan asosiy holatlar.

1. Dialektal ko'makchining leksik-semantik va grammatik xususiyatlari ochib berildi.
2. Dialektal ko'makchilarning gapda birikish holatlari tahlil etildi.
3. Dialektal ko'makchilarning gapda o'zi birikkan so'zlarni boshqarib kelish qonuniyatlari ochib berildi.
4. Dialektal ko'makchilarning gapdagi ma'no munosabatlari tahlil etildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi. Ishda quyidagi natijalarga erishildi:

- o'zbek shevalarida dialektal ko'makchilar va ularga vazifadosh kelishiklar bilan munosabati muammosi ilk marta maxsus tadqiqot ob'ekta sifatida o'rganilgan;
- dialektal ko'makchilar va ularga vazifadosh kelishiklarning tabiatini o'rganish asosida ularning adabiy til va manbalarida qo'llanilishi ochib berilgan;
- dialektal ko'makchilarning shakllanishi va taraqqiyot manbalari asosida leksik-semantik va grammatik xususiyatlari aniqlangan;

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqotning ilmiy xulosalari o'zbek shevashunosligida dialektal ko'makchili hamda kelishikli qurilmalar tadqiqi bo'yicha yaratilgan mavjud ishlarni nazariy jihatdan boyitadi. Tadqiqotning ilmiy natijalaridan o'zbek shevalari morfodogiyasini yaratishda, oliy o'quv yurtlarida dialektal ko'makchi va kelishiklar masalalariga bag'ishlangan mahsus kurs va seminarlarni tashkil etishda foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining sinalishi. Dissertatsiya Ajiniyoz nomidagi NDPIning filologiya fakulteti «O'zbek tili» kafedrasida majlisi yig'ilishida muhokama etilib, himoyaga tavsiya etildi. Tadqiqotning asosiy mazmuni ikkita ta maqola, uchta tezis va respublika, institut miqyosida o'tkazilgan anjumanlarida joriy qilindi.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Ishning umumiy hajmi 84 sahifa

Ilmiy rahbar:

f.f.d., dots. Yu. M. Ibragimov

Magistrant:

I. Ibodullayeva

ANNOTATION OF MASTER'S DISSERTATION

The relevance of the topic. Looking at the language as a whole system and contradictory learning has clarified the pragmatic tasks of the language units in the context. As a result, the problem of determining the pragmatic tasks of the linguistic units in the relation to the speech situation has occurred. Researching the promoters in the Uzbek folklore first time defines the importance of dissertation.

Researching degree of the problem. Linguistic features of the promoters are deeply studied in all Turkish languages, including Uzbek linguistics. We can mention the investigations conducted by researchers A. Kononov, Sh. Shoabdurahmonov, T. Rustamov, U. Tursunov, A. Pardaev. As a result, lexical-semantic and grammatical signs that appear in speech-promoter dialectal promoters are still unknown. This situation necessitated the study of the meaning and functions of the dialectal promoters.

Connection of dissertation with research plans. The subject of the research is the component of the problem of “the development of Turkish languages and the methodology of its teaching”, included into the research plan of the Uzbek language chair of Nukus State Pedagogical Institute named after Ajiniyaz (15,10,2016).

Purpose of the research. The objective was to address the problem of dialectal promoters and their commitment to work .

Tasks of research. The following tasks were done in the study:

- study the reasons for the formation of the dialectal promoters in the syntactic connection between words in the Uzbek language;
- determine the principles of dialectic promoters and vocabulary expressions on the basis of speech savings;
- justification of the reasons for the content of the innovation economy development.

The main points of defence :

1. The lexical – semantic and grammatical features of the dialectal promoters have been disclosed.

2. Analysis of dialectal promoters case was analyzed.
3. Dialectal promoters have been introduced to the laws of combining united words.
4. Analyzed the meaning of dialectal promoters.

Novelty of scientific research. The following results were achieved in the study:

- the problem of dialectal promoters and their relationship with them in Uzbek language was studied the first time as a special research object;
- The disclosure of the use of dislectal promoters and their literary language and sources on the basis of the nature of their duties;
- Lexical-semantic and grammatical features on the basis of the formation and development of dialectal promoters;

Scientific and practical significance of the research result. The scientific findings of the research are theoretically enriched by the work of studying the dialectal and related devices in the Uzbek dialect. The scientific results of the research can be used to create morphology of the Uzbek language to organize specialized courses and seminars devoted to issues of dialectal promoter and counseling in higher education institutions.

Examination of the results of the research. The dissertation was discussed at the meeting of the chair of “ Uzbek language ” of the Philological Faculty of NSPI named after Ajiniyoz. The main content of the research was introduced in two articles, three theses, and at the Republican and Institutional conferences.

Structure and size of dissertation. The dissertation consists of three chapters, a summary and a list of references. The total size of the work is 84 pages.

Scientific leader: f.f.d., dots. Yu. M. Ibragimov

Master: I. Ibodullayeva

KIRISH

“... farzandlarimizni mustaqil va keng fikrlash qobiliyatiga ega bo‘lgan, ongli

yashaydigan komil insonlar qilib voyaga yetkazish ta'lim-tarbiya sohasining asosiy maqsadi va vazifasi bo'lishi lozim. Bu esa, ta'lim va tarbiya ishini uyg'un holda olib borishni talab etadi",- degan edi Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov [1: 61]. Shunday ekan, biz o'z faoliyatimiz davomida ta'lim va tarbiyani uyg'un holda olib borishimiz maqsadga muvofiqdir. Tilimizda bo'layotgan har bir o'zgarishlar va yangiliklardan xabardor bo'lish hamda shevalarimizd qo'llanayotgan so'zlarning ma'nolari bilan tanish bo'lib borish ham biz uchun muhimdir. Bu tilimizga bo'lgan hurmatni yanada oshiradi va komillikka yetaklaydi.

Har qanday til o'zining ichki qonuniyati asosida rivojlanadi. Jumladan, tildagi leksik qatlamlar asosida neologizm vujudga kelganidek, arxaik so'zlar iste'moldan chiqib boshlaydi. Shuningdek, tilda yangi ko'makchilarning paydo bo'lishi u tilning leksik boyligining rivojlanishida, grammatik strukturasining takomillashishida katta ahamiyatga egadir. Shunday ekan, ko'makchilar nutqimizda grammatik kategoriya sifatida alohida o'rin tutadi. «Ko'makchilarning shakllanishi, kelib chiqishi, takomillashishini o'rganish leksikologiya va semasiologiyaning qator masalalarini hal etishda muhimdir. Har qaysi so'z turkumidagi so'zlarning rivojlanishi o'ziga xos xususiyat kasb etadi, shu bilan birga so'zdagi leksik-grammatik ma'nolarning o'zaro bog'liq ekanini ham isbotlab beradi» (Abdullaev 1972).

Mavzuning dolzarbligi. XX asr boshlarida jahon tilshunosligida shakllangan sistem-struktur tadqiq yo'nalishi fanning eng ilg'or an'alarini rivojlantirish bilan birga, uni yangi g'oyalar, qarashlar bilan to'ldirdi. Mana shunday qarashlardan biri tilga bir butun tizim sifatida yondashuv bo'lib, unga ko'ra til o'zaro aloqa-bog'lanishda bo'lgan birliklarning yig'indisidan tashkil topgan butunlik sifatida tadqiq etildi.

Tilga bir butun tizim sifatida qarash hamda uni nutqqa zidlab o'rganish til birliklarining nutq faoliyatda kontekst va vaziyat bilan bog'liq tarzda yuzaga chiquvchi pragmatik vazifalariga aniqlik kiritdi. Natijada til birliklarining nutqiy vaziyat bilan bog'liq holda reallashuvchi pragmatik vazifalarini aniqlash

muammosi yuzaga keldi. Dissertatsiyada mana shu muammo o'zbek xalq shevalaridagi ko'makchilar va ularga vazifadosh kelishiklar misolida ilk bor tadqiq etilishi mavzuning dolzarbligini belgilaydi.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Ko'makchilarning lingvistik belgi-xususiyatlari barcha turkiy tillarda, jumladan, o'zbek tilshunosligida ham chuqur o'rganilgan. Ko'makchilar tadqiqiga oid izlanishlar ichida A.N.Kononov, SH.SHoabdurahmonov, T.Rustamov, U.Tursunov, A.Pardaevlar tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotlar diqqatga sazovor. Bu ishlarda ko'makchilarning morfologik belgi-xususiyatlari, gapda turli mazmuniy munosabatlarni hosil qilishi, vazifa jihatidan kelishiklarga yaqin turishi, turlari, tarixiy ko'rinishlari kabi masalalar atroflicha tahlil etilgan (Kononov 1951; SHoabduraxmonov 1953; Rustamov 1965; SHoabduraxmonov va b. 1980; Rustamov Sof ko'makchilar; Tursunov va b. 1992:374-381; Pardaev 2005)¹. Biroq dialektal ko'makchilar muammosi shu kunga qadar maxsus tadqiqot ob'ekti bo'lgan emas. Ayrim ishlarni mustasno etganda (Nurmanov 1986:42-46; Lutfullaeva 1996:48-46)², asosiy hollarda ko'makchilarning morfologik xususiyatlari o'rganilgan. Keyingi yillarda ham bu masala yuzasidan ayrim fikr-mulohazalar bildirildi (Lutfullaeva 1994:23)³. Lekin o'zbek xalq shevalaridagi dialektal ko'makchili qurilmalarning grammatik tabiati, semantik xususiyatlari, nutqiy vaziyatda yuzaga chiquvchi vazifasini o'rganishga e'tibor qaratilmadi.

¹ Кононов А.Н. Послелого в современном ўзбекском литературном языке. - Ташкент, 1951; Шоабдурахмонов LL1. Ўзбек тил ила ёрдамчи сўзлар: Хозирги замой ўзбек тили курсидан материаллар. - Тошкент: УзФА. 1953; Рустамов Т. Хозирги ўзбек адабий тилида кўмакчилар. - Тошкент: Фан, 1965 - Б.63; Кўмакчи / Ш.Шоабдурахмонов ва бошқалар. Хозирги ўзбек адабий тили. 1 -к. - Тошкент: Укптувчи, 1980. - Б. 405-424; Рустамов Т. Соф кўмакчилар. - Тошкент, 1991: Кўмакчи. / У. Турсунов, Ж.Мухторов. Ш.Рахматуллаев. Хозирги ўзбек адабий тили. - Тошкент: Укптувчи, 1992. - Б. 374-381; Пардаев А. Хозирги ўзбек тилида кўмакчиларнинг фуикционал-стилистик хусусиятлари: Филол. фан. ном. дис. автореф. - Самарканд, 2005. - Б. 25.

² Нурмонов А. Кўмакчили конструкциялар пресуппозицияси // Ўзбек тили ва адабиёти. - Тошкент, - 1986. - №6. - Б. 42-45; Лутфуллаева Д. Урнига кўмакчили конструкциялар пресуппозицияси // Ўзбек тили ва адабиёти. - Тошкент, - 1996. - №5. - Б. 46-48.

³Лутфуллаева Д. Урнига кумакчили копструкциялар пресуппочицняси //■ Ўзбек тили ва адабиёти. - Тошкент,- 1996. - №5. - Б. 46-48; Шу муаллиф. 1 алии семантик - синтактик колиилаштириш муаммоларн. - Тошкент: Фан, 2005. - Б. 60-64

Buning natijasida dialektal ko‘makchilarning nutqiy qo‘llanishda namoyon bo‘luvchi leksik-semantik va grammatik belgilari aniqlanmay qolmoqda. Bu holat dialektal ko‘makchilarning ma‘no va vazifalarini o‘rganish zaruratini tug‘dirdi.

Dissertatsiyaning ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Tadqiqot mavzusi Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti o‘zbek tili kafedrası ilmiy tadqiqot rejasiga kiritilgan «Turkiy tillarning taraqqiyoti va uni o‘qitish metodikasi» muammosi tarkibiy qismi sanaladi. Ushbu mavzu Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti ilmiy kengashi yig‘ilishida muhokama qilinib (15,10,2016) tasdiqlangan.

Tadqiqot maqsadi. Ishda dialektal ko‘makchilar va ularga vazifadosh kelishiklar vazifadoshligi muammosiga munosabat bildirish maqsad qilib belgilandi.

Tadqiqot vazifalari. Ishda quyidagi vazifalar amalga oshirildi:

- o‘zbek tilida so‘zlar orasidagi sintaktik aloqani ta‘minlashga xizmat qiluvchi dialektal ko‘makchilar va ularga vazifadosh kelishiklarning gapda shakllantirish sabablarini o‘rganish;
- nutqiy tejamlilik asosida dialektal ko‘makchili qurilmalar va ularga vazifadosh kelishikli so‘z shakllari qonuniyatlarini belgilash;
- dialektal ko‘makchili qurilmalar va ularga vazifadosh kelishikli so‘z shakllari asosida sodda gapning mazmuniy murakkablashuvi sabablarini asoslash;
- o‘zbek xalq shevalaridagi dialektal ko‘makchilarning umumiy leksik-semantik, grammatik belgi-xususiyatlarini aniqlash;
- dialektal ko‘makchili qurilmalarning kelishikli so‘zshakllari bilan vazifadoshligi holatlarini tahlil qilish;

Ishning tadqiq ob‘ekt va materiallari. Qoraqalpog‘istondagi o‘zbek shevalaridan dialektal ko‘makchilar bo‘yicha yig‘ilgan materiallar ishning ob‘ekti hisoblanadi.

O‘zbek xalq shevalaridan 2016-2018-yillardan boshlab shaxsiy kuzatishlarimiz hamda Ajiniyoz nomidagi NDPIning filologiya fakulteti o‘zbek tili

va adabiyoti bo'limi 2-kurs talabalarining dialektologik dala amaliyoti davrida yig'gan materiallari, qadimgi turkiy yozma yodgorliklari, o'zbek xalq dostonlaridan, shu kunga qadar yaratgan nazmiy va nasriy asarlaridan tanlab olingan misollar mavzu tadqiqida daliliy material bo'lib xizmat qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi va bajarilish usullari. Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining «Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyatni rivojlantirish» ustivor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Himoyaga olib chiqilayotgan asosiy holatlar.

1. Dialektal ko'makchining leksik-semantik va grammatik xususiyatlari ochib berildi.
2. Dialektal ko'makchilarning gapda birikish holatlari tahlil etildi.
3. Dialektal ko'makchilarning gapda o'zi birikkan so'zlarni boshqarib kelish qonuniyatlari ochib berildi.
4. Dialektal ko'makchilarning gapdagi ma'no munosabatlari tahlil etildi.
5. Dialektal ko'makchilarning ob'ektiv borliqdagi narsa-predmet, belgi-xususiyat, harakat-holat kabilarni nomlamasligi, ammo muayyan voqelik ifodasiga ishora qila olish xususiyati ochib berildi.
6. Dialektal ko'makchili qurilmalar va ularga vazifadosh vositali kelishik so'zshakllarining ishorasi asosida gapda atalganlik, maqsad, istak, xoslik, zidlik, qiyos, o'xshatish munosabatlarni ifodalashi izohlab berildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi. Ishda quyidagi natijalarga erishildi:

- o'zbek shevalarida dialektal ko'makchilar va ularga vazifadosh kelishiklar bilan munosabati muammosi ilk marta maxsus tadqiqot ob'ekta sifatida o'rganilgan;
- dialektal ko'makchilar va ularga vazifadosh kelishiklarning tabiatini o'rganish asosida ularning adabiy til va manbalarida qo'llanilishi ochib berilgan;

- dialektal ko‘makchilarning shakllanishi va taraqqiyot manbalari asosida leksik-semantik va grammatik xususiyatlari aniqlangan;

- dialektal ko‘makchilar va ularga vazifadosh kelishiklar ishtirok etgan sodda gaplarning mazmuniy murakkablashuvi qonuniyatlari ochib berildi;

- dialektal ko‘makchilar va ularga vazifadosh kelishikli qurilmalari masalasi tavsifiy va ko‘makchili qurilmalar o‘rtasidagi sinonimik munosabat ko‘rsatildi;

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqotning ilmiy xulosalari o‘zbek shevashunosligida dialektal ko‘makchili hamda kelishikli qurilmalar tadqiqi bo‘yicha yaratilgan mavjud ishlarni nazariy jihatdan boyitadi. Tadqiqotning ilmiy natijalaridan o‘zbek shevalari morfodogiyasini yaratishda, oliy o‘quv yurtlarida dialektal ko‘makchi va kelishiklar masalalariga bag‘ishlangan mahsus kurs va seminarlarni tashkil etishda foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining sinalishi. Dissertatsiya Ajiniyoz nomidagi NDPIning filologiya fakulteti «O‘zbek tili» kafedrası majlisi yig‘ilishida muhokama etilib, himoyaga tavsiya etildi. Tadqiqotning asosiy mazmuni ikkita ta maqola, uchta tezis va respublika, institut miqyosida o‘tkazilgan anjumanlarida joriy qilindi.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat. Ishning umumiy hajmi 83 sahifa.

Turkiy tillarda, jumladan, hozirgi adabiy o‘zbek tilida mazkur mavzu monografiya, risolalar (Isangalieva 1957; Isangalieva 1954; Kononov 1951; Rustamov 1965; Sharipov 1962) hamda dissertatsiyalar (Berdiyrov 1949; Kenjebaeva 1964) qator ilmiy maqolalarda (Axtamova 1980; Rustamov 1977; Tursunov 1947; G‘ulomov 1940) yoritilgan.

Turkiy tillardagi ko‘makchilarning, jumladan o‘zbek tilidagi ko‘makchilarning, tarixiga oid fikrlar, lug‘atlar, darsliklar, dissertatsiyalarda qisman aytilgan (Borovkov 1952; Doniyorov 1976; DTS. 1969; O‘zTIL. 1981) Bundan tashqari, hozir mavjud bo‘lgan turkiy tillarning hamma darsliklarida «Ko‘makchilar» mavzusi yoritilgan. Lekin turkiy tillar, jumladan, o‘zbek tilidagi

dialektal ko'makchilar alohida tekshirish ob'ekti bo'lmaganligi mavzuning dolzarbligini ko'rsatadi.

Tilda yangi so'zning paydo bo'lishi, affiksatsiya yo'li bilan yangi so'zning yasalishi, shuningdek, mustaqil ma'noli so'zlarning yordamchi so'z turkumiga o'tishi ham o'sha tilning ichki rivojlanish qonuniyati asosida sodir bo'ladi. Shunday ekan, tilning rivojlanishidagi birinchi va asosiy omil uning ichki qonuniyati bo'lsa, ikkinchi omil tashqi muhitning ta'siridir. *Ko'makchilar grammatik kategoriya bo'lgani uchun ham o'zbek tilida ko'makchilarning paydo bo'lishi o'zbek tili grammatikasining bir elementi hisoblanadi.*

BIRINCHI BOB

QORAQALPOG'ISTONDAGI O'ZBEK SHEVALARIDA

DIALEKTAL SOF KO'MAKCHILARNING LEKSIK-SEMANTIK HAMDA GRAMMATIK TAVSIFI

1.1.O'zbek tilida ko'makchilarni o'rganishning ilmiy-nazariy asoslari

Ma'lumki, turkiy tillardagi ko'makchilarning hammasi yagona bitta turkiy tilgagina taalluqli bo'lmaganidek, ayrim ko'makchilar ko'pchilik turkiy tillarga xos bo'lsa, ba'zi ko'makchilar alohida turkiy tillardagina uchraydi. Sababki, turkiy tillar agglyutativ tillar guruhiga kirgani va turkiy xalqlar qadimdan o'zaro munosabatda bo'lganidan turkiy tillar ko'makchilarida mushtaraklik mavjud. Masalan, **uchun** o'zbek tilida, qozoq tilida uning fonetik varianti **ushun** faqat ko'makchi funksiyasida qo'llanadi. Shuningdek, o'zbek tilida va uning dialektlarida **-chun\chyn** shakli uchraydi. Lekin uning qisqa fonetik varianti **chun** hozirgi adabiy o'zbek tilida faqat poeziya tilidagina hamda dialektlarida ishlatiladi.

Umuman, ko'makchilar turkumiga taalluqli qator nazariy masalalar borki, ularni aniq tasavvur qilish uchun ko'makchilarning hozirgi nutqimizdagi xususiyatiga qarabgina emas, balki uning tarixiy taraqqiyoti va dialektal xususiyatiga ko'ra aniqlash lozim bo'ladi. Masalan, ko'makchilarning qaysi mustaqil so'zlardan ko'makchiga o'tishi tarixiy jarayonda har xil bo'lishi aniq. Masalan, hozirgi o'zbek tilida **-la, -lan** affikslarining otlardan fe'l yasashi olimlarimiz tomonidan qayd etiladi. Bu mutlaqo to'g'ri fikr. Lekin **birlan** ko'makchisining etimologiyasi haqida fikr yuritilganida **bir** son so'ziga **-lan** affiksi qo'shilganidan **birlan** ko'makchisi paydo bo'lgani aytiladi. **Birlan** ko'makchisining qaratqich kelishigidagi olmoshga birikishi uning fe'l turkumiga emas, ot turkumiga yaqin ekanidan dalolat beradi.

Har qanday tildagi so'zlar, avvalo, ikkita guruhga bo'linadi:

1. Mustaqil ma'noli so'zlar; 2. Yordamchi so'zlar.

Har ikki guruhdagi so'zlar o'z ichida yana qismlarga ajratiladi.

Ko'makchilarning mustaqil so'zlarga munosabati, ularning bir- biridan farqi muhim masalalardandir. Bir guruh olimlar ko'makchilarning so'z ekanini tan

olmaydilar. **Natijada quyidagi xatoga yo‘l qo‘yadilar:**

1. «Yordamchi so‘zlar» terminini ishlatadilarda, ularning so‘z ekanini tan olmaydilar. Bunda mantiqsizlik paydo bo‘ladi.

2. Yordamchi so‘zlar, jumladan ko‘makchilar ham mustaqil so‘z turkumlaridan kirib kelganini aytadilar-u, ularning so‘z ekanini tan olmaydilar.

3. Ko‘makchilarni tasnif qilganlarida ko‘makchi yuklamalar, yordamchi otlar, sifat-ko‘makchilar, ravish-ko‘makchilar, fe‘l-ko‘makchilar deb ataydilar va ular qanday atalmasin, ko‘makchilik xususiyati mavjud ekanini tan oladilar. Lekin ko‘makchilarning so‘z ekaniga shubha qiladilar. Vaholanki, ot-ko‘makchilar, sifat-ko‘makchilar, ravish-ko‘makchilar, fe‘l-ko‘makchilar deyilgan termin har qanday ko‘makchini qaysi so‘z turkumlariga taalluqli ekanini qayd etishdir. **Shuning uchun ham, ko‘makchilar** keyingi paytlarda, asosan, ikkita katta guruhga — sof ko‘makchilar va funksional ko‘makchilarga bo‘linadi.

Sof ko‘makchilar qanday so‘z turkumidan o‘tib kelishidan qat’i nazar, relyativ munosabatni hosil qilib, undagi leksik ma’no ham ma’lum darajada o‘zgaradi. Ya’ni u ko‘chma ma’no ifodalaydi yoki o‘sha ko‘makchi bajarayotgan relyativ munosabatning yaratilishida xizmat qiladi. Sof ko‘makchilar tarkibidagi morfologik qo‘shimchalar o‘zlarining grammatik xususiyatini batamom yoki qisman yo‘qotib, o‘zi birikib kelgan so‘zning ko‘makchi funksiyasini bajarishi uchun xizmat qiladi.

Funksional ko‘makchilar. Hozirgi nutqimizda ham ko‘makchi, ham mustaqil so‘z sifatida qo‘llanayotgan ko‘makchilar funksional ko‘makchilar termini bilan ataladi. Funksional ko‘makchilar ot-ko‘makchilar, sifat-ko‘makchilar, ravish-ko‘makchilar va fe‘l-ko‘makchilarga bo‘linadilar:

- ko‘makchilarning sotsial qiymatga ega bo‘lgan tovushlar yig‘indisidan iborat ekanini tan olish ularning so‘z ekanini tan olish demakdir;

- ko‘makchilarning o‘z urg‘usiga ega bo‘lishi ularning so‘z ekanidan dalolat beradi;

- ko‘makchilar mustaqil ma’noli so‘zlarga bimalol birikaveradi. Shunday

ekan, ko‘makchili so‘z birikmasi yaratiladi. Ko‘makchining bu xususiyati ham uning so‘z ekanidan darak beradi.

Ma‘lumki, hozirgi tilimizda mavjud bo‘lgan ko‘makchilarni so‘z deyish kerakmi yoki yo‘qmi ekanini aniq tasavvur qilish uchun o‘sha ko‘makchilarning etimologiyasi va tarixiy taraqqiyotini o‘rganishimiz lozim. Bundan tashqari, mustaqil so‘zlar va ko‘makchilarning grammatikada, leksikada o‘z o‘rinlari borki, bu masala ularning o‘zaro tafovutini aniqlashda katta ahamiyatga ega.

Bir guruh olimlar ko‘makchilarda leksik ma‘no yo‘qolib, faqat grammatik ma‘no qoladi, deyilar (Shmelov 1961; Berdiyev 1949). Ikkinchi guruh olimlar esa ko‘makchilarning grammatik ma‘noga ega bo‘lishini tan olib, birinchi guruh olimlarga qo‘shiladi. Lekin ko‘makchilarda to‘liq bo‘lmaganda ham ma‘lum miqdorda leksik ma‘no saqlanib qolishini qayd etib, birinchi guruh olimlardan farqlanadi. Shuning uchun ham ikkinchi guruh olimlar ko‘makchilarni **«nepolnoznachnie slova»** termini bilan atashni ma‘qul ko‘radilar (Afzalov 1952; G‘ulomov 1957; Hojiev 1984). Masalan, ikkinchi guruh olimlardan biri V. V. Vinogradov: «Rus tilidagi ko‘makchilar o‘zlarining leksik mustaqilligini ma‘lum darajada saqlab qoladilar» (Vinogradov 1947), — deydi. Vaholonki, hamma ko‘makchilar (ot ko‘makchilar ham, ko‘makchi yuklamalar ham) o‘zlarining kelib chiqishlariga ko‘ra yo otlarga, yo fe‘llarga uzluksiz ravishda bog‘liqdirlar (Abdullaev, 1972; Koklyanova 1954).

Ko‘makchilarning leksik, grammatik ma‘nolari masalasi nazariy masala bo‘lib, ko‘makchilarning mustaqil ma‘noli so‘zlardan kelib chiqishini aniqlashda yordam beradi.

So‘zning mazmun tomoni undagi leksik va grammatik ma‘nolarning birligidan tashkil topadi. Shunday ekan, mustaqil ma‘noli so‘zlarda ham, yordamchi so‘zlarda ham leksik va grammatik ma‘no mavjud. Lekin bundan ular mustaqil ma‘noli so‘zlardagi leksik va grammatik ma‘noga teng xususiyatga ega degan fikr kelib chiqmaydi. *Avvalo*, grammatik ma‘no, kategorial ma‘no, leksik ma‘no deyilgan terminlarni aniqlash, keyin shu terminlarni yordamchi so‘zlarga,

jumladan, ko‘makchilarga qo‘llaganda nimalarga e‘tibor berish lozimligi haqida fikr yuritish joiz.

Grammatik ma‘no bir morfologik guruhni tashkil etuvchi hamma so‘zlarga xos xususiyatdir. Grammatik ma‘no so‘zlarga qo‘shimcha vositalar qo‘shilishi orqali ifodalanadi (so‘z o‘zgarishi, so‘z birikmasining tashkil qilinishi va boshqalar).

Grammatik ma‘noga kategoriya ma‘nosi ham kiradi. Kategoriya ma‘nosi juda keng leksik ma‘no bo‘lib, predmetlik, belgi, harakat kabilarni o‘z ichiga oladi. Har qaysi grammatik kategoriyaning tashqi ifoda vositasi bo‘ladi. Otning kategorial ma‘nosi predmetni bildirib, son, kelishik qo‘shimchalarini olib, substantivlik birikmani yaratilishida seziladi. «Grammatik ma‘nolar predmet bilan ob‘ektiv olam hodisalari orasidagi munosabat va aloqani aks ettiradi» (Steblin - Kaminskiy 1957).

Har qaysi so‘zning leksik ma‘nosi bo‘lib, u leksik ma‘no bitta so‘z turkumiga taalluqli bo‘lgan so‘zlarning bir-biridan farqini ta‘minlaydi. Masalan, ot: qalam, daftar; sifat: oq, qora; son: uch, besh, yigirma; fe‘l: kel, yoz, ayt; ravish: erta, kech, tez va b.

Ko‘makchilarda ham kategorial ma‘no va o‘ziga xos xususiyatga ega bo‘lgan leksik ma‘no mavjuddir. Ko‘makchilarning kategorial ma‘nosi ularning boshqa bir mustaqil so‘zga birikib kelishidir. *Ko‘makchilar ikki tomonlama sintaktik munosabatni yaratadilar, ya’ni tobe bo‘lakka birikib, o‘sha tobe bo‘lakning hokim bo‘lakka tobelanish munosabatini ta‘minlaydi. Ko‘makchilar shu xususiyati bilan mustaqil ma‘noli so‘zlardan farqlanadi.*

Ko‘makchilar aslida mustaqil ma‘noli so‘zlardan kelib chiqishi yuqorida qayd etilgan edi. Lekin «ko‘makchilar mustaqil ma‘noli so‘zlardan farqli ravishda ikki tomonlama sintaktik munosabatni yaratishda qo‘llanadi. U sintaktik munosabat tobe bo‘lakning hokim bo‘lakka bo‘lgan munosabatining yaratilishida namoyon bo‘ladi» (Shukurov 1995).

Ko‘makchilarning leksik ma‘nosi o‘zi birikib kelayotgan mustaqil ma‘noli

soʻzning leksik maʼnosiga bogʻliqdir. Koʻmakchilarning leksik maʼnosi umumiy yoki xususiy boʻladi. «**Koʻmakchilarning leksik maʼnolari juda xilma-xil boʻlib, koʻmakchi birikayotgan mustaqil maʼnoli soʻzga bogʻliq boʻladi. U maʼnolar nihoyatda umumiy yoki nihoyatda xususiy xarakterga ega boʻlishi mumkin**» (Aydarov 1971; Usmanov 1957). Masalan, **sari, tomon, qarab** koʻmakchilarning umumiy leksik maʼnosi otlarga birikkandan keyin harakatning biror nuqtaga yoʻnalishini ifodalashidir. Masalan, oʻzbek tilida **uchun** koʻmakchisining atalganlik maʼnosini ifodalashi uning xususiy leksik maʼnosi hisoblanadi. Chunki **uchun** koʻmakchisidan boshqa koʻmakchi atalganlik maʼnosini bildirmaydi.

Koʻmakchilarning umumiy maʼnosi ularning sinonimlik xususiyati boʻlib, albatta, har qaysi koʻmakchining oʻziga xos stilistik ahamiyati ham sezilib turadi. Masalan, **sari** koʻmakchisi oʻzbek adabiy tiliga xos boʻlib, Istiqlol s a r i olgʻa kabi konstruksiyalardagina ishlatilib, **sari** koʻmakchisi oʻrnida boshqa bir koʻmakchi yoki grammatik vositani koʻllash mumkin emas. Chunki bunday konstruksiya shiorlar yaratilishida tuzilib, undagi komponentlar turgʻun birikma shakliga yaqinlashadi. Koʻmakchilarning bunday xususiyatlariga ham ishning yoritilishi jarayonida alohida eʼtibor beriladi.

Koʻmakchilarning mustaqil maʼnoli soʻzlardan farqi koʻmakchilarda mustaqil leksik maʼno yoʻq ekanligidagina emas, balki koʻmakchilardagi leksik maʼno qandaydir oʻziga xos xususiyatga ega boʻlib, ular mustaqil maʼnoli soʻzlarga birikkandagina paydo boʻlishidadir. **Masalan, maqsad, sabab** otlari **maqsadida, sababli** morfologik shakllarida koʻmakchi kategoriyasiga oʻtib, sof koʻmakchilardek grammatik xususiyatga ega boʻlib, maqsad, sabab maʼnolarini ifodalaydilar: Bul avulgʻa qaladan yashav *maqsaʼtinda* kochip keldim. Avullash bolgʻanym *səbəpli* saña ынанаман (qipch.). Ayrim koʻmakchilar ham mustaqil maʼnoli soʻzlarga birikib, **sabab, maqsad** maʼnolarini bildiradilar. Bunday sabab, maqsad maʼnosi oʻsha koʻmakchining leksik maʼnosi hisoblanadi: Uol көпти *kərgənichun* көпти тапыды (sabab) (nazx.). Əңgəmələship uotyruv *uchyn* kebedim (maqsad) (qoʻngʻ.).

*Mustaqil ma'noli so'zlar **bilan** ko'makchilarning o'zaro farqlaridan yana bittasi ularning leksik va grammatik ma'no ifodalashida bilinadi. Mustaqil ma'noli so'zlarning asosiy belgisini, ya'ni ularning leksik ma'nosini predmet, harakat, belgi, miqdor va shu kabilarni bildirishi, birorta so'roqqa javob berishi va alohida gap bo'lagi bo'lishi tashkil etadi.*

Ko'makchilarga xos asosiy belgi ularning grammatik ma'nosi, ya'ni bitta mustaqil so'zning ikkinchi mustaqil so'zga tobelanishi munosabatini yaratishidir. Ko'makchilarning grammatik ma'nosi nihoyatda ustun bo'lib, uning leksik ma'nosini aniqlash, sezish qiyin bo'lgani uchun ayrim olimlarda ko'makchilarda leksik ma'no bo'lmaydi, degan fikr hukmron bo'lgan (Rustamov 1958; G'ulomov 1947). Bunday nazariy kamchiliklarga ega bo'lgan fikrning paydo bo'lishiga asosiy sabab ko'makchilarning xuddi kelishik qo'shimchalaridek xususiyatlarga ega bo'lishi, ya'ni tobe bo'lakning hokim bo'lakka bo'lgan grammatik munosabatining yaratilishida qo'llanishidir. Lekin shunga e'tibor berish kerakki, kelishik qo'shimchalari bilan ko'makchilar mantiqan mutlaqo bitta tushuncha deb bo'lmaydi. Aniqrog'i, ko'makchi deganda kelishik qo'shimchasi, kelishik qo'shimchasi deyilganda ko'makchi tushuniladi deb bo'lmaydi. Chunki kelishik qo'shimchasi otga qo'shilib, uning morfologik bir qismi bo'ladi va relyativ munosabatni yaratadi.

Uchun, qadar, sari, sayin, kabi ko'makchilari tarixan mustaqil ma'noli so'zlar bo'lib, ular hozir mustaqil ma'nosini yo'qotib, sintaktik munosabatlarni ifodalash uchun xizmat qiladigan formantlar hisoblanadi. Tilshunoslar tomonidan bu tipdagi yordamchi so'zlarning "ko'makchi" ekanligi e'tirof etiladi.

Ko'pchilik tilshunoslar ko'makchilar guruhiga taalluqli so'zlarni morfologik belgilari yoki qaysi so'z turkumidan ajralib chiqishiga ko'ra quyidagicha guruhlab ko'rsatadi:

1. Asl, tub ko'makchilar – **sari, sayin, uchun, kabi, bilan;**
2. Ot, sifat, ravish ko'makchilar – **ilgari, tashqari, orqali, qarshi, keyin;**
3. Fe'l ko'makchilar – **ko'ra, o'sha, qarab, deb, qaraganda, deganda.**

Keyingi paytlarda ko‘makchilarni morfologik-etimologik nuqtai nazardan ikki guruhga ajratish odat tusiga kirgan. Ya’ni ot, sifat, ravish ko‘makchilar bilan fe’l ko‘makchilarni birlashtirilib “funksional(vazafadosh) ko‘makchilar” nomi bilan atamoqda (T. Rustamov). Bu ikki nom bilan berilayotgan ko‘makchilar aynan xususiyatga ega bo‘lgan yordamchi so‘zlardir. Lekin “funksional ko‘makchilar” termini bu turdagi yordamchi so‘zlarning xususiyatini to‘liq ifodalab bera olmaydi.

Ko‘makchi esa ot bilan birikma shaklida bo‘lib, relyativ munosabatni yaratadi. Kelishik qo‘shimchalari morfema. Ko‘makchilar esa ma’lum darajada leksik ma’noga ega bo‘lgan so‘zlardir.

Shuningdek, ko‘makchilar kelishik qo‘shimchalaridan farqli ravishda o‘zlarining so‘z urg‘usiga ega bo‘ladilar. Ko‘makchilar formal jihatdan mustaqil ma’noli so‘zlarga o‘xshaydilar, ya’ni ko‘makchilarning morfologik tarkibida egalik va kelishik qo‘shimchalarini va so‘z yasovchi qo‘shimchalarni uchratish mumkin (*səbəpli, haqında, maqsətində, siḡəri* va b.).

Ko‘makchilar mustaqil gap bo‘lagi bo‘lolmaydi. Shunga asoslanibgina ko‘makchilar leksik ma’noga ega emas deyish nazariy uncha to‘g‘ri bo‘lmasa kerak. Chunki bunday fikr olg‘a surilganda ikkita har xil tushunchani (leksik va grammatik tushunchani) aralashtirib yuboramiz. Mustaqil ma’noli so‘zlar ko‘makchiga o‘tganida uning leksik ma’nosi ham katta ahamiyatga ega bo‘ladi. Masalan, maqsad, sabab otlari *maqsətində, səbəpli* shakllarida ko‘makchi vazifasida ishlatilganlarida biri maqsad, biri sabab ma’nolarini anglataveradi. Shuningdek, mustaqil ma’noli so‘z ko‘makchiga o‘tganida o‘zi mansub bo‘lgan grammatik kategoriyaga xos xususiyatni yo‘qotib, so‘z yasovchi, so‘z o‘zgartuvchi qo‘shimchalarga befarq bo‘lganidek, tobe bo‘lakning hokim bo‘lakka bo‘lgan grammatik munosabatini (relyativ munosabatni) ifodalab, tobelanish aloqani ta’minlaydigan grammatik voqeaga aylanadi. Lekin ularning mustaqil ma’noli so‘zlardan, boshqa so‘z turkumidan yordamchi so‘zlarga, ko‘makchilar turkumiga o‘tganini unutmaslik kerak.

O'zbek tilidagi dialektal ko'makchilarning tarixiy taraqqiyotini o'rganish ko'makchilarning yaratilishidagi nazariyani to'latadi va uning turkiy tillarga xos xususiyatini yanada mukammalroq yoritilishiga asos bo'ladi. Shuning uchun ham o'zbek tilidagi dialektal ko'makchilarning tarixiy taraqqiyotini yoritish o'rinlidir.

Ayrim ko'makchilar shakl jihatidan ot ko'makchilarga o'xshasalar-da, aslida ularda sof ko'makchilarga xos xususiyat bor. Masalan, *qashyinda* oti mustaqil ma'noli so'z bo'lganida unda predmetlikni ifodalash mavjud bo'ladi. Masalan, quyidagi misolimizda *qashyinda* oti anglatayotgan predmet kimgadir qarashli bo'lgan narsa ekanini bildiradi: *Belamni qashyinda Karim jorasyi ham bar yedi (biyb.)*. Lekin *qashyinda* ko'makchi funksiyasida qo'llanganda ko'chma ma'no kasb etib, o'zi birikib kelayotgan otning boshqa bir otga bo'lgan grammatik munosabatini bildirib, mustaqil leksik ma'no ifodalash, ya'ni predmetni bildirish xususiyatini yo'qotadi: *Keysani qashyinda dukanam bar (mang')*. Bunday konstruksiyada *keysani qashyinda* — tobe bo'lak, *dukan* — hokim bo'lak bo'lib, tobe bo'lak hokim bo'lakning belgisini, xususiyatini, ya'ni *keysa* ixtiyorida bo'lgan *dukan* ekanini *qashyinda* ko'makchisi bildirmoqda. Shuning uchun ham bunday konstruksiyada ko'makchi *qashyindag'yi* shaklida ishlatilishi ham mumkin. Masalan, *keysa qashyindag'yi dukan ishlabatyr* gapida ham *qashyindag'yi* sifati ko'makchi funksiyasini bajarayotgan yordamchi so'z bo'lib, *keysa* otining *dukan* otiga bo'lgan grammatik munosabatini ta'minlamoqda. *Qashyindag'yi* sifatning bunday grammatik xususiyatga ega bo'lishida asosiy sabab uning predmetni ifodalash xususiyati yo'qolib, ko'chma ma'no anglata boshlaganidir.

T. Rustamov *haqyinda*, *haqida*, *tuvrsyinda*, *tuvralyi* kabi qator otlar ham xuddi *qashyinda*, *qashyindag'yi* ko'makchilaridek grammatik xususiyatga ega bo'lgan sof ko'makchilar tariqasida qaraydi (Rustamov). Lekin V. A. Esangalieva qozoq tilidagi bunday ko'makchilarni «oraliq ko'makchilar» termini bilan ataydi. Bunday ko'makchilarda sof ko'makchi va ot ko'makchilarga xos xususiyat bo'lgani uchun ham o'shanday termin bilan atalgan va ular alohida bobda yoritilgan (63).

Biz bunday konstruksiyadagi ko‘makchilarni sof ko‘makchilar bo‘limida yoritishni shuning uchun ham lozim topamizki, qashynda, qashyndag‘y va boshqa shunga o‘xshash qator ko‘makchilarning morfologik shakli ot va sifat turkumlariga taalluqli bo‘lsa-da, ularning nutqimizdagi o‘rni va faoliyati faqat ko‘makchidir (Rustamov).

Hozirgi o‘zbek shevalaridagi ko‘makchilarning tarixiy taraqqiyoti o‘rganilgandagina uning tub mohiyati ochiladi. Masalan, o‘zbek tilining tarixida qo‘llangan ko‘makchilar bilan hozirgi o‘zbek tili va uning lahjalarida qo‘llanayotgan ko‘makchilar teng va bir xil deb bo‘lmaydi. Shuning uchun ham ularning tarixiy taraqqiyoti bosqichlarini o‘rganganda o‘sha har qaysi ko‘makchining tarixan fonetik, grammatik, semantik o‘zgarishi, bunday o‘zgarishlarning asosiy tamoyillari alohida diqqat-e’tiborda bo‘lishi lozim.

O‘zbek tili tarixida qo‘llangan ko‘makchilarning davrlar bo‘yicha miqdorini aniq belgilash qiyin. Chunki mustaqil ma’noli so‘z ko‘makchi funksiyasida ishlatilib, yana mustaqil ma’noda qo‘llangan bo‘lishi mumkin. Hatto nihoyatda ko‘p va qayta-qayta ishlanishiga qaramasdan, hozirgi o‘zbek tilida qo‘llanayotgan ko‘makchilar birorta asarda to‘lig‘icha yoritib berilmagan. Masalan, 1975-yilda nashr qilingan «O‘zbek tili grammatikasi» asarida **dovur, nisbatan, soyasida, huzurida** va boshqa ko‘makchilar ko‘rilmagan. Shuningdek. A. N. Kononovning 1964- yilda nashr qilingan («*Grammatika sovremennogo uzbekskogo literaturnogo yazıka*») asarida va muallifning 1965-yilda nashr qilingan «Hozirgi o‘zbek adabiy tilida ko‘makchilar» monografiyasida qator ko‘makchilar yoritilmagan: **o‘sha, asosan, misol** va b.

O‘zbek tili lug‘atlarida ham o‘zbek tilida ishlatilayotgan hamma ko‘makchilar o‘z aksini topmagan. Natijada, o‘zbek tili lug‘atlarida ko‘makchilarning berilishi har xil bo‘lgan. Masalan, 1981-yilda Moskvada nashr qilingan «O‘zbek tilining izohli lug‘ati»da **boisi, boisidan, sifatida, huzurida** kabi so‘zlarini ko‘makchi vazifasida kelishi qayd etilmagan. Lekin *mobaynida, asnosida, asno, qarshisiga, qarshisida, qarshisidan, yaqiniga, yaqinidan, yaqinida, uzasida, tepasiga,*

tepasida, tepasidan, orqasida, orqasiga, orqasidan, maqsadida kabi qator soʻzlarning koʻmakchi funksiyasida kelishini yoritishi toʻgʻri boʻlgan. 1959-yilda Moskvada nashr qilingan «Oʻzbekcha-ruscha lugʻat»da **deb, oʻsha** va boshqa soʻzlarning koʻmakchi funksiyasida kelishi qayd etilmagan. Bunday qiyinchiliklar oʻrganilayotgan mavzuning xarakteriga bogʻliq boʻlib, hozirgi oʻzbek tilidagi koʻmakchilarning miqdoriga chegara qoʻyib boʻlmaydi. Masalan, Gʻ. Gʻulomning asarida *uzasida* (OʻzTIL. 1981: N 43); Habibiyning asarida *uza* (OʻzTIL. 1981); Shuhrat, R. Chinmirzaevning asarlarida *misol, misoli* (OʻzTIL. 1981) koʻmakchilari uchraydi.

Koʻmakchilar tarixan mustaqil soʻzlar boʻlgan boʻlsa ham, ular hozirgi zamon oʻzbek tili va uning shevalarida ham oʻzining leksik (material) maʼnolarini yoʻqotgan, grammatik maʼnosigina saqlanib qolgan soʻzlardir. Shuning uchun ular hozirgi zamon oʻzbek tili hamda dialektlarida faqat boshqa soʻzlar bilan birga ishlatiladi.

Koʻmakchilar oʻzgarmaydi (turlanmaydi, tuslanmaydi va yasalmaydi), kelishiklarni boshqaradi. Masalan, *menchun:men uchyn; senchun:sen uchyn* (bosh kelishik); *senchun: seni uchyn* (qaratqich kelishik), *yygə tərəp* (joʻnalish kelishigi).

1.2. Qoraqalpogʻistondagi oʻzbek shevalarida dialektal sof koʻmakchilarning leksik-semantik va grammatik xususiyatlari.

Hozirgi o'zbek tili dialekt va shevalarida ko'makchilarning ikki xili uchraydi. Bular: *bilan, uchun, siqari, sayyn, qadar, dāvur, mustaqil* ma'nosini tamoman yo'qotgan so'zlar va *taman, bashqa, bōlak, sēbābli, arqalı, tuvralı, jōnindā, tuvrıсында, tufayli, qarap, qaray, qaramay, qarata, qarag'anda, soq, kiyin, tashqarı, tıshqarı, beri, berbag'an, harı, harbag'an, hām, kōrā, chēlli, chiyin, chākām, yiraq(uzra , yōyagā)* kabi ko'makchi vazifasida qo'llanuvchi, mustaqil so'zlardan (ot, sifat, ravish va fe'llardan) ko'makchilikka ko'chgan so'zlardir.

Bilan ko'makchisi va uning fonetik variantlari grammatik ma'no anglatishida ham o'zaro o'xshash xususiyatlarga va alohidalikka ega. Masalan, bu ko'makchining hamma fonetik variantlari vosita, birgalik, sabab, holat, payt, ob'ekt, o'rin ma'nolarini anglatadi. Lekin maqsad ma'nosi kam uchraydi.

Bilan ko'makchisi payt ifodalaganda ikki xil ma'no ottenkasiga ega bo'ladi: a) umuman ish-harakatning ijro etilgan payti; b) bir ish harakatdan keyin tezlik bilan ikkinchi ish-harakatning ijro etilishiga ko'ra payt va b.

Bu ko'makchi quyidagi ma'nolarni anglatgan:

Vosita: Maldı *pıchaqmān* soydı (biyb.). Uol **dunyasy minēn maqtanadı** (mang').

Birgalik: Avuldan Mōtkōrim urıshqa *Hashım minēn* ketti (xo'j.).

Ob'ekt: *Ko'plar minēn* ag'auyn qılasang (mang'). Me:ñ shadlıqqa bōlēngēn yurtım (biyb.). *Ballar vilēn* idarada irēystiñ mēmilēsi dım yaxshıyedi(qilchb.).

Sabab: *Uēz qılmyshyñ minēn* sotlandyñ (**nazx.**). **Dōrt minēn** bir allag'a nalysh yetēmēn kyn-tyn(biyb.)

O'rin. Yipēk **yoly mēn** Qōqratqa bardım(biyb.). Yōñyqchqalyq ichi minēn uētip keldik(bern.).

Payt. Qudag'ay **azanmēn** yyinā jōnēdi, **yechkim minēn** xayırlashmāstan(bern.). Bē:ār kelishi bilēn diyxan qo'zg'aladı (biyb.).

Holat: *Pōrdā minēn* achıtyp sōylēdi Sapar gri:s (xo'j.). Azanda uoyanuvım minēn ashıg'ıyp yolg'a chıg'abirdim toydan kechikmiyin dep (mang').

Maqsad: *Sapar yetish rasmi minən Samarqang'a atlandı(bern.). Xalq toq yashash ʻymidimən tʻyn-kʻyn miynət yetədi(biyb.).*

Buyum materiali: *Bu Haytbay mərgən mərmər tash bilən qabr qurdırdı yəzinə tiriligində (xo'j.)*

O'xshatish, evaz, zidlik: *Bu ma'nolarning yaratilishida bilan ko'makchilari ishlatilgan: a) o'xshatish: arıq yer tegin minən kʻychəyədi (qırch.). Jəhənnəmnin əzabımən bag' iettim (bern.). b) Evaz: Bir miḡ kitap ming som bilən tayyar boldı(qırch). v) Zidlik; Avara boma sorashtırg'an minən yeshtəmə bilalmyısaḡ (nazx.).*

Bilan ko'makchisi payt ifodalaganda o'ziga xos ma'no ottenkasiga ega bo'lib: a) umuman ish-harakatning ijro etilayotgan paytini; b) bir ish-harakatdan keyin tezlik bilan ikkinchi ish-harakat boshlanganini; v) ikki ish-harakat parallel rivojlanishini bildiradi:

a) umuman ish-harakatning ijro etilgan payti: *Tunimən shunı uoylap chıqqan Shasənəm, taḡ atqalı beri G'əriptin yolın kytədi (nazx.).*

b) bir ish-harakatdan keyin tezlik bilan ikkinchi ish-harakatning bo'lishi: *Bir bala muallimdi kəruvi minən klasqa yygyrdi papkəsin yergə tashap(mang'.). v) ikki ish-harakatning parallel rivojlanishi: Kyndiz ishləgəni minən kechki məktəptə uoqıdı (xo'j.).*

Shuningdek, ham ergashtiruvchi, ham biriktiruvchi bog'lovchi bo'lish, grammatik yumuq gruppani yaratish ham **bilan** ko'makchisining grammatik xususiyatiga xosdir.

Bilan ko'makchisi shevalarda nihoyatda faol ishlatiladi. U, asosan, bosh kelishikdagi ot va olmoshlarga birikkan. Uning semantikasi ham xilma-xil bo'lib, birgalik vosita, holat, sabab, payt, ob'ekt, ziddiyatlik, maqsad, evaz kabi ma'nolarni anglatadi.

Yuqorida qayd etilganlardan ma'lumki, o'zbek tili tarixiga, umuman turkiy tillar tarixiga oid yozma yodgorliklardagi **bilan** ko'makchisi va uning fonetik variantlari grammatik, semantik xususiyatlari bilan o'zaro nihoyatda yaqin bo'lgan. Lekin qo'llanish davriga ko'ra, iste'mol darajasiga ko'ra va boshqa

jihatlarda farqli holatlar ham uchraydi.

Bilan ko‘makchisi o‘g‘uz gruppasi tillari dialektlarida **v’len** shaklida ham ishlatiladi (Abdullaev 1965:62). Lekin hozirgi turkman tilida **vilen**, **bile** shaklida qo‘llanadi. Turkman tili tarixiga oid adabiy asarlarda *birlen*, *birle*, *ile* shakllari ham ishlatilgan (Gramm. turkm. yaz. 1970:402, 405).

Qadimgi turk tilida ishlatilgan *birla*, har xil turkiy tillar va ularning dialektlarida quyidagicha shakllarga ega bo‘lgan: *bile* (tuv), *pile* (salar.) *ile > le*; *bila* (Karanm, barab, alt.; dial.) *bla* (Qbal., xak., dial.) *ba* (Karaim, shor, chuv.) (Magomedov 1963:113).

Hozirgi adabiy o‘zbek tilida **bilan**, **birlan**, **birla**, **bila**, **ila**, **-la** shakllarida uchrasa, og‘zaki nutq va o‘zbek tili dialektlarida: *minan*, *manan*, *man*; *pinən*, *pən* shakllarida uchraydi.

Bilan ko‘makchisi kelib chiqishiga ko‘ra **birlan** ko‘makchisiga taalluqlidir (Kononov 1960:297).

Bilan ko‘makchisi hozirgi o‘zbek tilida birgalik, qurol-vosita, payt, masofa ma’nolarini ifodalaydi. (Kononov 1960: 300).

Bilan ko‘makchisi hozirgi o‘zbek adabiy tilida o‘n xil semantik xususiyatga ega: birgalik, qurol, vosita, bir harakatdan keyin ikkinchi harakatning bo‘lishi, payt, ob’ekt, holat, maqsad, jarayon yoki ish-harakatning usuli, tarzi ikkita ish-harakat bir paytda sodir bo‘lgani, umumlashtirish, xulosalash va b.

Uchun ko‘makchisi. O‘zbek tili va uning dialektlarida qo‘llanayotgan sof ko‘makchi **uchun** qadimgi turkiy tillar yozma yodgorliklarida ham ko‘makchi vazifasida qo‘llangan⁴. **Uchun** ko‘makchisining etimologiyasi haqida fikr yuritgan olimlarimiz morfologik tarkibiga ko‘ra u ikki qismga bo‘linishini aytadilar. Ma’lumki, **uch** — ot - **un** vosita kelishigining qo‘shimchasidir. **Uch** esa ikki xil ma’no anglatgan:

⁴ В. М. На с и л о в. Язык орхон-енисейских памятников, М., 1960, стр. 42.

1) predmetning eng yuqori qismi; 2) sabab⁵.

Uchun ko‘makchisi tarixan quyidagicha grammatik xususiyatlarga ega bo‘lgan:

1. Hozirgi o‘zbek shevalarida ham **uchun** ko‘makchisi bosh kelishikdagi otlarni boshqarib keladi: *tuvylg‘an yel uchun* xizmatimdi sygy ayamyym (biyb.); q‘zym uchun mal dunya djiydy (qipch.); Tesh qade *kyyav uchun* beriladi (qang‘l.). *Dilshat uchun* baxtly kynlari yetti (nazx). Bu xususiyat qadimgi yozma yodgorliklari tilida ham faol qo‘llangan: (Taf., 64 b, 4). Atasы **uchun** (K,A, 57 a, 23). Jan saydy uchun (YAq., 318 a). Zavq *uchun* (DN, 241

2. Bosh kelishikdagi **-lik(-lyq-lik)**, affiksli mavhum otlarni boshqaradi: cadaqany *amallyq uchun* beresen (mang‘.). *Toylыq uchun* qyz betke semiz bir qoy aparsam, qudanyң kevni tolma (biyb.). Qiyoslang. Kevyl xushluqy uchyn (Taf., 14a, 2). Kechelik uchun (KqA, 68 6, 15). Sevukluki uchun (KD, 35 a, 12). Xushnudlukun uchun (NF, 204 a, 12). Hozirgi o‘zbek adabiy tilida ham ko‘makchining bu xususiyati bor: Bir kishining *xushvaqtligi uchun* erkinlikni qo‘ldan berma!

3. Bosh kelishikdagi harakat nomlariga birikadi: a) **-yuv\ -uv** affiksli harakat nomiga birikib keladi: *uoquvg‘a kiryv uchun* balanyң yezinde savat boluv kerek(xo‘j.); Navruz bayramyna baruv uchyn typli aldym(biyb.). qiyoslang. XIV—XV asrlarda yaratilgan yodgorliklarda ham uchraydi: Oz jadulyqyny bizge *kergutku uchun* (Taf. 28—24). Davudny umidsiz *qylg‘u uchun* (K,A, 103 6, 26).

b) **-sh (-ish\ -ysh)** affiksli harakat nomiga birikib keladi: jay komekk *barysh uchun* tayyarlan(bern.); paqsag‘a *ylay atysh uchun* kyh kerek, kim bosa sho atabirmiydi(mang‘.). qiyoslang. XVI asrning boshlarida paydo bo‘lib, Shayboniynoma asarida bittagina misol uchraydi. Lekin XIX asrning II yarmidan boshlab, ayniqsa, XX asrning boshlarida bu ko‘makchining **-sh (-ish\ -ysh)** affiksli

⁵ А. Н. К о н о н о в. Послелог в современном ўзбекском литературном языке, Ташкент, 1951, стр. 15; Грамматика современного турецкого литературного языка, М.—Л., 1940, 88-бет. А. М. Щербак. Грамматический очерк языка тюркских текстов X—XIII вв. из Восточного Туркестана, М.—Л., 1961, стр. 190.

harakat nomiga birikib kelishi ko‘p qo‘llangan: *Ko r u n u sh uchun* borg‘oni (SHN, 255). *T u r i b qolishi uchun* (Furq., 2, 143). O‘z qo‘liga olish uchun (M. cha., 14).

v) XVI asrda va XX asrning boshida **-uv** affiksli harakat nomiga birikkan. Lekin bunday misollar nihoyatda kam uchraydi; Kordiikin ol tiyuv uchun malal (MA, 31, 314 a).

g) **-maq\ -mæk (-moq)** affiksli harakat nomlariga birikib kelishi o‘g‘uz tip shevalarda ko‘plab uchraydi: dängənəgə *qoshılmaq uchun* pul berdim(sarb.); yash toyg‘a *soymaq uchın* aq qochqar kərək (qılchb.); Əməttiң *halын soramaq uchın* Biybazarg‘a barыp qaytuvым kərək(mang‘.); *nan yarmaq uchın* irəpiydə kiyyv kərək qolg‘a, bomasa qolың kyyədi (Shimom.). qiyoslang. *Z a h ы r bolmaq uchun* (Taf., 70 b, 3). *Bilkurtmek uchun* (Taf., 146 a, 13). *Tob urmaq uchun* (K|A, 150 b, 28—29). *Kormek uchun* (KD 90 6, 26—27), (MN, 303 a, 9). *Əpmek uchun* (YUA, 331a). *Bilmek uchun* (XSH, 3 6, 10). *Bildurmek uchun* (NF, 19a, 8). *Kəñlik tabmaq uchun* (G, 43 a, 4). *Isıtmaq chun* (Nav. FSH, 37).

Hozirgi o‘zbek adabiy tilida **-sh (-ish)**, **-moq** affiksli harakat nomlarigagina birikadi, xolos: arag‘a sug‘ılyp *kirmək uchın*; hayalын ap kelish uchın izinən Shunday qilib, yozning, Olib kelish uchun va b.

- **Uv** shakli hozirgi o‘zbek adabiy tilida ko‘pincha uslubiy ma’noda qo‘llanadi: *qorqıtuv uchun, qəchuv uchun, yuluv uchun* kabi.

4. Bosh kelishikdagi sifatdoshlarga birikadi:

a) shevalarda **-r, -ar, -ur** affiksli sifatdoshning inkor formasi **-mas\ -mas; -məslik\ -maslıq** affiksli shakliga ***uchın*** ko‘makchisi birikadi: toyg‘a *barmaslıq uchun* seniң bə:əpəң (xo‘j.); qızıңды biziң balag‘a *berməslik uchun* bashы boshəməs debatyrsaң (qırch.). Qiyoslang. *Eshitmeslik uchun* (Taf., 108 a, 19). *Kərməz uchun* (KA, III, b II). *Ketmes uchun* (G, 184 a, 7). *Diyor uchun* (O, 67). *Ə l t u r u r uchun* (Lutf., 2 6, 7).

b) qadimgi yozma yodgorliklar tilida **-duk, -mish (-мыш)** affiksli sifatdoshlarga uchun ko‘makchisining birikib kelish holati xos: «Tafsir»da uchrasa,

«Qissasul anbiyo», «Xisrav va Shirin» asarlarida faqat **-mish** affiksli sifatdoshga birikib kelgan: Өlduki uchun (Taf., 71 b, 17). Tutmish uchun (Taf., 30 b, 23). Mubtala bolmish uchun (KA, 124 6, 2). Any saqlamish uchun (KA, 113 a, 32). Bilmish uchun (XSH, 72 b, 2).

v) **-gan, -g'an, -qan** affiksli sifatdoshga birikadi. Bu sifatdosh III shaxs egalik qo'shimchasini olishi ham mumkin: qo'lda *ushlap turg'an uchyn*; малы *yyda baqqan uchyn* semiz(xo'j.); Өbdirim mola көр *uqyq'an uchyn* savatly, көр nәrsәni bilәdi; ayby *bolg'an uchyn* tili qudasymyñ aldynda qyсыq(mang'), qiyoslang. Band tutgen uchun (Taf., 62 b, 40). Kirgen uchun (KA, 17 b, 16). Suhbatlyq qylg'an uchun (YAq., 319 a). Qalg'an uchun (G., 35 a, 7). O'g'irliq qilg'on uchun (O, 136). Qul bolg'an uchun (Lutf., 57 a, 8).

Bu ko'makchi hozirgi o'zbek tilida faqat **-gan** affiksli sifatdoshning bosh kelishikdagi formasiga birikadi: Qudo *bo'lganingiz uchun*; o'rgatganing uchun va b.

5. Shevalarda **uchyn** ko'makchisi olmoshlar bilan birga qo'llanganda quyidagicha xususiyatga ega bo'ladi:

1. Kishilik olmoshlarga birikkanda:

1) I—II shaxsning birlik va ko'plik hamda III shaxsning birlik shakllariga qaratqich kelishigi qo'shimchasidan keyin birikkan: *menim uchyn* bашың avrymasym, әvәl yөziңdi bil (qipch.); *se:ñ uchyn* briygattan men söz eshitәmәn; *uonyñ uchyn* tamaq asmadym, yanynda kegәn Kәrim qudadan ыyaldym (nazx.). Shevalarda kishilik olmoshlarining birlik va ko'plik shakllari bilan birga, shuningdek, ko'rsatish olmoshlariga **uchun** ko'makchisi ko'pincha qisqa **chun** shaklida qo'llanadi: *menchun* mening uchun; *senchun* sening uchun; *uolchun* uning uchun; kishilik olmoshining birinchi va ikkinchi shaxs ko'pligi qaratqich kelishigida *biziñ uchun*: *bizchun* bizning uchun; *siziñ uchun*: *sizchun* sizning uchun; *uolar uchun*: *uolaruchun*. Bunday qisqa holatda qo'llanganda qaratqich kelishigi qo'shimchasi talaffuzda tushib qoladi. Agar kishilik olmoshlari qaratqich kelishigining belgili shaklida qo'llansa, **uchun** ko'makchisi to'liq

shaklida ishlatiladi. Xuddi ushbu holat qadimgi turkiy yozma yodgorliklar tilida ham qayd qilinadi, qiyoslang. Menim uchun (Taf., 44 6, 13). Menim uchun (KA,-319 a, 2). M e n i m uchun (KA, 50 a, 20). Menim uchun (YUA, 331 a). Menim uchun (NF, 202 a, 12). Mening uchun (GN,. 36). Siziñ uchun (Taf., 108 6, 19). Siziñ uchun (Taf., 88 a, 9). Seniñ uchun (KA, 67 6, 22). Seniñ uchun (NF, 198 a, A). Siziñ u ch u n (G, 68 b, 12). S e n i n g uchun (GN,378). Seniñ uchun (Nav. MK., 168). Seniñ uchun (Nav. MN, .35). Sening uchun (SHN, 273). Sizing uchun (SHN, 300). Seniñ uchun (SHtma., 72/1310). Аныñ uchun (Taf., 736, 8). А н ы ñ uchun (YUA, 335 6). Аныñ uchun (XSH, 12 b, 17).

Shevalarda I shaxs ko‘plikni ifodalaydigan **biz** kishilik olmoshiga **uchun** ko‘makchisi birikkanida qaratqich kelishikda, agar ular son affiksini olib, bizlar shaklida bo‘lsa, bosh kelishigida bo‘ladi: *Bizlar uchun*.

III shaxs birlikni ifodalovchi kishilik olmoshi shaklida qo‘llangan: uoning uchun.

2) **uchun** ko‘makchisi III shaxsning ko‘pligini ifodalovchi **uolar** bilan birikkanida uning bosh kelishikda kelishini talab qiladi.

Uchun ko‘makchisi hozirgi o‘zbek tili va uning shevalarida I—II shaxs birligini ifodalovchi kishilik olmoshlari *men, sen > mən, sənlarning* bosh va qaratqich kelishigidagi shakliga parallel birikaveradi: *men uchun, mening u ch u n, s e n uchun, sening uchun* kabi.

Uchun ko‘makchisi birinchi, ikkinchi shaxs ko‘pligini ifodalovchi **biz, siz** kishilik olmoshining bosh yoki qaratqich kelishigidagi shakliga birikaveradi: *b i z uchyn, biziñ uchyn* bizing uchun; *siz uchyn, siziñ uchyn* sizning uchun. Shevalarda bu ko‘makchi ikkinchi shaxs ko‘pligini ifodalaydigan **siz** kishilik olmoshining ko‘pincha bosh kelishikdagi formasiga birikadi: *siz uchyn*.

2. Ko‘rsatish olmoshining **uol** shakliga **uchyn** ko‘makchisi qaratqich kelishigi qo‘shimchasidan keyin to‘liq holda qo‘shiladi. Lekin **uol** ko‘rsatish olmoshining bosh kelishikdagi shakliga qisqa **chun** shaklida birikadi: *uolchun uochun, shulchun:sholchun; uonyn uchyn* uning uchun; *bunyn:munyn uchyn*

buning uchun; shonьң uchьm shuning uchun va b. Ko'rsatish olmoshining qaratqich kelishigi qo'shimchasini olgan shakli bilan **uchun** ko'makchisi ishlatilganda ko'rsatish olmoshlarining o'zak qismida *b-m*; *u-o* tovush almashinish hodisasi sodir bo'ladi.

«Boburnoma» asarida **anda** ko'rsatish olmoshiga **uchun** ko'makchisining birikib kelishi uchraydi.

Uchun ko'makchisi tarixan bu ko'rsatish olmoshining birlik va ko'plik sondagi qaratqich kelishigi qo'shimchasini olgan shakliga birikkan: *munьң uchьm*; *bularдьң uchьm*; *shonьң uchьm*; *uol uchьm* b.

Uchun ko'makchisi hozirgi adabiy o'zbek tili va uning shevalarida qaratqich kelishigidagi **shu** > **bu**, **u** ko'rsatish olmoshlariga birikadi: *bunьң, munьң uchun*, *shoning uchьm*, *uonьң uchun*.

Shu, **bu**, **u** ko'rsatish olmoshlari **-lar** son qo'shimchasini olgach, **uchun** ko'makchisi ularning bosh kelishikdagi **sholar**, **bular**, **uolar** shakliga birikadi: *bular uchьm*, *sholar uchьm*, *uolar uchьm* va b.

3. Bosh kelishikdagi o'zlik olmoshiga birikkan: *yözleriңiz u chь n*: *yözi uchьm*, *yö z i uchьm*: *yö z l e r i uchьm*.

Qoraqalpog'istondagi o'zbek shevalarida bosh kelishikdagi o'zlik olmoshiga **uchun** ko'makchisi egalik qo'shimchasidan keyin birikadi: *yözim u ch ь n*, *yözi uchьm* va b.

4. Bosh kelishikdagi **ne**, **na**, **nevi**, **nima** so'roq olmoshlariga **uchun** ko'makchisi qisqa **chun** shaklida birikib keladi: *nechun*: *nəchun* nima uchun; *nevochyt* va b. XXasrga kelib **nima** so'roq olmoshiga uchun ko'makchisi birika boshlagan. **Ne**, **na** so'roq olmoshlari iste'moldan chiqqan boshlagan. Lekin o'rganilayotgan shevalarida doimo **nima** so'roq olmoshi o'rnida **ne**, **na** so'roq olmoshini ishlatish xarakterlidir. Tarixan so'roq olmoshining qisqa **na**, **ne** shakli qadimiyydir. *Qiyoslang*. *Ne ujun* (Taf., 71a, 18). *Nechun* (KqA, 60a, 17). *Ne uchun* (K>A, 256, 26). *Ne uchun* (Nav. MK., 162).

Uchun ko'makchisi bosh kelishikdagi **kim** so'roq olmoshiga ham birikib keladi: *kimchun: kim uchyn; kim uchundir*.

Hozirgi o'zbek poeziyasi va, folklor asarlari tilida **uchun** ko'makchisi bosh kelishikdagi **nima** so'roq olmoshining qisqa **ne, nə** shakli bilan keladi: *ne uchun: nəchun* va b.

5. **-sin affiksi** vositasida yaratilgan III shaxs buyruq mayliga **uchun** ko'makchisi birikadi hamda kesatiq, kinoya ma'nolarini anglatadi: *balanı adashtyrysh aqsat bolsyn uchyn* qylg'an hiyləñ seniñ (nazx.). yörnək *alsynlar uchyn* kərsətkən hənəriñ həmməgə yershı tuıyldı (qılchb.).

Shevalarda **uchun** ko'makchisi fe'lining istak mayl shakliga birikib kelib, bunday ko'makchili birikma grammatik vazifasiga ko'ra maqsad ergash gapning kesimi bo'lib keladi: *aytyp qoymasyn uchyn*, маңа авыз бастырық берəсəñ (xo'j.). Xuddi shu holatda **uchun** ko'makchisiga deb to'liqsiz fe'lining ravishdosh shakli vazifadosh bo'la oladi: Kərim gəbin aylantyryp, aradag'ı gəpti *aytyp qoymasyn uchyn* səzdi bashqa yaqqa burdı (Xitoy).

6. **Uchun** ko'makchisi qisqa, *kichchi* (kichik), *uzaq* (yiroq), *dəsh* (dasht), *tashqari* kabi sifat va ravishlarga ham birikib kelish hollari kuzatildi: avul *uzaq uchyn* toyg'a baralmadım; aqtyq (nevara) *kichchi uchyn* qolyn holallatalmay yūrmən (qılchb.). Tilim qysyq uchyn sələmədim (biyb.). Bunda nutq jarayonida «bo'lgani» fe'li tushib qoladi. XV asr yozma yodgorligi tilida ham **uchun** ko'makchisining bunday grammatik xususiyati uchraydi: *kichik uchun* (Lutf., 37 a, 2). *q ы s q a uchun* (Nav. MN, 69). *у ы р а g' uchun* (Nav. SS, 105). *tashqarы uchun* (Nav. MN, 48),

7. **Uchun** ko'makchisi III shaxs egalik qo'shimchasini qabul qilgan **bor, yo'q** so'zlari bilan birikadi: qolynđa *barы uchyn* dəstirxan jayyp xalqqa toy berəсəñ (qırch.); Кеңəштə Јарақтың *yog'ы uchyn* Asqar бəңgi jəñjəl chыg'ardы (mang'.), *barы uchun*.

8. **Uchun** ko'makchisi **ko'p, oz** kabi ravish so'zlarni boshqarib keladi: *kəp uchyn* aytylg'an səz; *az uchyn* qylyng'an xarəjət (naym.). Bu so'zlarning

ko‘pchilik uchyn; azchilyq uchyn; k r *bolg‘allıg‘ı uchyn*; az *bolg‘allıg‘ı uchyn* kabi variantlari ham mavjud.

O‘rganilayotgan shevalarda uchun ko‘makchisining boshqarish xususiyatiga ko‘ra ancha keng bo‘lib, tushum, qaratqich, o‘rin- payt, vosita kelishikli otlar bilan birika olgan. Qadimgi turkiy tillar yozma yodgorligida ham ushbu boshqarish xususiyati ancha keng bo‘lgan⁶.

Shevalarda bosh kelishikdagi otlarga, harakat nomlariga, birikkan. sifatdoshlarga, shuningdek, III shaxsni ifodalovchi kishilik olmoshlariga qaratqich kelishigi qo‘shimchasidan keyin birikadi. Lekin I, II shaxs birligini ifodalovchi kishilik olmoshining bosh kelishikdagi shakliga birikkanda qaratqich kelishigi shakli tushib qoladi hamda qisqa **chun** shaklida birikadi, bir bosh urg‘uga ega bo‘ladi: *menchun, senchun; m nchun, s nchun* kabi. Bu holat bosh kelishik shaklida kelgan ot yoki otlashgan so‘zlarga ham xos xususiyat hisoblanadi: *malchun; g r shm k chun; tirilikchun, y lumlikchun, tilichun h m d n d kki yiydi(mang‘.)*. Ba‘zan **uchun** ko‘makchisi **chun** varianti bilan baravar qo‘llanadi. XI asr yozma yodgorliklari tilida ham faol ishlatilgan. qiyoslang.: *men uchun* (DLT, 3-tom, 370). *аның uchun* (KB, .3833). *dunya uchun* (KB, 1410). *tapunmaq uchun* (KB, 585). * churmek uchun* (KB, 3551). *t i r i g l i k uchun* (KB, 4593). *B u y a   l ı g ‘ uchun* (KB, 3304). *qylmysh uchun* (KB, 298). *sevitmish uchun* (KB, 3470). *Yayylmas uchun* (KB, 5483).

Shevalarda **uchun** ko‘makchisining son so‘z turkumining asosiga birikib kelish holati adabiy tilga nisbatan ancha faol bo‘lib, maqsad, evaz, atalganlik, sabab, taalluqli - ob‘ekt ma‘nolarini anglatadi. Hamda ko‘makchi bilan birikib kelayotgan son esa otlashgan bo‘lib, o‘zidan keyingi sifatlanmishning ma‘nosini ham ifodalaydi: *yeki uchyn; besh uchyn - yeki aluv uchyn; besh aluv uchyn* va h. Tarixan **uchun** ko‘makchisining son asosiga birikib kelishi faqat XI asr yozma

⁶ Qarant: Э. И. Ф о з и л о в. Ўзбек тилининг тарихий морфологияси, Тошкент, 1965, 135-бет.

yodgorliklariga xosdir: Bu ekki uchun (KB, 4098). Bu ekki uchun (KB, 4671). Lekin **uchun** ko'makchisining grammatik ma'nosi XIV—XIX asrlardagi eski o'zbek adabiy tili yozma yodgorliklarida nihoyatda kengaygan.

-Lyq\lik qo'shimchasini olgan sonlarga ham birikib kela oladi: qolymda *altilyqchun* krit qyldym kartany (biyb.). Ma'lumki, XIV—XX asrlardagi **uchun** ko'makchisining grammatik xususiyati XI asrdagi holatiga nisbatan nihoyatda keng bo'lgan.

1. **Uchun** ko'makchisi maqsad ma'nosini ifodalaganda ko'makchi **-ly\li** birikmani boshqarayotgan hokim bo'lak—fe'ldan anglashilgan xarakatning ijro etilishidagi maqsad ko'makchili birikmadan anglashilgan predmet yoki holatga erishish ekani bildiriladi: *bizərgə korsətuv uchyn vəz uoqydy; kərmək uchyn* keldim shoncha yaqtan bajamdy (qilchb.). Bu ko'makchi hozirgi o'zbek tilida ham maqsad ma'nosini ifodalash uchun qo'llanadi: lekin yarlylyqtan *qutyluv uchyn* yerdiñ yəzi yetərliməs (qilchb.).

2. **Uchun** ko'makchisi **evaz** ma'nosini anglatganda hokim bo'lak — fe'ldan anglashilgan harakat-holatning ijro etilishi tobe bo'lak ko'makchili birikmadan anglashilgan holat yoki predmet evaziga, ya'ni unga tenglashtirish asosida ekani ifodalanadi: *uony asrag'anym uchyn* ne berəsəñ maña (qipch.),

Uchun ko'makchisi XI asrdagi yozma yodgorliklarda ham **evaz** ma'nosini ifodalash uchun qo'llangan: Qamug' bir todū yem ashichg u u ch u n // Ədzuñni ujuz qylmaryl sen kuchun (K, B, 4483). Bular ahly bayt-ul habibqa qadash // Habib savchy haqqy uchun sev adash (KB, 4235).

3. **Uchun** ko'makchisi atalganlik ma'nosini anglatganda ko'makchili birikmani tashkil qilib kelayotgan ot yoki ot ma'nosidagi so'zdan anglashilgan predmet yoki holatga boshqa predmet yoki holat taalluqli ekanini anglatadi: *vətən uchyn, yel uchyn* xizmət yetəmən birdəyinə (qipch.); *menim uchyn* uy sap berdi atam; men bul mal-dunyany balamnyñ *toyy uchyn* uyg'namdy (bern.). Bunda ko'makchili birikmani boshqarib kelayotgan hokim bo'lak — fe'l inkor formada

bo'lsa, bir predmet boshqa predmetga taalluqli emasligi, atalmaganlik ma'nosi ifodalanadi: *Xalqlar uchun* bar mında tıncılıq (xo'j.).

XI asr yozma yodgorligida ham **uchun** ko'makchisi atalganlik ma'nosini ifodalagan: *kəñul til* tərutti *kəñul* söz uchun//səzi egri bolsa kuyer ul kuchun (KB, 1010). neche boldı *yarmak uchun*//qanı ish qılıg'ly kəni haq uchun (KB, 6236).

4. **Uchun** sabab ma'nosini anglatganda hokim bo'lak — fe'ldan anglashilgan harakatning bajarilishiga sabab ko'makchili birikmadagi otdan anglashilgan predmet yoki holat ekanini ifodalaydi: *yəlgən uchın* uyilash ыslamda yaxshıməs (biyb.); *nəchun* arz yettiң sotqa me:ң үstimnən? Dushmanıñnıñ satqanı uchın shulay debatsaң meni (nazx). **Uchun** ko'makchisi hozirgi o'zbek tilida ham sabab ma'nosini anglatadi: SHu *fazilatlari uchun* hurmat qilardi. Dushmanıñnıñ *jalası uchun* shunday diyishga qanday tiliң bardı, maңa (qipch.).?

5. **Uchun** ko'makchisi taalluqli — ob'ekt ma'nosini bildirganda hokim bo'lak fe'ldan anglashilgan harakat ko'makchili birikmani tashkil qilib kelayotgan otdan anglashilgan predmetga taalluqligi, unga qaratilganligi, o'sha predmet muhokama ob'ekti ekanini ifodalaydi: hər nərsəniң *aqıybəti uchın* qayg'ırmtıysıllar (naym.); *uolar uchın* uoylamaңlar, үziңniң bашыңды uoyla (qanj.).

6. **Uchun** ko'makchisi otlarga birikib maqsad va sabab ma'nosini bir vaqtda ifodalayotgandek bo'ladi. Lekin uslub (stil) talabiga ko'ra, hokim bo'lak-fe'ldan anglashilgan harakatning ijro etilishida e'tiborga olingan holat e'tirof qilinsa, sabab ma'nosi kuchliroq ekani seziladi. Shuning uchun bunday holatlarda sabab ma'nosi ustun deb tushunamiz: yeki *ishichun* bunday ataq berdi (qilchb.).

Uchun ko'makchili birikma quyidagicha gap bo'laklari bo'lgan:

1. **To'ldiruvchi:** uопы saqlap *berganim uchın* maңa ne berəsəң (qipch.). *Navruz uchın* ne g'amladıң (xo'j.). *Yəz xalqi uchın* maңlay ter tögip ishləv kərək (biyb.).

2. **Maqsad holi:** q ы у а m а t sifəti uchın aytar. Yoldashın malы uchın yəltirgən. Uvгының izin tabu uchın men bərdə yүgіppən qыдыгыр (bern.).

3. Sabab holi: tili *uonyň uchyn* kyydi. Əkəsinin yüzliğı uchyn uyğ'ladı (qang'1.). Semizliğı uchyn gəmmə dep laqap qoyırtı (biyb.).

Uchun ko'makchisining ayrim turkiy tillarda qo'llanishi, anglatadigan ma'nolari, grammatik xususiyatlari ancha chegaralangandir. Jumladan, hozirgi qumiq tilida bosh kelishikdagi otni, qaratqich kelishigidagi kishilik, ko'rsatish olmoshlarini boshqarib, sabab, maqsad⁷, hozirgi gagauz tilida esa *ichin* shaklida qo'llanib, atalganlik maqsad⁸, hozirgi turkman va tatar tillarida maqsad, sabab, atalganlik kabi ma'nolarini ifodalaydi⁹.

Uchun ko'makchisi XIV asrdan keyingi davrlarda ham o'zbek tili tarixiy yozma yodgorliklarida asosiy grammatik vositalardan biri bo'lgan. Shuning uchun ham bu ko'makchining grammatik, leksik-semantik xususiyati hozirgi o'zbek adabiy tiliga nisbatan o'zbek shevalarida keng ifodalanadi.

Uchun. Bu ko'makchi, asosan, quyidagi ma'nolarni ifodalaydi:

1. **Maqsad** ma'nosini ifodalaydi. Bunday chog'da *uchun* ko'makchisi ot, olmosh, shuningdek, xarakat nomi va *-sin*, *-lik* affikslari bilan tugagan so'zlardan keyin keladi: Əbrəyli adamlar birdəy *kishilər uchyn* qayg'ıradı (mang'.). Тоухананың чыраулы бир ханасы қудалag'a ajratyр qoyıldı (bern.). *Kyn isip ketkən vaqlarda dam alish uchyn say boynachyğ'atavun yedi*(qilchb.).
2. **Sabab** ma'nosini ifodalaydi. Bunday chog'da *uchun* ko'makchisi ko'pincha, *-gani (-gan + i)*, *-ligi (-lik+i)*, *-ganligi (—gan+lik + i)* affikslari bilan tugagan so'zlardan so'ng keladi: *Taza tynylg'an ay yauylyр ketkən uoraqtay kichkənə bog'anı uchyn yoldı yaqtylamas yedi* (biyb.).

⁷ Проф. Н. К. Дмитриев. Грамматика кумыкского языка, М.—Л., 1940, стр. 88.

⁸ Л. А. Покровская. Грамматика гагаузского языка, М., 1964, стр. 266.

⁹ Грамматика туркменского языка, часть I, Фонетика и морфология, Ашхабад, 1970, стр. 407; Современный татарский литературный язык, М., 1969, стр. 315.

Bunday birikuvlarda *uchun* ko‘makchisi *sababli* so‘zi vazifasini -li bajaradi va unga sinonim bo‘ladi. Qiyos qiling: *a’lo o‘qigani uchun bayraqlandi*(xo‘j.). Atash (belgilash, mo‘ljallash) ma’nosini ifodalaydi. Bunday chog‘da *uchun* ko‘makchisi ot va olmoshlardan so‘ng keladi: Bu kitoblarni sen uchun oldim, qalamlardi Səlimə uchun. *Adam uchyn yaxshy yoldash kərək yolg’a chыqsang* (biyb.).

Uchun ko‘makchisi qaratqich kelishigidagi olmoshdan so‘ng kelsa, atash ma’nosini yana kuchaytirib, ajratib ko‘rsatadi: Bu kitaptı *seniñ uchun aldyt.*

3.Evaz ma’nosini ifodalaydi: *Raxmat, Sonaxon, yoqlap, tavup kegəniñ uchun. Palvallar chempion boluvlary uchyn көр shug’ылынышы kərək*(bern.).

Uchun ko‘makchisi badiiy adabiyotda **-chun** shaklida ham uchraydi: tinchkənə yashav uchyn tuvylmadym (bern.).

Uchun ko‘makchisi *-gina, -dir* affikslarini olishi mumkin: *Уоның бул гəvi me: ң uchungənə butin dəsxati minən yaңalyqidi* (qilchb.).

Sayin. Bu ko‘makchi quyidagi ma’nolarni anglatadi:

Sayyn ko‘makchisi fe’l shakllari bilan birga kelganda ikki ish-harakatning bir yo‘la sodir bo‘lishi va bu harakatdagi **davom, izchillik** ma’nosini ifodalaydi: *kyn yətkən sayyn meniñ hət kəvnimdə g’aybana pikir əvj aldy* (xo‘j.).Sapar Kərim babag’a qarag’an sayyn, *uonyñ hazыр ne uoylap uotqanyn sezə bashladы* (biyb.).

Bu ma’noda **sayin** ko‘makchisi adabiy tildagi **sari** ko‘makchisiga sinonim bo‘lib kelgan. qiyos qiling: *borgan sari — barg’an sayyn*.

1. Vaqt bildiruvchi so‘zlar bilan birga kelib, ish-harakat yoki hodisaning muayyan vaqt ichida takrorlanishi yoki muntazam bo‘lib turishi ma’nosini ifodalaydi: terim *kyn sayyn* qyzybatyr, murnыңды shyngiryvge qaratmay vəkil bolo-bol dep turady təbəңdə(biyb.). Avulda *kynara* (kun ora), gəydə həptə sayyn toy bolady (xo‘j.). Paxta hasылы *uyıl*

sayyn ashyp baratyr (xo'j).

2. Sifatdosh bilan birga kelganda ikki ish-harakatning bir yo'la sodir bo'lishi va bu harakatdagi davom, izchillik ma'nosini ifodalaydi: tog'ayda adashyp qasañ, tyn *qarag'ylashqan sayyn* qorquv basyp uxlyalmyysañ adam (qipch.). *Indəməgən sayyn* dym təbətə chyg'yp baratsañ, yəziñdi kim dep yəliysañ (biyb.). Kəsəli qysh *yaqyllashqan sayyn* g'jiiydi Naıytbaydyñ (bern.). *Yash yətkən sayyn* g'arılıq minip barabirədi (mang').

3. Ish-qarakatning ma'lum vaqt orasida sodir bo'lishi ma'nosini ifodalaydi: bul jag'day *həptə sayyn* qaytalanyip turady (nazx.).

4. O'rganilayotgan shevalarda **sari** ko'makchisi qo'llanmaydi. Uning vazifasini ham **sayin** ko'makchisi bajaradi: yumysh barg'an sayyn chiyəliship baratyr, bul jag'dayda bug'altyrdyñ halı qıuyyn (qipch.).

O'zbek adabiy tildagi **sari** ko'makchisining shevalarda bu ma'noda **qaray**, **yaq** ko'makchilari sinonimi bo'lib keladi. qiyos qiling, ad. orf. *ko'cha sari—kəchə yaq*; ad. orf. *Yorug'lik sari— yaqtyg'a qaray:bet:yaq* va b. Bu ko'makchining o'rganilayotgan shevalarda doimo **qaray**, **qarag'anda**, **siñəri** yoki **səyin** yaq: **bet**(tomon), ko'makchilari qo'llanadi: *Arslan uortada besh-altı adım qag'anda topa-torstan kegən dushman siñəri birdən tashlandı*(nazx.). *Tıryshtım tavdan ashtım, yaqtyg'a qaray yol ahtım*(maqol). *Uol to'y yaqqa qaray ketti*(biyb.).

Ish-harakatning ob'ektga qarab yo'nalishi ma'nosini ifodalaydi (Bunday ko'makchili birikuvda ob'ektni ko'makchidan oldingi so'z ko'rsatib turadi).

Sari ko'makchisi va uning fonetik variantlari o'zbek tilining Qoraqalpog'iston, Xorazm viloyatining qipchoq tip shevalari, Qashqadaryo viloyatining qipchoq tip shevalarida dialektlarida **bet** shaklida qo'llanib, **tomon**, **taraf** ma'nolarida bo'ladi (O'zbek xalq shev. morfologiyasi 1984: 50).

Sari ko'makchisi hozirgi o'zbek tili shevalarida uchraydi. U Toshkent,

Farg‘ona shevalarida **sar'** shaklida ishlatiladi va harakatning takrorlanishi yoki muntazam bo‘lib turishini bildiradi. U **-dan** chiqish kelishigi o‘rnida **-ning** affiksli qaratqich kelishigidagi otni boshqaradi. Sari ko‘makchisi o‘zbek tilining ayrim shevalarida ma‘no anglatilishiga ko‘ra say’//say’n ko‘makchilariga teng keladi (O‘zbek xalq shev. morfologiyasi 1984:227,228).

Qozok tilida **sari** ko‘makchisi ish-harakatni ma‘lum nuqtaga yo‘nalishini bildirish uchun *taman, qarom, juik* ko‘makchilari ishlatiladi. Hozirgi ozarbayjon tilida *manim sarudin. Bu sarudan* shakllarida bo‘lib, uning dialektida izofani yaratadi (Shukurov 1985:49,50). Shundan ma‘lumki, o‘zbek tili tarixida qo‘llangan *sarudan* shakli hozirgi ozarbayjon tilida saqlanib qolgan.

A. J. Shukurov bu ko‘makchining etimologiyasiga taalluqli ikki xil fikrini olg‘a suradi: 1. *Sor//sar* yordamchi oti (*sarundan*) bilan *saru//sari* ko‘makchisining etimologiyasiga ko‘ra hech qanday aloqasi yo‘q. Ular alohida-alohida so‘zlar, — deydi.

Sari va sayin ko‘makchilarning ishlatilishi jihatidan quyidagi misol juda xarakterlidir. Ko‘makchilarning o‘rnini almashtirish yoki faqat bittasini ishlatish, ma‘noga xalal bermaydi: *shulay yetip, yumyish barg‘an sayyn ulqan bolar, ulqayg‘an sayyn* Атаханның башы чыргыбөлөк айланды (mang‘.). Faqat sari va sayin ko‘makchisining parallel ishlatilishi stilistik rang-baranglik uchungina ahamiyatlidir (O‘zbek tili tarixi masalalari 1977:548).

Kabi ko‘makchisi. Bu ko‘makchi o‘zbek tili tarixida *kabi, kibi kibin, kibik, bikin* (Rustamov 1977) shakllarida qo‘llangan. Hozirgi o‘zbek tilida *kabi* shaklida qo‘llangan. O‘zbek tili shevalarida **kabi** ko‘makchisi ishlatilmaydi. Balki u **basturi, snge:r, sne:rn, qatar, teng, qushash, -døy\ -day; -dek suffikslari** shakllarida, shuningdek, o‘zbek adabiy tilidagi *kabi* ko‘makchisi o‘rnida Toshkent, Namangan, Farg‘ona shevalarida **-< dey// dek, -day-tag, glay, -lay//-tay** affikslari ishlatiladi. Xorazm tip shevalarda **d‘yi//d‘yn, day‘p** affikslari qo‘llanadi.

O‘zbek tili shevalarida solishtirish, o‘xshatish va to‘dadan bo‘lakni ajratish

uchun<dek affiksiga **-chikin** formasi birikib *dekchikin dechikin* murakkab affikslari yaratiladi (O‘zbek xalq shevalari morfologiyasi 1984:225, 226).

Kabi ko‘makchisi etimologiyasiga ko‘ra otlarga mansub bo‘lib, (Sherbak 1962; G‘ulomov 1940) morfologik tarkibiga ko‘ra: *kab, keb, kib* forma, model ma‘nosida: *i* uchinchi shaxs egalik qo‘shimchasidan (Kononov 1951; Kondratev 1954) iboratdir.

Kabi tarixan mustaqil so‘z sifatida ikki xil ma‘no anglatgan:

1) forma, shakl; 2) o‘xshash. Uning *forma, shakl* ma‘nosi XI-XIV asrlardagi yozma manbalarda uchraydi: *Kerpich kebi* (asbob). (M. Qoshg‘ariy). *Ko‘ngulsiz kishilar qurug‘ kep bo‘lur* (Qutadg‘u bilig) (DTS.299).

Kabi tarixan mustaqil so‘z sifatida o‘xshash degan ma‘noni ifodalaganini olimlarimiz e‘tirof etishgan. Masalan, M. Qoshg‘ariy **kebi** o‘g‘uzcha bo‘lib, o‘xshash degan ma‘noni anglatganini aytgan: *Bu er aning kibi* (87. 111-131). Shuningdek, A.Q. Borovkov ham **kebi** tarixan *qanday, o‘xshash* degan ma‘nolarda qo‘llanganini ta‘kidlaydi (Borovkov 1963). Hozirgi o‘zbek tilida esa u faqat sof ko‘makchi sifatidagina qo‘llanadi. Bu ko‘makchi o‘rnida hozirgi turkman tilida **yali** ko‘makchisi qo‘llanadi.

Turkman tilida qo‘llangan *kimin//kibi, dek//dey/tek, deyinlar* qiyoslash, chog‘ishtirish ma‘nolarini anglatganlar (Gramm. turkm. yazyka. 1970:405).

Yaňly: QUSHAP (YANGLIG‘). Bu ko‘makchi **kabi, singari** ko‘makchilarining sinonimi bo‘lib, asosan, ular anglatgan ma‘nolarni anglatadi. **Yaňly** ko‘makchisi arxaiklashgan bo‘lishiga qaramay, shevaning kekxa vakillari, xotin-qizlar nutqida faol ishlatiladi: *gyl yaňly kelini bar, əji:pala shug‘ada gəp tavup uoňyshtyrmıydy, uotyrsa uopaq, tursa sopaq(naym.).* Mazkur ko‘makchi adabiy tilda poetik asarlarda, shuningdek, prozaik asarlarda ham uslub talabi bilan qo‘llanadi va o‘xshatish, chog‘ishtirish, qiyos ma‘nosini bildiradi: *Yarashmas senga bu yanglig‘ yurish, kayfu safokorlik (Ubaydullaeva)* sochlari erkaklarniki *yanglig‘* kalta o‘rilgan.

Boshqa turkiy tillarda va shuningdek, o'zbek tilida ham ko'makchilar semantik jihatdan biror (bosh, jo'nalish va chiqish) kelishikdagi so'z bilan aloqador bo'lgani va bu ko'makchili birikmaning ma'nosi turli sintaktik munosabatlarni ifodalash bo'lgani uchun ko'makchilarning qaysi kelishikni boshqarib kelishi, ya'ni sintaktik tomoni hisobga olinishi kerak.

O'rganilayotgan shevalarda sof ko'makchilar sintaktik tomondan quyidagi guruhlariga bo'linadi:

1) bosh kelishikdagi ot va qaratqich kelishigidagi so'zlarni boshqaradigan ko'makchilar; 2) jo'nalish kelishigidagi so'zlarni boshqaradigan ko'makchilar; 3) chiqish kelishigidagi so'zlarni boshqaradigan ko'makchilar.

Vosita, sabab, maqsad, qiyos-o'xshatish munosabatlarini ifodalash uchun qo'llaniladigan *bilan*, *uchun*, *siqari*, *sayin*, *boyi*, *boyicha*, *arqali*, *tuvrali*, *sabapli* ko'makchilari bosh kelishikdagi so'zni yoki qaratqich kelishigidagi olmoshlarni talab qiladi.

Birinchi bob bo'yicha xulosalar:

1. Har qaysi so'zning leksik ma'nosi bo'lib, u leksik ma'no bitta so'z turkumiga taalluqli bo'lgan so'zlarning bir-biridan farqini ta'minlaydi. Masalan, *ot.qalam*, *daftar*; sifat: *oq*, *qora*; son: *uch*, *besht*, *yigirma*; *fe'l*: , *kel*, *yoz*, *ayt*; *ravish*: *erta*, *kech*, *tez* va b.

2. Ko'makchilarda ham kategorial ma'no va o'ziga xos xususiyatga ega bo'lgan leksik ma'no mavjuddir. Ko'makchilarning kategorial ma'nosi ularning boshqa bir mustaqil so'zga birikib kelishidir. *Ko'makchilar* ikki tomonlama sintaktik munosabatni yaratadilar, ya'ni tobe bo'lakka birikib, o'sha tobe bo'lakning hokim bo'lakka tobelanish munosabatini ta'minlaydi. Ko'makchilar shu xususiyati bilan mustaqil ma'noli so'zlardan farqlanadi.

3.O'zbek tili tarixida qo'llangan ko'makchilarning davrlar bo'yicha miqdorini aniq belgilash qiyin. Chunki mustaqil ma'noli so'z ko'makchi funksiyasida ishlatilib, yana mustaqil ma'noda qo'llangan bo'lishi

mumkin. Hatto nihoyatda ko‘p va qayta-qayta ishlanishiga qaramasdan, hozirgi o‘zbek tilida qo‘llanayotgan ko‘makchilar birorta asarda to‘lig‘icha yoritib berilmagan.

4. Ko‘makchilar tarixan mustaqil so‘zlar bo‘lgan bo‘lsa ham, ular hozirgi zamon o‘zbek tili va uning shevalarida ham o‘zining leksik (material) ma’nolarini yo‘qotgan, grammatik ma’nosigina saqlanib qolgan so‘zlardir. Shuning uchun ular hozirgi zamon o‘zbek tili hamda dialektlarida faqat boshqa so‘zlar bilan birga ishlatiladi.

IKKINCHI BOB

DIALEKTAL OT VA SIFAT KO‘MAKCHILARNING LEKSIK-

SEMANTIK HAMDA GRAMMATIK XUSUSIYATLARI

2.1. O‘zbek tilida dialektal ot ko‘makchilarning leksik-semantik va grammatik o‘zgachaligi

Ko‘makchilar, umuman, turkiy tillarda, shuningdek, o‘zbek tilida shakllangan leksik-grammatik kategoriyadir. Qadimgi yozma yodgorliklarda ham “ko‘makchi” vazifasidagi so‘zlar uchraydi.

Turkiy tillarni o‘rganishga bag‘ishlangan ishlarda, xususan, turkiy tillar yuzasidan yozilgan grammatikalarda “ko‘makchilar” va “ko‘makchi otlar” haqida ozmi-ko‘pmi fikrlar yuritiladi. Biroq bu terminlar bilan atalgan yordamchi so‘zlarni izohlashda, “ko‘makchi” va “ko‘makchi otlar”ga ajratish tamoyillarida xilma-xil fikrlar mavjud. Sho‘ralar davriga qadar tuzilgan darslik va qo‘llanmalarda “ko‘makchi” va “ko‘makchi otlar” qatoriga boshqa yordamchi so‘zlarni yuklama, bog‘lovchi va ayrim affikslarni (-mi, -cha, -чы); (-ды / -ты) kiritish hollari uchraydi.

Davr o‘tishi bilan ko‘makchilar yuzasidan qarashlar ham o‘zgara bordi. N. K. Dmitriev, A.N. Kononov, N. A. Baskakovlar tomonidan turkiy tillar yuzasidan olib borilgan fundamental ilmiy ishlar shu tillarning grammatik tuzilishini – tabiatini juda to‘g‘ri anglab olishga imkoniyat yaratdi. Boshqa grammatik kategoriyalar qatori yordamchi so‘z turkumlari xususida ham aniq, ravshan fikrlar bayon etildi.

Turli davrlarda “ko‘makchi”ni so‘z turkumi sifatida belgilashda yetakchi tilshunos olimlar-turkologlar bir xil fikrga ega bo‘lmaganlar. N. K. Dmitriev va N.P. Direnkovalarning ilmiy ishlarida “ko‘makchi otlar” yordamchi so‘z turkumi qatoriga kiritilmaydi. A.N. Kononov bilan N. A. Baskakovlar esa “ko‘makchi otlar”ga ko‘makchi so‘z turkumining bir turi sifatida qarab, uning tarkibiga kiritadilar.

Turkiy tillarning grammatik tuzilishini o‘rganishga bag‘ishlangan asarlarning aksariyatida “ko‘makchi” va “ko‘makchi otlar” alohida-alohida bo‘limlarga ajratiladi va ularga yordamchi so‘z turkumi nuqtai nazardan yondashiladi. Xuddi

shunday qarash o'zbek tilida yaratilgan ilmiy grammatikalarda ham, shu mavzuga bag'ishlangan ayrim monografik ishlarda ham aynan saqlanib qolgan.

Keyingi paytlarda "ko'makchi" va "ko'makchi otlar"ning xususiyatlarini bir-biridan farqlangan holda tushuntirishga erishildi. Lekin ularning o'ziga xos tomonlari bayon qilishda aniq bir ilmiy asoslarni ko'rmaymiz. Ular gap qurilishida vazifadosh jihatdan bir-biriga yaqin tursa ham, leksik ma'nosiga ko'ra boshqa-boshqa semantik turkumga mansubligini aniqlash qiyin emas.

Ma'lumki, ko'makchilar mustaqil ma'nosini yo'qotgan yoki qisman yo'qotib yordamchiga aylangan so'zlar bo'lib, ular turli sintaktik vazifalarni ifodalash uchun xizmat qiladi. Ko'machilar ot bilan fe'lning yoki ot bilan otning sintaktik munosabatini ko'rsatib vosita, maqsad, sabab, makon, zamon, qiyos-o'xshatish kabi ma'nolarni ifodalab keladi: Uolar vatan uchyn jəŋ qyldylar.

Ko'makchi vazifasidagi so'zlar guruhiga kirgan yordamchi so'zlarning asl ko'makchilardan farqi shundaki, ular o'zni bilan mustaqil ma'noda – o'z semantik turkumi doirasida ham qo'llana oladi. **Masalan:** Shadlyq xabarymaŋ kiyin quvanyp qaldy. Əvəl uoyla, kiyin səylə (Maqol). Bularni mustaqil ma'noli so'zlarning funksional ma'no o'zgarishi bilan vujudga kelgan ko'makchilar deb atash lozim. Ayrim mustaqil ma'noli so'zlarning ko'makchi vazifasida qo'llanishi nutq ehtiyojini qondirish uchun zaruriy bir hodisadir. Shunga ko'ra ham, ko'makchi turkumi o'z guruhini kategorial ma'nosi o'zgargan so'zlar hisobiga to'ldira borishi tabiiydir. Bundan tashqari, tilda kategorial almashinib qo'llanish hodisasi qadimdan bor holatdir.

Shunisi ham borki, o'zbek xalq shevalarida ham vazifadosh (funksional) ma'no o'zgarishi tufayli vujudga kelgan ko'makchilarni kategorial ma'no o'zgarishi bilan vujudga kelganligi bilan hamma vaqt tenglashtirib bo'lmaydi, masalan, *jihatdan, yuzasidan, ravishda, haqida, bo'yicha, orqali* ko'makchilarini *tashqari, boshqa, tomon, avval, ko'ra, qaraganda, deganda* ko'makchilari bilan bir qatorga qo'yib bo'lmaydi. Birinchi turlariga "diaxron" aspektda yondashilib, uni "ko'chish" deb atalsa to'g'ri bo'ladi, chunki bu o'rinda kategorial ma'no o'zgarishi

bilan yordamchi soʻzga, turkumga aylanganlik yaqqol koʻrinib turadi. Ikkinchi turga “sinxron” aspektida yondashilib, uni turkumlararo “oʻtish” deb izohlash lozim, soʻzning leksik maʼnosida sintaktik pozitsiya tufayli relyativ maʼno paydo boʻlganligi shubhasizdir. Yaʼni, soʻzning maʼnosi bilan uning funksiyasi nutqda bir-biriga moslashgan.

Soʻzlarning vazifadosh maʼnolari tilda hamisha kategorial oʻzgarishlarga olib kelmaydi. Soʻzlarning koʻp funksionalligi barcha semantik turkumlarda uchraydigan hodisadir. *“Koʻmakchi otlar” aslida ot soʻz turkumiga oid soʻzlar, lekin maʼlum bir sintaktik pozitsiyada relyativ maʼno anglatib, yordamchi soʻz turkumi funksiyasini bajarib keladi.*

Koʻmakchilar, umuman, turkiy tillarda, shuningdek, oʻzbek tilida shakllangan leksik-grammatik kategoriyadir. Qadimgi yozma yodgorliklarda ham “koʻmakchi” vazifasidagi soʻzlar uchraydi.

Turkiy tillarni oʻrganishga bagʻishlangan ishlarda, xususan, turkiy tillar yuzasidan yozilgan grammatikalarda “koʻmakchilar” va “koʻmakchi otlar” haqida ozmi-koʻpmi fikrlar yuritiladi. Biroq bu terminlar bilan atalgan yordamchi soʻzlarni izohlashda, “koʻmakchi” va “koʻmakchi otlar”ga ajratish tamoyillarida xilma-xil fikrlar mavjud. Shoʻralar davriga qadar tuzilgan darslik va qoʻllanmalarda “koʻmakchi” va “koʻmakchi otlar” qatoriga boshqa yordamchi soʻzlarni yuklama, bogʻlovchi va ayrim affikslarni (-mi, -cha, -чы); (-ды / -ты) kiritish hollari uchraydi.

Turli davrlarda “koʻmakchi”ni soʻz turkumi sifatida belgilashda yetakchi tilshunos olimlar-turkologlar bir xil fikrga ega boʻlmaganlar. N. K. Dmitriev va N.P. Direnkovalarning ilmiy ishlarida “koʻmakchi otlar” yordamchi soʻz turkumi qatoriga kiritilmaydi. A.N. Kononov bilan N. A. Baskakovlar esa “koʻmakchi otlar”ga koʻmakchi soʻz turkumining bir turi sifatida qarab, uning tarkibiga kiritadilar.

Turkiy tillarning grammatik tuzilishini oʻrganishga bagʻishlangan asarlarning aksariyatida “koʻmakchi” va “koʻmakchi otlar” alohida-alohida boʻlimlarga

ajratiladi va ularga yordamchi soʻz turkumi nuqtai nazardan yondoshiladi. Xuddi shunday qarash oʻzbek tilida yaratilgan ilmiy grammatikalarda ham, shu mavzuga bagʻishlangan ayrim monografik ishlarda ham aynan saqlanib qolgan.

Keyingi paytlarda “koʻmakchi” va “koʻmakchi otlar”ning xususiyatlarini bir-biridan farqlangan holda tushuntirishga erishildi. Lekin ularning oʻziga xos tomonlari bayon qilishda aniq bir ilmiy asoslarni koʻrmaymiz. Ular gap qurilishida vazifadosh jihatdan bir-biriga yaqin tursa ham, leksik maʼnosiga koʻra boshqa-boshqa semantik turkumga mansubligini aniqlash qiyin emas.

Maʼlumki, koʻmakchilar mustaqil maʼnosini yoʻqotgan yoki qisman yoʻqotib yordamchiga aylangan soʻzlar boʻlib, ular turli sintaktik vazifalarni ifodalash uchun xizmat qiladi. Koʻmakchilar ot bilan feʼlning yoki ot bilan otning sintaktik munosabatini koʻrsatib vosita, maqsad, sabab, makon, zamon, qiyos-oʻxshatish kabi maʼnolarni ifodalab keladi.

Koʻpchilik tilshunoslarda koʻmakchilar guruhiga taalluqli soʻzlarni morfologik belgilari yoki qaysi soʻz turkumidan ajralib chiqishiga koʻra quyidagicha guruhlab koʻrsatadi:

1. Asl, tub koʻmakchilar – **sari, sayin, uchun, kabi, bilan;**
2. Ot, sifat, ravish koʻmakchilar – **ilgari, tashqari, orqali, qarshi, keyin;**
3. Feʼl koʻmakchilar – **koʻra, osha, qarab, deb, qaraganda, deganda.**

Keyingi paytlarda koʻmakchilarni morfologik-etimologik nuqtai nazardan ikki guruhga ajratish odat tusiga kirgan. Yaʼni ot, sifat, ravish koʻmakchilar bilan feʼl koʻmakchilarni birlashtirilib “funksional(vazafadosh) koʻmakchilar” nomi bilan atamoqda. (T. Rustamov) Bu ikki nom bilan berilayotgan koʻmakchilar aynan xususiyatga ega boʻlgan yordamchi soʻzlardir. Lekin “funksional koʻmakchilar” termini bu turdagi yordamchi soʻzlarning xususiyatini toʻliq ifodalab bera olmaydi.

Koʻmakchi vazifasidagi soʻzlar guruhiga kirgan yordamchi soʻzlarning asl koʻmakchilardan farqi shundaki, ular oʻrni bilan mustaqil maʼnoda – oʻz semantik turkumi doirasida ham qoʻllana oladi. Masalan: SHadlıyq xabarыnan kiyin

quvanyr qaldy. Əvəl uoyla, kiyin səylə (Maqol). Bularni mustaqil ma'noli so'zlarning funksional ma'no o'zgarishi bilan vujudga kelgan ko'makchilar deb atash lozim. Ayrim mustaqil ma'noli so'zlarning ko'makchi vazifasida qo'llanishi nutq ehtiyojini qondirish uchun zaruriy bir hodisadir. Shunga ko'ra ham, ko'makchi turkumi o'z guruhini kategorial ma'nosi o'zgargan so'zlar hisobiga to'ldira borishi tabiiydir. Bundan tashqari, tilda kategorial almashinib qo'llanish hodisasi qadimdan bor holatdir.

Shunisi ham borki, o'zbek xalq shevalarida ham vazifadosh (funksional) ma'no o'zgarishi tufayli vujudga kelgan ko'makchilarni kategorial ma'no o'zgarishi bilan vujudga kelganligi bilan hamma vaqt tenglashtirib bo'lmaydi, masalan, jihatdan, yuzasidan, ravishda, haqida, bo'yicha, orqali ko'makchilarini tashqari, boshqa, tomon, avval, ko'ra, qaraganda, deganda ko'makchilari bilan bir qatarga qo'yib bo'lmaydi. Birinchi turlariga "diaxron" aspektda yondashilib, uni "ko'chish" deb atalsa to'g'ri bo'ladi, chunki bu o'rinda kategorial ma'no o'zgarishi bilan yordamchi so'zga, turkumga aylanganlik yaqqol ko'rinib turadi. Ikkinchi turga "sinxron" aspektda yondashilib, uni turkumlararo "o'tish" deb izohlash lozim, so'zning leksik ma'nosida sintaktik pozitsiya tufayli relyativ ma'no paydo bo'lganligi shubhasizdir. Ya'ni, so'zning ma'nosi bilan uning funksiyasi nutqda bir-biriga moslashgan.

So'zlarning vazifadosh ma'nolari tilda hamisha kategorial o'zgarishlarga olib kelmaydi. So'zlarning ko'p funksionalligi barcha semantik turkumlarda uchraydigan hodisadir. "Ko'makchi otlar" aslida ot so'z turkumiga oid so'zlar, lekin ma'lum bir sintaktik pozitsiyada relyativ ma'no anglatib, yordamchi so'z turkumi funksiyasini bajarib keladi. Masala ravshanroq bo'lishi uchun fe'lning funksional formalarini olaylik. Ular turli vazifalarni bajarish uchun moslashadi, fe'lning leksik ma'nosida ham, sintaktik vazifasida ham ma'lum bir o'zgarishlar yuz beradi. Masalan, harakat nomi shakllari harakat g'oyasini saqlagan holda harakat holat nomini, atamasini anglatish uning asosiy leksik ma'nosi, vazifadoshlik jihatdan boshqa tipdagi semantik turkum-ot so'z turkumi bilan

yaqinlashib, aynan grammatik ma'noga ega bo'ladi. Shuning uchun ham harakat nomi otga xos grammatik shakllarni qabul qiladi va gapda otga xos sintaktik vazifalarni bajaradi:... soʻzlərim uolardıñ qulag'ıma kirıvinə vonchama ыnanmıyman (mang').

Biz ana shu nuqtai nazardan "ko'makchi otlar"ning yordamchi so'z turkumlari sistemasida tutgan o'rnini belgilash bilan bog'liq mulohazalarni aytmoqchi edik.

Ma'lumki, ko'makchi turkumi haqida gap borganda, uning bir turi sifatida "ko'makchi otlar" va ularning leksik-grammatik xususiyatlari yuzasidan darslik va qo'llanmalarda muayyan fikrlar aytib o'tiladi. O'zbek tilshunosligida ham, turkiy tilshunoslikda ham "ko'makchi otlar" haqida aytilgan fikrlar ko'p hollarda bir-biriga yaqin turadi. Xususan, o'zbek tili grammatikasiga oid asarlarda ularning "leksik ma'nolarini saqlagan so'zlar" bo'lib, "turli grammatik munosabatlar"ni bildirib kelishi haqida gapirilsa, T. Rustamov esa "otlardan ko'makchilarga o'tgan so'zlar" deb izohlaydi. Atoqli turkolog olimlar o'z asarlarida "ko'makchi otlar"ni "asli ot" yoki "mustaqil" va "yordamchi so'z" tarzida qo'llanib keluvchi otlar deb tushuntiradilar. Shuningdek "ko'makchi otlar" makon ma'nosini bildirishi haqida egalik shakllari bilan o'zgarishi va o'rin kelishiklarining birida kelishi haqida ham ma'lumot beradilar. "Ko'makchi otlar"ga berilgan ta'rif va tushuntirishlar ularning leksik va grammatik mohiyatini yoritishda to'g'ri yondashilganlikdan dalolat berib turadi, haqiqatdan ham, odatda imkon ma'nosini abstrakt holda ifodalagan bir guruh otlar, ya'ni: **"tag"**, **"ost"**, **"ust"**, **"bosh"**, **"tepa"**, **"yon"**, **"ich"**, **"o'rta"**, **"ora"**, **"orqa"**, **"ket"** so'zlari egalik va o'rin kelishiklari formasini oladilar (o'zidan oldingi so'z bilan izofa munosabatda bo'ladi) mustaqil ma'noli so'z otning grammatik ma'nosini o'zgartirish vazifasini o'z zimmasiga oladi, binobarin, o'zi to'liq yoki qisman leksik ma'nosini yo'qotib, yordamchi so'zga aylanadi.

Endi yordamchi so'z "ko'makchi ot" mustaqil so'zning grammatik formanti sifatida namoyon bo'ladi. Lekin yordamchi so'z tomon siljib, funksional o'zgarishga yuz tutgan otlar kategorial jihatdan boshqa semantik turkumni hosil

qilmay, balki o'z turkumi doirasidagi ma'no o'zgarishi bilan chegaralanib qoladi. Masalan: mashy:n aldyman kesip uetmæ. Quyash tamnyñ arqasya avdy (xo'j.). Kechkæ qaray qyshta kyn suvytady (biyb.). Yer bashyna ish tyshshæ, yetikmæn suv kechær (maqol). Bælæ bassañ ayaq astynda (maqol). Keltirilgan gaplardagi "ko'makchi otlar"ga, ular anglatgan leksik-grammatik ma'nolariga e'tibor beraylik. Avvalo, mashy:n aldyman, tamnyñ arqasya, yer bashyna, ayaq astynda birikmalari tarkibida ald, arqa, ich, bash, ara, uorta, ast so'zlari avvalgi leksik ma'nosidan deyarli uzoqlashgan emas, qisman ma'no o'zgarishi bor, albatta. So'zlarda abstrakt holdagi makon ma'nosi saqlangan, aks holda fikr anglanishi ta'minlanmagan bo'lar edi. Shuning bilan birga birikma tarkibidagi birinchi so'z-ot asosiy leksik ma'nosini ifodalovchi bo'lsa, ikkinchi so'z-ot ma'no jihatdan oldingi so'zga tobeligi uning mazmuni konkretlashtirish yo'li bilan sezilib turadi. Ma'no jihatdan mustaqillikni qisman yo'qotgan, shu tarzda yordamchiga aylangan. Tildagi bu hodisani sintaktik birikma tarkibidagi boshqa otlarning leksik ma'nosida ham kuzatish mumkin: *Yashlardyñ hazyrg'yi ævlaty mustaqyllyk dævrindæ yashydy, Bæ:ær ayynnda hæmmæyaq kækæ bælænædi. Urysh vag'ynnda hayallarymys dym qyynaldy avur miynættæn.* Bu gaplardagi davr, fasl, ay, vaqt tushunchasini biroz konkretlashtirish zaruriyati bilan qo'llanilganligi stilistik jihatdan o'zini oqlaydi.

Ko'makchi otlar ayrim birikma tarkibida avvalgi leksik ma'nosidan uzoqlashgan bo'lishi ham mumkin. Masalan: Shalyynyñ arqasyan chigin (kurmak) suv ichær (Maqol). Yaxshy qyzlardy kœziñnyñ astyna alyp yyr (bern.).

Makon-zamon ma'nosini bildirgan otlar ma'lum bir grammatik shaklda mustaqil so'z bo'lib gapda biror sintaktik vazifani bajarib keladi: Rahmim kelib, ichim achishdi (I. Rahim). Qoshingni qorasiga, xol bo'lay orasiga (qo'shiq). To'p-to'p etadi, tagidan karvon o'tadi (Topishmoq). Bu otlar kelishik va egalik bilan to'liq turlanib kela oladi.

Ayrim tilshunoslar "ko'makchi otlar"ning aniq ko'makchi ekanligiga iqror bo'la olmay o'z asarlarida ularni alohida bir kategoriyadagi so'z hisoblab

“ko‘makchi” mavzusidan tashqarida o‘rganishni lozim ko‘rganlar. N. K Dmitriev “slujebnye slova” nomi bilan “Grammatika bashkirskogo yazyka” asarida sintaktik konstruksiyalarni yuzaga keltiruvchi bir vosita sifatida qarab, “ko‘makchi otlar”ni “sintaksis” bo‘limiga kiritadi va turkumdagi so‘zlarning xususiyatini tahlil qiladi. V. A. Isengalieva ham “ko‘makchi otlar”ga “ko‘makchi”ning alohida bir turi sifatida qaraydi. Ana shu muammoga bag‘ishlangan asarida har ikkisinin farq qiluvchi tomonlarini ishonarli qilib yoritadi. N. A. Baskakov bilan A.N.Kononov ko‘makchi turkumiga oid so‘zlarga boshqacha yondashadilar. N. A. Baskakov qoraqalpoq tili materialini asosida “ko‘makchi” bilan “ko‘makchi otlar”ni alohida-alohida ikki turga bo‘linib qaralishiga e‘tiroz bildiradi, chunki har ikkisi ham ma’no va funksiya jihatidan bir xil deb hisoblanadi.

A. N. Kononov esa o‘zbek tilidagi ko‘makchilarga sintaktik munosabatlarni ko‘rsatuvchi so‘z sifatida qarab, ikki guruhga bo‘ladi: *poslelogi* - *chastitsy*, *poslelogi* – *imena*.

Umuman, N. A. Baskakov bilan A. N. Kononovlar turkiy tillardagi ko‘makchi turkumining leksik-grammatik xususiyatini belgilashda boshqacha yo‘l tutganlar. Ya’ni “ko‘makchi” va “ko‘makchi otlar” deb ikki guruhga ajratib o‘tirmay, bu kategoriyaga oid so‘zlarni “ko‘makchi” hisoblab, birmuncha to‘g‘ri yo‘l tutganlar.

Endi yordamchi so‘z **“ko‘makchi ot”** mustaqil so‘zning grammatik formanti sifatida namoyon bo‘ladi. Lekin yordamchi so‘z tomon siljib, funksional o‘zgarishga yuz tutgan otlar kategorial jihatdan boshqa semantik turkumni hosil qilmay, balki o‘z turkumi doirasidagi ma’no o‘zgarishi bilan chegaralanib qoladi. Masalan: *Mashy:n aldyman kesip uetmә. Quyash tamnyñ arqasyına avdy (xo‘j.)*. *Kechkә qaray qyshta kyn suvytady (biyb.)*. *Yer bashyna ish tyshshә, yetik mән suv kechәр(maqol)*. *Bәlә bassаң ayaq astыnda (maqol)*. Keltirilgan gaplardagi **“ko‘makchi otlar”**ga, ular anglatgan leksik-grammatik ma’nolariga e’tibor beraylik. Avvalo, *mashy:n aldyman*, *tamnyñ arqasyına*, *yer bashyna*, *ayaq astыnda* birikmalari tarkibida *ald*, *arqa*, *ich*, *bash*, *ara*, *uorta*, *ast* so‘zlari avvalgi leksik

ma'nosidan deyarli uzoqlashgan emas, qisman ma'no o'zgarishi bor, albatta. So'zlarda abstrakt holdagi makon ma'nosi saqlangan, aks holda fikr anglanishi ta'minlanmagan bo'lar edi. Shuning bilan birga birikma tarkibidagi birinchi so'z-ot asosiy leksik ma'nosini ifodalovchi bo'lsa, ikkinchi so'z-ot ma'no jihatdan oldingi so'zga tobeligi uning mazmuni konkretlashtirish yo'li bilan sezilib turadi. Ma'no jihatdan mustaqillikni qisman yo'qotgan, shu tarzda yordamchiga aylangan. Tildagi bu hodisani sintaktik birikma tarkibidagi boshqa otlarning leksik ma'nosida ham kuzatish mumkin: Yashlarning hozirgi davri mustaqillik davrida yashaydi. Barcha ayrim yig'indi. Uzun vaqt hayallarni dind qaynaldi avur miynatdan. Bu gaplardagi davr, fasl, ay, vaqt tushunchasini biroz konkretlashtirish zaruriyati bilan qo'llanilganligi stilistik jihatdan o'zini oqlaydi

Yuqorida aytilgan fikrlarga asoslangan holda hozirgi kunda "ko'makchi otlar" deb alohida guruhga ajratilib, yordamchi so'zlar qatoriga kiritilib kelinayotgan otlarni o'z turkumi doirasida qaralib, makon ma'nosini bildirgan otlarning funksional xususiyatlarining ayrim tomonlari sifatida izohlanishi mantiqan to'g'ri bo'lar edi. Bunga yetarli asoslar bor:

1. Makon-zamon tushunchasini bildirgan otlar abstrakt holda predmet tushunchasini bildiradi;
2. Sintaktik pozitsiya tufayli sodir bo'lgan leksik o'zgarish nisbiy bo'lib, mustaqil ma'noli so'zlarning grammatik formalarini hosil qilish uchun yordamchi so'zga aylangan;
3. Mustaqil ma'noda kelganda barcha kelishik formalarini ola biladi;
4. Ma'lum bir grammatik forma ko'makchi vazifasini bajruvchi otlar bilan "ko'makchi"ni aynan bir xil hodisa deb hisoblab bo'lmaydi.

Xullas, shevalardagi ko'makchi va ko'makchi otlarning stilistik qo'llanishi, anglatgan grammatik ma'nolari, ko'makchili konstruksiyalarning sintaksisida tutgan o'rni kabi masalalarni o'rganish navbatdagi qiziqarli kuzatishlar ob'ektidir.

Makon-zamon ma'nosini bildirgan otlar ma'lum bir grammatik shaklda mustaqil so'z bo'lib gapda biror sintaktik vazifani bajarib keladi: Rahmim kelib, ichim achishdi (I. Rahim). Qoshingni qorasiga, xol bo'lay orasiga (qo'shiq). To'p-to'p etadi, tagidan karvon o'tadi (Topishmoq). Bu otlar kelishik va egalik bilan to'liq turlanib kela oladi.

Ayrim tilshunoslar "ko'makchi otlar"ning aniq ko'makchi ekanligiga iqrar bo'la olmay, o'z asarlarida ularni alohida bir kategoriyadagi so'z hisoblab "ko'makchi" mavzusidan tashqarida o'rganishni lozim ko'rganlar. N. K Dmitriev "slujebnye slova" nomi bilan "Grammatika bashkirskogo yazyka" asarida sintaktik konstruksiyalarni yuzaga keltiruvchi bir vosita sifatida qarab, "ko'makchi otlar"ni "sintaksis" bo'limiga kiritadi va turkumdagi so'zlarning xususiyatini tahlil qiladi. V. A. Isengalieva ham "ko'makchi otlar"ga "ko'makchi"ning alohida bir turi sifatida qaraydi. Ana shu muammoga bag'ishlangan asarida har ikkisinin farq qiluvchi tomonlarini ishonarli qilib yoritadi. N. A. Baskakov bilan A.N.Kononov ko'makchi turkumiga oid so'zlarga boshqacha yondashadilar. N. A. Baskakov qoraqalpoq tili materialini asosida "ko'makchi" bilan "ko'makchi otlar"ni alohida-alohida ikki turga bo'linib qaralishiga e'tiroz bildiradi, chunki har ikkisi ham ma'no va funksiya jihatidan bir xil deb hisoblanadi.

A. N. Kononov esa o'zbek tilidagi ko'makchilarga sintaktik munosabatlarni ko'rsatuvchi so'z sifatida qarab, ikki guruhga bo'ladi: *poslelogi* - *chastitsy*, *poslelogi* – *imena*.

Umuman, N. A. Baskakov bilan A. N. Kononovlar turkiy tillardagi ko'makchi turkumining leksik-grammatik xususiyatini belgilashda boshqacha yo'l tutganlar. Ya'ni "ko'makchi" va "ko'makchi otlar" deb ikki guruhga ajratib o'tirmay, bu kategoriyaga oid so'zlarni "ko'makchi" hisoblab, birmuncha to'g'ri yo'l tutganlar.

Ko'makchi otlar o'zlarining material ma'nolarini saqlagan mustaqil so'zlar bo'lishiga qaramay, yordamchi so'zlar kabi gapda turli munosabatlarni bildiruvchi so'zlardir.

Qoraqalpog‘istondagi o‘zbek shevalarida ot ko‘makchilarni ham vertikal yo‘nalish bildiruvchi (*ost, ust*), gorizontal yo‘nalish bildiruvchi (*old, orqa, yon, ich*) va aralash (ham vertikal, ham gorizontal) yo‘nalish bildiruvchi (*ora, bosh, o‘rta*) ko‘makchi otlarga ajratish mumkin.

Aralash (ham vertikal, ham gorizontal) yo‘nalish bildiruvchi ko‘makchi otlar:

Uorta (o‘rta). Jo‘nalish kelishigidagi bu ko‘makchi ot (*uortasyny(o‘rtasiga)*) ish-harakatning biror predmetning o‘rtasiga, orasiga, markaziga yo‘nalganini ifodalaydi: *Həvliniñ uortasyna* ulkən ustollar qouylyp, ystəllər terildi (mang‘.). *Shirin xala dəvrə uortasyna* uotyryp, bir bashtan səyliy bashladı (biyb.).

O‘rin-payt kelishigidagi bu ko‘makchi ot (*uortasynda(o‘rtasida)*) quyidagi ma‘no munosabatlarini bildiradi:

1. Ish-xarakatni biror predmetning o‘rtasida yoki ikki predmet orasida sodir bo‘lganini ifodalaydi: *Uol kichkənəgənə gylzar uortasinda, yonylg‘an tav tash ystində uotyrypty (bern.). Kəchə uortasynda vəlsəpit mingən yigitkə həyran bop turg‘an Salı Əvəzopqa tigilip qaradı (qilchb.). Yy tərində yeki archa uortasynda G‘aryrdyñ sývrəti asuvly turypty (qipch.).*

2. Ish-xarakatning ma‘lum vaqt o‘rtasida, orasida sodir bo‘lganini ifodalaydi: Bul vaqyia *tyn uortasynda* rəy berdi (biyb.). *Byltyr kyz uortasynda Biysən ishləbatqan yumyshyn tashap qazaqqa ketip qaldy (nazx.).*

3. Ish-harakatning odamlar yoki biror muhit oralig‘ida sodir bo‘lganini bildiradi: Siraj yəz *teñatıkləri uortasynda* tezarada əbrəy tavup ketti (biyb.). *Qurbıyaz baba avuldag‘y qarğylardyñ uortasynda dym təndarğy (qipch.).*

4. Kishilar orasidagi turli munosabatlarni ifodalaydi: *Ana həm bala uortasynda bolıbatqan gəpti dərryv payqag‘an Sapar yorg‘alap kep qaldy*

(biyb.). Yigit mən qız uortasında bir kün sirli vaqiya bog‘anyına inandı (bern.).

Chiqish kelishigidagi bu ko‘makchi ot (*uortasynan (o‘rtasidan)*) ish-harakatning biror predmet o‘rtasidan yoki predmetlar orasidan yo‘nalganini, sodir bo‘lganini ifodalaydi: *Trambaylar kəchə uortasynan uoyaq-byuqqa g‘yr-g‘yr yetip turady (mang‘.). Janbauralar uortasynan* Sıvəlli kanalы ag‘yr yetədi (xo‘j.).

5. **Ara (ora)**. Jo‘nalish kelishigidagi bu ko‘makchi ot (arasyna(orasiga) ish-harakatning biror predmet yoki predmetlarning orasiga yo‘nalganini ifodalaydi: *Muzly və qarly tavlary arasyna* kirip kəzdən g‘ayır bolady(bern.). *Yılan kəvək arasyna* kirip ketti(mang‘.). Ənzır qalın byk *arasyna* yashyğındy (bern.).

O‘rin-payt kelishigidagi bu ko‘makchi ot (*arasında(orasida)*) quyidagi ma‘no munosabatlarni ifodalaydi:

1. Ish-xarakatning predmetlar, odamlar yoki qandaydir muhit oralig‘ida sodir bo‘lganini bildiradi: Yeñil chыq yeli yerdə, uot-chəp arasыnda yatady (biyb.). Tav-tash arasыnda kəm-kək uotlarg‘a kəmilip yatqan avul (nazx.).

Ikki o‘rtada (kishilar va jonivorlar o‘rtasida) bo‘ladigan turli munosabatlarni bildiradi: *Karim minən Oysənəm arasыnda yech qanday majara yoq (bern.).* Bul ishtə adam bilən at arasыnda farq yoq (qılchb.). Yaña zamanda kelin bilən kyyəv arasыnda muammalarəm yañacha bolыshы tiyishli(bern.).

2. Ish-xarakatning biror vaqt oralig‘ida sodir bo‘lganligini bildiradi: *Bul vakыya uol yumыsh vilən bənt bop turg‘an arada yyz berdi (qılchb.).* Islam bilən Oysənəm institutta uoqыр yыrgən arasыnda turmush qurg‘an (nazx.).

3. Chiqish kelishigidagi **ora** so‘zi (*oradan, orasidan*) ish-harakat ma‘lum bir muhit, predmet yoki predmetlar orasidan yo‘nalganini ifodalaydi:

Almaxan kəvək ar a s ы n a n chыg‘ыр shaxlarda səkrəp-səkrəp uoynady (qipch.). Yolbars qalыn dorang‘yollar arasыnan əstə-əstə үүrip qayтыp ketti (biyb.).

4. **Bash(bosh).** Jo‘nalish kelishigidagi bu ko‘makchi ot (*boshiga*) quyidagi ma‘nolarni ifodalaydi:

1) Ish-xarakatning biror predmetning boshi, boshlanishi, tepasi, chekkasiga yo‘nalganini ifodalaydi: Bizər tamang‘a kelatyg‘an suvdyң bашына ulqan tarnav qurылg‘an (biyb.). Samolyot tav bашына kətərildi (qipch.).

2) Ajratib ko‘rsatish kerak bo‘lgan ob‘ekt-shaxs, predmetni ifodalaydi: Zvena paxtasы быуыл гектар башына 35 sentnerdən алынды (qilchb.). Brigada ishchilərinin tabышы jan bашына уылдан-уылг‘a артыр барувда (biyb.).

3) *O‘rin-payt kelishigidagi bu ko‘makchi ot (boshida) predmetning o‘rnini yoki ish-harakatning biror predmet boshlanishida, boshida, tepasida sodir bo‘lganini ifodalaydi:* Kəpir bашында kəlləkiləngən tutlar (bern.). Тоуымыз б а ш ы н д а үөziңiz баш бop туғың (nazx.).

4) Chiqish kelishigidagi bu ko‘makchi ot (*boshidan*) ish-harakatning biror narsaning bosh qismidan, boshlanishidan yo‘nalganini ifodalaydi: Uolardың үyi көча б а ш ы н а n көrinip турardi.

5) Boshida va boshidan yordamchi so‘zlari payt bildiruvchi so‘zlar bilan birga kelganda vaqt munosabatini ifodalaydi: *Bu yoz* (qish) б а ш ы н д а bog‘andi.

Diyin, chəlli, qadar. Bu ko‘makchi quyidagi ma‘nolarni ifodalaydi:

1. Ish-harakatning vaqt jihatidan chegarasi ma‘nosini anglatadi: ifodalaydi: Azanda yaqqan qardan *peshingə q a d a r* көchədə iz qalмады (mang‘.). Tərəbay minə sho rejəsin əməlgə ашыгыш uchын kirishməkchi болып тург‘anda anасы үөlip, кyzgə qədər qaldырды (bern.). Sulag‘a qədər suv səbilgən (qilchb.). Parxat malaqayын qashына qədər bastыгыр аг‘an

suvyqtan (xo'j.).

2. Ish-harakatning makon (joy, o'rin) jihatdan chegarasi ma'nosini ifodalaydi: *Supag'a qədər saya tutash tyshədi (biyb.)*.

3. Ish-harakat yoki holatning sodir bo'lishida qatnashuvchilarni imkoni boricha qamrash ma'nosini ifodalaydi: *Kegən kami:siya bashlyqtan tartyp ovasavatkə qədər bərijinsotqa chaqyrdy (qilchb.)*. *Kəm-kək archalardan tartyp, ta bir qarыsh balakəy archalarga qədər bərijigi yag'ymly qar kiyimində turady (biyb.)*.

Diyin, chəlli, qadar ko'makchisi bosh kelishikdagi so'zlar bilan kelganda, ko'pincha, hajm, son, daraja, miqdor jihatidan qiyoslash, solishtirish, chamalash ma'nosini ifodalaydi: bir *sa:atqa qədər* yol yurgənnən soң birdən toxtady (bern.).

Bu ko'makchi modal so'zlar bilan birga kelganda imkoniyat chegarasini ifodalaydi: Permerlər moynыndag'ы vazi:palarыn *mumkin qədər* tezraq uorыnlavg'a sөz berip tarqashtы (xo'j.). Zəpər uonы *mүmkin qədər* vag'ыnda basuvг'a hərəкət yetti (qurb.). Hazыр uonы *mүmkin qadar* toxtatmaqчы yedi (nazx.).

Yaqqa, betkə, qaray, tomon. Bu ko'makchi makon va payt munosabatini ifodalaydi. Ma'nolari quyidagicha:

1. Yo'nalishni bildiradi: Qoңshыlar yolg'a taman qыyshayg'an jiydəlerdi qырқыp tashady (qipch.). Əvəz mama keңsəgə taman yүrip kelip, ichkəri kirməstən ketti (biyb.). Savur baba yөzigə taman kiyatqan bul dəhshətli hayaldы birinchi kərishi yedi (bern.). Kechəsi qarang'ыda uzaqtan yылылаp turg'an yaqtyg'a taman burылды (qilchb.).

2. Payt bildiruvchi so'zlar bilan birga kelib, shu so'zlar ifodalagan vaqti, yaqin taxminiy vaqtni bildiradi: Kechkə taman kəməkchilər yүyinə taman tarqashtы (nazx.).

Diyin, chəlli, qadar. Bu ko'makchi quyidagi ma'nolarni ifodalaydi:

1. Ish-harakatning vaqt jihatidan chegarasi ma'nosini apglatadi:

ifodalaydi: Azanda yaqqan qardan *peshingə q a d a r* kəchədə iz qalmadı (mang‘.). Tərəbay minə sho rejəsin əməlgə ashırış uchın kirishməkchi bolıp turg‘anda anası yəlip, kyzgə qədər qaldırđı (bern.). Sulag‘a qədər suv səbilgən (qilchb.). Parxat malaqayın qashına qədər bastırıp ag‘an suvıqtan(xo‘j.).

2. Ish-harakatning makon (joy, o‘rin) jihatdan chegarasi ma’nosini ifodalaydi: *Supag‘a qədər saya tutash tıshədi* (biyb.).

3. Ish-harakat yoki holatning sodir bo‘lishida qatnashuvchilarni imkoni boricha qamrash ma’nosini ifodalaydi: kegən kami:siya *bashlıqtan tartıp ovasavatkə qədər bərjiginsotqa chaqırđı* (qilchb.). *Kəm-kək archalardan tartıp, ta bir qarış balakəy archalarga qədər bərjigi yag‘ımlı qar kiyimində turadı* (biyb.).

Diyin, chəlli, qadar ko‘makchisi bosh kelishikdagi so‘zlar bilan kelganda, ko‘pincha, hajm, son, daraja, miqdor jihatidan qiyoslash, solishtirish, chamalash ma’nosini ifodalaydi: bir *sa:atqa qədər* yol yırgənnən soñ birdən toxtadı (bern.).

Bu ko‘makchi modal so‘zlar bilan birga kelganda imkoniyat chegarasini ifodalaydi: permerlər moynındag‘ı vazi:paların *mumkin qədər* tezraq uogınlavg‘a söz berip tarqashtı(xo‘j.). Zəpər uonı *mıymkin qədər* vag‘ında basuvg‘a basuvg‘a hərəkət yetti(qurb.). Hazır uonı *mıymkin qadar* toxtatmaqchi yedi(nazx.).

Ko‘makchi va ko‘makchi otlarning stilistik qo‘llanishi, anglatgan grammatik ma’nolar, ko‘makchili konstruksiyalarning sintaksisida tutgan o‘rni kabi masalalarni o‘rganish navbatdagi qiziqarli kuzatishlar ob’ektidir.

2.2. Dialektal sifat ko‘makchilarning leksik-semantik va grammatik o‘zgachalıkları

Ылауық, қарап ‘yarasha’. Bu ko‘makchi teng, mos, loyiq, monand ma’nolarini bildiradi: həmiyshə *miynətinə qarap* (nazx.).

Bu ko‘makchi asos, miqdor, o‘lchov ma‘nosi bildirishi ham mumkin: Sho‘ralar dāvridə hər kimniң *miynətinə yarasha*, hər kimniң *uqybyna yarasha* degən prinspkə əməl qylardy (mang‘.).

Bu ma‘noda u *qarab* ko‘makchisnga sinonim bo‘ladi: *miynətinə yarash a* — *miynətinə qarap va h..*

Kabi. O‘rganilayotgan shevalarda **kabi** ko‘makchisi ishlatilmaydi. Uning vazifasini *-dəy\ -day; -tay\ -təy* qo‘shimchasi, shuningdek, ***mysal(misol), mysaly(misoli) yaңly, shekilli syyaqlы, aynymag‘an, tap*** so‘zlari bajarib keladi va o‘xshatish, solishtirish, qiyoslash, taqqoslash ma‘nolarni ifodalaydi. *M a s a l a n:* yūzimniң balta tiygən yerinən *adamnyң көз yashыnday* shirəsi tamchыlap tamyр turady(bern.). Jiyda uotyны *jiydə yaңly* qyзыл tus berip, uochaqta charsыllap yanady(qilchb.). *Tyn mysal* qara көziң jəvdirəydi birəm(mang‘.). Urysh vaqiyasi *qorqynchly tysh syyaqlы* adamnyң көз uoңыnan uochmiydi sira(nazx.).

Bu ko‘makchi sifatdosh va modal so‘zlar bilan kelganda o‘xshatish, qiyoslash bilan birga ishonmaslik, gumon ma‘nolarini ham ifodalaydi: Qara Myrat ыnanmag‘anday aңrayyp biraz qarap qaldы(xo‘j.). Aysultan *ыyalg‘an shekilli* kylimsirəp bashын təmən salды(biyb.). *Yydə birəv barday көrindi maңa(qipch.).*

Sababli. Bu Ko‘makchi sodir bo‘layotgan ish-harakatning boshqa ish-harakatga aloqador ekani, sababini bildiradi:

Uol Tajibay Ataxannyң tənə-ropыsasyна juvaban soңgi vaqlarda yəz yag‘dayын sezdirgəni, sho səbəptən Arysannyң yuinən byratala chыg‘yp ketkənin aytmaqchy boldы (qurb.). Uol shonday ataqly qonaqtyң kelyvin əvvəlirək bilməgəni səbəbli tayyarlyq көralmag‘аныnan yəkinishli yekənin ayтыр ada yetalmas yedi (biyb.). Miyribanlyg‘ səbəbli көmpirlərgə qoshылып navqan qurt baқты (qipch.).

Bu ko‘makchi oldidan ko‘pincha fe‘l shakllaridan –gən (-kən\ -qan)

affiksli sifatdosh (*u o q ы g ' a n ы s ə b ə p l i*), **-(u)v**, **-(i)sh** affiksli harakat nomlari (*u o q u v ы s ə b ə p l i*, *kelishi s ə b ə p l i*) va belgi otlari (*ay t ы l g ' a n l ы g ' ы s ə b ə p l i*) keladi.

Orqali. Bu ko'makchi vosita ma'nosini ifodalaydi. Bu ikki xil:

1. Ish-harakat sodir bo'lishida vosita bo'lgan o'rin ma'nosini ifodalaydi: Qizlar uyina tutliq arqali *Salimjon uyiga* paxta zo'r arqali qaytdi. Koz yashy *yuzi arqali* yerga tamdy (qilchb.). Bu ma'noda *orqali* ko'makchisi *bilan* ko'makchisi va chiqish kelishigi affiksi (*-dan*)ga sinonim bo'ladi. qiyoslang: *qaytytyshda tutliq arqali* keldi — *qaytytyshda tutliq bilan keldi* — *qaytytyshda tutliqtan keldi va h.*

Tufayli. Bu ko'makchi ish-harakatning sodir bo'lishidagi sababni bildiradi: *hazyr bertib turg'an tamyrlary miynat tyrpayli qatqan* (bern.). *Selimə betkə* chavarlyg'ы tyrpayli həmməgə jek kərindi.

Chag'ly, chamasы. Bu ko'makchi son miqdor jihatidan chama ma'nosini ifodalaydi: Bizin avuldan *qyrq*; chag'ly yigit uryshqa ketti, shulardan uch tørtəvigənə tiri qaytty (qurb.). Buryn da ych-tört chag'ly atlyyavmut qural yarag'ymən avuldy talap ketərди (qipch.).

Tiyishli, doir. Bu ko'makchi aloqadorlik, bog'liqlik ma'nosini bildiradi: Myəllimnin tiymag'a tiyshli aytqallaryn qysqa yazyр aldyм (qilchb.). Bygyn paxta teriminə tiyshli kəp gəplər aytyldy uyг'nag'ta (bern.). Yyg'naqta ana tilinə tiyshli gəp boldy (bern.).

Tiykarynan, asosan. Bu ko'makchi biror ish-harakatning sodir bo'lishida *asos*, *tayanch*, *manba* bo'lgan ob'ekt ma'nosini anglatadi: Pakultet kabyл yetkən qararg'a asasan Xojayevti gruppag'a rəxbəryetip tayynlandy (xo'j.). Uol xalq soty əjrimigə əsasan gunasыз dep tabyldy (qipch.).

Tiyishli, baylanyshly, binoan. Bu ko'makchi ham ish-harakatning sodir bo'lishida *asos*, *tayanch*, *manba* bo'lgan ob'ekt ma'nosini bildiradi:

joqarıdan kegən xabarg'a binaan g'ozā tərbiyəsın kechiktirip bolmaslıg'ın həmməgə mə:lm yeti (xo'j.). Bu ma'noda binoan ko'makchisiga kəra ko'makchisi mos keladi. Shuningdek, bu ko'makchiga asosan ko'makchisi mos kelishi mumkin. qiyos qiling: tələplərinə binan — talablariga kərə - iltimasına binaan — iltimasına kə r ə. pərmanına binaan — fərmanına kə r ə; qararına binaan — qararına asasan.

Муварық, ылауық. Bu ko'makchi ham ish-harakatning sodir bo'lishida asos bo'lgan ob'ekt ma'nosini bildiradi: *Matam marasymına muvarıq dəbdəbə minən bashlıq keldi (biyb.). Uolardıñ yəzara kelishmanchılıqlarına muvarıq tazadan achqan yerlər, chıg'arılğ'an suvlar Mədrimgə yətti (qilchb).*

Сыяқлы:, shekilli, singari. Bu ko'makchi **kabi** ko'makchisining sinonimi bo'lib, u ham, asosan, *kabi* ko'makchisining o'xshatish, solishtirish, qiyoslash, taqqoslash kabi ma'nolarini anglatadi: uol həm əkəsi siñəri joraları minən gəvgımdə chıg'ıp ketkəninchə uyqı məlində qaytadəda toppa tashap yatadə qaladə (qilchb.). Tayırdıñ közlərində tap ballardiki siñəri quvanch uchqulları yandı (biyb.). Atası siñəri dım yəjər aytqanınan qaytmyıdı (qipch.). Ətrap sūt yolu siñəri cheksiz (Nazx.). *Kechkə jaqын əkəsi qaytqan soñ,hər kыngi misol qara shorva uchын uot yaqtı (bern.).*

Bu ko'makchi fe'l shakllari bilan birga kelganda harakat va holatda o'xshashlik ma'nosini ifodalaydi: *Yətəlgən shekilli davush yeshitildi (Shimom.).* Dilbər pul qarz a:p, berməy ketyv, qəlbəki lokument yasav siñəri haram ishlərdiñ piri yedi (naym.). Bul ishlər həmməsi *xatırdan qıl suvırg'an siñəri* aqsat pitmiydi (qipch.).

Bu ko'makchi ham vaqt bildiruvchi so'zlar bilan birga kelganda doimiy o'xshashlik, muntazamlilik ma'nosini ifodalaydi: Uol əvvəlgi *vaqlardag'ı siñəri* yatsıramas, duchlashqanda qoshılıp uoynap kylərđi

(mang‘.). Tursyn xala balalyq vag‘yndag‘yday ulyyny belinə nan tyyip berip yubarərđi (biyb.).

Ikkinchi bob bo‘yicha xulosalar:

1. Ko‘makchilar mustaqil ma‘nosini yo‘qotgan yoki qisman yo‘qotib yordamchiga aylangan so‘zlar bo‘lib, ular turli sintaktik vazifalarni ifodalash uchun xizmat qiladi. Ko‘makchilar ot bilan fe‘lning yoki ot bilan otning sintaktik munosabatini ko‘rsatib vosita, maqsad, sabab, makon, zamon, qiyos-o‘xshatish kabi ma‘nolarni ifodalab keladi.

2. Hozirgi kunda “ko‘makchi otlar” deb yordamchi so‘zlar qatoriga kiritilib kelinayotgan otlar o‘z turkumi doirasida qaralib, makon ma‘nosini bildirgan otlarning funksional xususiyatlarining ayrim tomonlari sifatida izohlanishi mantiqan to‘g‘ri.

3. Bunga yetarli asoslar bor:

1) makon-zamon tushunchasini bildirgan otlar abstrakt holda predmet tushunchasini bildiradi; 2) sintaktik pozitsiya tufayli sodir bo‘lgan leksik o‘zgarish nisbiy bo‘lib, mustaqil ma‘noli so‘zlarning grammatik formalarini hosil qilish uchun yordamchi so‘zga aylangan;

3) mustaqil ma‘noda kelganda barcha kelishik formalarini ola biladi;

4) ma‘lum bir grammatik forma ko‘makchi vazifasini bajaruvi otlar bilan “ko‘makchi”ni aynan bir xil hodisa deb hisoblab bo‘lmaydi.

4. Shevalardagi ko‘makchi va ko‘makchi otlarning stilistik qo‘llanishi, anglatgan grammatik ma‘nolari, ko‘makchili konstruksiyalarning sintaksisida tutgan o‘rni kabi masalalarni o‘rganish navbatdagi qiziqarli kuzatishlar ob‘ektidir.

UCHINCHI BOB

DIALEKTAL FE‘L VA RAVISH KO‘MAKCHILARNING LEKSIK-SEMANTIK HAMDA GRAMMATIK XUSUSIYATLARI

3.1. Dialektal fe'l ko'makchilarning leksik-semantik va grammatik o'zgaralilari.

Masala ravshanroq bo'lishi uchun fe'lning funksional formalarini olaylik. Ular turli vazifalarni bajarish uchun moslashadi, fe'lning leksik ma'nosida ham, sintaktik vazifasida ham ma'lum bir o'zgarishlar yuz beradi. Masalan, harakat nomi shakllari harakat g'oyasini saqlagan holda harakat holat nomini, atamasini anglatish uning asosiy leksik ma'nosi, vazifadoshlik jihatdan boshqa tipdagi semantik turkum-ot so'z turkumi bilan yaqinlashib, aynan grammatik ma'noga ega bo'ladi. Shuning uchun ham harakat nomi otga xos grammatik shakllarni qabul qiladi va gapda otga xos sintaktik vazifalarni bajaradi: *sözlerim uolardıñ qulag'ına kirývinə vonchama ынанмыyman* (mang'.)

Ko'p jihatdan ot so'z turkumiga yaqin harakat nomi grammatik ma'nosidan qat'iy nazar fe'l turkumiga oidligicha qolaveradi, chunki fe'l vazifadosh shakllarining lug'aviy ma'nosi birmuncha turg'un, kategorial jihat boshqa semantik turkumga o'tishga imkon bermaydi.

Fe'lning yana bir vazifadosh shakliga e'tibor beraylik. To'liq (mustaqil) ma'noli fe'l vazifadoshlik ma'nosini o'zgartirib, boshqa bir ma'no anglatish xususiyatiga ega bo'lib qoladi. Bular "ko'makchi fe'llar" bo'lib, semantik jihatdan "reduksiya"ga uchraydi, to'liq ma'nosini yo'qotib, harakatning turli xarakteristikasini bildiruvchi va modal ma'nolarni ifodalovchi shakliga aylanadi: *Atqa minalmas... !mætti umutyp qoyın devedi*. Gaplardagi "ol", "qo'y", "yoz" fe'llari ana shu analitik birikma tarkibida avvalgi leksik ma'nolarini qisman (ol, qo'y) yoki tamomila (yoz) yo'qotadi, endi ular mustaqil ma'noli fe'llarning mazmunini to'ldirish vazifasini o'taydi, uning grammatik formativiga aylanadi. O'z leksik ma'nosidan uzoqlashib, ko'makchiga aylangan fe'llar vazifadoshlik jihatdan boshqa so'z bo'lishiga qaramasdan, fe'lning semantik turkumi doirasidan tashqariga chiqmaydi.

Ko'p jihatdan ot so'z turkumiga yaqin harakat nomi grammatik ma'nosidan qat'iy nazar fe'l turkumiga oidligicha qolaveradi, chunki fe'l vazifadosh

shakllarining lug‘aviy ma‘nosi birmuncha turg‘un, kategorial jihat boshqa semantik turkumga o‘tishga imkon bermaydi.

Qarab. Bu ko‘makchi quyidagi ma‘nolarni anglatadi.

1. Harakat yo‘nalgan tomon ma‘nosini bildiradi. Bunday chog‘da harakat faqat predmetga tomon yo‘nalgan bo‘ladi: Mallardың padasy yüz yylarınə qarap tarqalyshly (nazx.). *Negə adamsyz chelgə qarap baratqany* yüzü ham bilmiydi (qipch). Juman azanda uyqysynan turyp, perməgə qarap ashlyqly (biyb.). Bu ma‘noda *qarab* ko‘makchisiga **tomon** sinonim bo‘lib kelishi mumkin: avulg‘a qarap - avulg‘a taman va b.

2. **Asos, miqdor, o‘lchov ma‘nosini bildiradi:** *miynətinə qarap* haq alady (xo‘j.). Alatahun alylyg‘y *ishləgəninə qarap* berilədi (mang‘.). Kychiñə qarap alysh, bomasa maygylp qalasan (biyb.). *Bu ma‘noda qarab ko‘makchisi o‘rnida yarasha ko‘makchisi sinonim bo‘lib keladi:* *miynətinə qarap* - *miynətinə yarasha*; *ishləgəninə qarap* - *ishləgəninə yarasha*; *kychiñə qarap* - *kychinə yarasha* va b. *Bu ko‘makchi kəziñə qarap (yyr), kəvninə qarap (indamadi) kabi frazeologik birliklar tarkibida ham qo‘llanadi.*

Qaraganda. Bu ko‘makchi ayirib ko‘rsatish, ta‘kidlash, shuningdek, qiyos, solishtirish ma‘nosini bildiradi: bul xat *əvəlgisinə qarag‘anda* yañalyqlarg‘a bay, mazmunly yazyllyply (qipch.). Adamlardың *aytuvyna qarag‘anda* aldyng‘y qatynynan soñg‘ysy yag‘ymtay əkən (mang‘.). Mysh-myshlaryg‘a qarag‘anda Sərsən qazaqqa kəchiyn dep yyrgən qushlydy (nazx.).

Qaramasdan//qaramay. Bu ko‘makchilar to‘siqsizlik ma‘nosini ifodalaydi (ish-harakatning sodir bo‘lishida avvalgisining bo‘lmasligini yoki ikkinchisining sodir bo‘laverishini bildiradi): kyyəvmən kelin qoshylg‘anyna kəp vaq yətməy ata-anasynың qarshylyg‘yna qaramay bələk chyqmaqchy (qipch.). Həmmə həm yumyshchylar sizñ uoylag‘anyңызday bolsa, qurlylysh myddəti uoyllammayyatqanyna

qaramay, normasyn yerl yalmayatqanyna qaramay davay-davay dom diydi (bern.). Yy ichini  taza yek lligi, k rp  yastyg ynyn  yeskiligin  qaramay yaxshy k rs t rdi (mang .).

Qarata. Bu ko makchi ish-harakat yo nalgan predmet, shaxs, joy, tomon ma nosini bildiradi: direktir *k pchilikka qarata* shunday dedi: bilim k r k - bilim uchyn ishl sh k r k (qipch.). Jinayatchilyqqa qarata atylg an iy sin tabady (biyb).

Bo ylab. Bu ko makchi ish-harakatning ko rsatilgan makonda voqe bo lgani yoki ma lum vaqt davomida sodir bo lgani ma nosini anglatadi: *Avul boylap* tarqaldy qyzyny  bayg a qachyp ketk ni (biyb.). Uolar Samanbayg a k ch l r boylap qoshyq aytyr, syr ay chertip baratyr (nazx.). Avuly myzda  chyqqan Shamyrat palvanny  da qy b t yn yel boylap jayyldy (mang .).

Bashlab (boshlab). Bu ko makchi ish-harakat yoki hodisaning sodir bo lishidagi boshlanish vaqtini ifodalaydi: *1-sentyabrdan boshlab uqshga boramiz. Shu kundan boshlab u ham raisning oldida tungillab gapiradigan bulib qoldi* («Mushtum»). *Shu kundan boshlab Umarov agronom bilan ham chap bo lib qoldi* («Mushtum»).

Tartyp(tortib). Bu ko makchi ish-harakat yoki voqeaning sodir bo lishilagi boshlangich o rin, manba ma nodarini anglatadi: *Qyzymny  yemg n sytin n tartyp, k z nurynachiy n y zimdiki* (mang .). Dym ully sh : rd n tartyp, ta kichi g mb zg diyin aynalyp chyqty (bern.). H mm  yumyshty yelktir b j r di, malxanany yartuvdan tartyp syuyirlardy savuvg achiyin (qilchb.). Uolar paxta ishi boyyicha ir ist n tartyp, kalxozchyg adiyin qamashty (bern.).

3.2. Dialektal ravish ko makchilarning leksik-semantik va grammatik o zgachaliklari.

Bu ko makchi **ko ra** ko makchisi bilan almashinishi mumkin. Bunday chog da **ko ra** ko makchisi boshqargan so z, ko pincha chiqish kelishigida

bo‘ladi. qiyos qiling: *almag‘a qara g a n d a almurt mazaly— almadan k o r ə almurt mazalyraq.*

Korə ko‘makchisi va u boshqargan so‘z orasida ham yuklamasi kelishi mumkin. Bunday chog‘da qiyoslashda ta‘kid ma‘nosi kuchayadi: *savalıñyz qyzyq, səbəbi bizərdən ham k o r ə yəziñə məlim bosa kərək (xo‘j.). Mennənəm kərə balañnyñ qylyg‘ym yəziñ yaxshy biləsəñ (naym.).* Həzır bashqarmag‘a bashlyq tabuvdan həm kərə sekratar tabuv qyuyın(biyb.).

Korə. Bu ko‘makchi quyidagi ma‘nolarni bildiradi:

1. Sababni bildiradi: *əyrim səbəplərgə kərə* bu yigitkə hech qanday doslyq sezimi uoyanmasty (Xitoy). *Axmətdjan Qarabay Sergəyniñ yətinichinə kərə «Katyusha» qoshyg‘yny aytyr berdi (mang‘.).* Bu ko‘makchi jo‘nalish kelishigidagi ko‘rsatish olmoshi bilan birga kelib, qatqan shakl hosil qilədi, forma hosil qiladi: *Biz Sultany kyyav qyluvdan yech məp kərmiymiz, shug‘an kərə Sultan bizni kechirsin (biyb.).*

2. Ayirib, ta‘kidlab ko‘rsatish ma‘nosini ifodalaydi: *Bazarkomnyñ mə‘lumatyna kərə birəm bosh uoryn yog‘əkən (xo‘j.). Uonyñ aytyvyna kərə Sapar yənə ant ichyvi, yyr dep qystavy kərəkəkən (biyb.).*

3. Qiyoslash, solishtirish ma‘nosini bildiradi: *Sənəm yendi uon lettini toldygyr uon səkkizgə ayaq basqanda boyu həm anasyna yetip qag‘an, byraq jysəsi anasyna kərə toly kərinərdi (qilchb.)* Bu ko‘makchi chiqish kelishigidagi so‘zlar bilan birga kelganda chiqish kelishigidagi so‘z ifodalagan predmet yoki holat boshqasiga qiyoslanadi, solishtiriladi: *Uortadan kərə təmənərək, təmənnən kərə yuqarraq xojalyqymyz bar (mang‘.).* Chyldyrma həm dəplər əvvəlgidən kərə əstənərək chalyndy (biyb.). *Altı-yetti yashar dombyqqana qyz yəzinən kərə kəprək quvyrchagga qushardy (qipch.).* Bul adamdy jora *degənnən kərə* ag‘a degən maqul (biyb.). Bul jerdə həyran bop *turg‘annan kərə*, bazarg‘a baryp minsək qalay bolady (qipch.).

4. Modal ma'no bildiradi: *Baxtqa qarshy hazyr ham bar*(biyb.).

Soң, sog'yn, soңында (so'ng). Bu ko'makchi ish-harakatning tugallanishi bilan bog'liq bo'lgan vaqt (payt) ma'nosini bildiradi: Padachy mallarын tarqatyp, *gəvgymnən soң* үyinə kirdi (qipch.). Kelini qaynatasының aytqанын bir nechə gүн үөtkən soң tüşindi (mang'). Bir ay үөtkənnən sog'yn məkкə yegish bashlandy (nazx.). Vrach avruvдың тамырын ushlap көргənnən soң bашын чайqady (mang').

Bu ko'makchi chiqish kelishigidagi, **u, bu, shu** olmoshlari bilan birga kelganda, biror ish-harakatdan keyin ikkinchisi sodir bo'lganini bildiradi: Munнан so'ng qurg'a sazchy chыqty (biyb.). Shunnan soң uortag'a masxarabaz chыqty (qipch.). *Uonnan soң qochqar, xoraz urыshtырыsh* bashlandy (mang').

Kiyin (keyin). Bu ko'makchi *soң* ko'makchisining sinonimi bo'lib, ish-harakatning tugallanishi bilan bog'liq bo'gan vaqt ma'nosini bildiradi: Bir *həptədən kiyin kanikul bashlanady* (biyb.). Bir *kynnən kiyin qызының* toyын berədi (nazx.). *Birazdan kiyin artistlar saxnag'a chыg'ыp kelədi* (xo'j.). Chiqish kelishigidagi *u, bu, shu* olmoshlari bilan birga kelganda ham *so'ng* ko'makchisi bildirgan ma'noni bildiradi. qiyos qiling: *onnan kiyin keldi* — *uonnan soң keldi*.

Bu ko'makchi *soң (so'ng)* ko'makchisidan farqli ravishda sabab bildirishi ham mumkin: yeldiң ullысы bolg'annan kiyin hər nərsə qылуына bolady (qilchb.). Mug'aylym bop bala-chag'a baqqannan kiyin ballardың shoxlyg'ыпəм көпəсəр (qipch).

Bөлək, bəтən (boshqa). Bu ko'makchi mustasnolik ma'nosini bildiradi. Masalan: Jumagyl mama havuzg'a tigilip qarasa *үөzinən bashqa* nərsə көrinmədi (mang'). Sənjərdiң uoqыg'an vəzi hazyr *tussыз avqattan bөлək* nərsəgə qushamady (biyb.). G'iybətchi adamlar tıppə-tyzyv yurgən hayallardy həм buzыqqa chыg'aryp qoyuvlary *jaladan bəтən* nərsəməs (biyb.). Jiydə həmmə gyllərdiң gyliniң *iysinən bөлək* sassыq is chыg'arady

(qipch.).

Тышқары, тыш, уырақ, жырақ (tashkari). Bu ko‘makchi *boshqa* ko‘makchisining sinonimi bo‘lib, u ko‘makchi kabi mustasnoqlik ma‘nosini bildiradi: Madrəsədə diniy kitaplardan tashqariy adəbiyat hām uoqytylatavun yedi (bern.), Həjrədə gazdyñ iysinən tashqariy ы:s sezilməsti (mang‘.). Сыуыр padadan ауғылып туvгы үуинə qachqанынан tashqariy hech nərsə bomady (qipch.).

Bөлək (bölək). Bu ko‘makchi ham *boshqa, tashqari* ko‘makchilarining sinonimi bo‘lib, ular kabi mustasnoqlik ma‘nosini anglatadi: bull *yydə muxayniktən bөлək kəmpirdiñ yəgəy ballasy hām turatog‘yn edi(biyb.)*.

Yəzgə (o‘zga). Bu ko‘makchi *boshqa* ko‘makchisining sinonimi bo‘lib, mustasnoqlik ma‘nosini bildiradi: *Sennən yəzgə yar kərinmiydi kəzimə ынансаң (qilchb.)*. Bul qumlyqta chopallardyñ tashap ketkən *gənə tamларынан yəzgə* jan kərimmiydi (qipch.).

Beri (beri). Bu ko‘makchi payt ma‘nosini bildiradi. Bunda u ko‘pincha harakatning boshlanish vaqti bilan bog‘liq bo‘lgan ma‘lum payt oralig‘i ma‘nosini ifodalaydi: Sərə pochtachy bog‘annan beri gəziytlərimisti vag‘ynda ap turmys (nazx.). Seniñmən tanıshqанымнан beri yолыңа kəz tigəməн (mang‘.). Saңa kəvin qoyg‘annan beri məjnyn bop qaldym (nazx.). Nyrimbət qaqañ yeki xatyn ag‘annan beri yyin1n chыqмыды (xo‘j.). Azally beri matasekildi chuqalyysaң (qipch.).

Bu ko‘makchi vaqt bildiruvchi so‘zlar bilan birga kelganda, payt oralig‘i konkretlashadi. Bu konkretlikni u so‘zlar oldidan kelgan sonlar ko‘rsatib turadi: Sattar *yeki yылдан beri* balasyның yолына qaryydy qachan kelədikən dep (biyb.). Milsiyalar bir həptədən beri avulda qachqyn yashyrynyр yyripti dep izliydi (nazx.). Lekin sonlar o‘rnida *necha, qancha* kabi olmoshlar yoki hafta, muddat so‘zlari kelsa, paytdagi bu konkretlik yuqoladi: Nechə kynnən beri dым qaraңdy kərsətmіysən, niyerə yoqaldың (qilchb.). Qancha vaqtan beri bir-birəvdi kərmədik boldy (nazx.).

Shuningdek, *beri* ko‘makchisi *ko‘p* so‘zi bilan birga kelganda ham payt ma‘nosini — aniqsizlikni bildiradi: Zəvrə minən көптөн *beri* turmysh qurg‘anmys, бырақ арамызда бала yoq (qilchb.).

Быуан (buyon). Bu ko‘makchi *beri* ko‘makchisining sinonimi bo‘lib, shu ko‘makchiga xos ma‘noni bildiradi: *Bir həptədən быуан* seni axtaraman (bern.). Уоның таза үйинə көчип *kirgəninən быуан* bash avrvg‘a tap boldы (qilchb.). Yesimdi *bilgənən быуан* sizi tanıyman (Xitoy).

Нары, һарыг‘а, һарбаг‘ан (nari, nariga). Ish-harakatning chegarasi yoki darajasini ifodalash uchun qo‘llanadi: Kelin *qaynenəsinən һары* uətmədi (qipch.). Hərvaq *yamannan һарбаг‘ан* жүргəнің jaqshы (nazx.).

Bu ko‘makchi, ko‘pincha, *beri* ko‘makchisi bilan almashinib qo‘llanadi: anchadan nəri - anchadan *beri*. Unday qo‘llash uslubiy jihatdan xatodir. Chunki bu ko‘makchilar masofa jihatidan uzoq va yaqinni ko‘rsatishlari bilan o‘zaro farqlanadilar.

Burun. Bu ko‘makchi ish va harakatni o‘zi birga kelgan so‘z anglatgan ish-harakatdan, voqea va bajaruvchi shaxslardan oldin sodir bo‘lgani ma‘nosini anglatadi: G‘ulayım həmmədən *burun* inşanı yazıp chыqты (biyb.). Meniң balam taң atmastan burын turadı uyqыdan (mang‘.). Adamlar ishkə kirishməstən burын dəvərək-tyshты Arтық aylanıp chыqты (bern.). Qарыны qaqmastan burын үydің iyəsi, uolardı kytip uotyrg‘anday dalag‘a chыqты (qipch.).

Ilgari. Bu ko‘makchi payt munosabatini bildirib, biror hodisa, ish-harakatning voqe bo‘lishida undan oldin sodir bo‘lgan hodisa yoki vaqt ma‘nosini bildirish uchun qo‘llanadi. Quyidagi so‘zlar bilan munosabatga kirishadi: Səlim minən *sennan ilgəri* talay uchrashqanmys (bern.). *Həmmədən ilgəri* sennən sorayman, saylavda kimgə davush berəsən (biyb.). *Toydan ilgəri* qudalardıң razыlyg‘ын aluvым kərək (qipch.).

Vaqt bildiruvchi so‘zlar bilan keladi: *munnan ych kun* ilgəri seni

tyshimda koribidim (biyb.). *Ych kyn ilgari* chavlyq kordim (qcholi.).

Fe'lining vazifadosh shakllari bilan birga keladi: Biravgə narazylıq *bildirishtən ilgari* yəziñdi jəlləv kərək (qipch.). Uol papirosyn *alyshtırmastan ilgari* menmən salamlashty (bern.). Kərishməstən *ilgari* Rozim uolardıñ *həmməsinə kichi stakanlarda məy quuyıp tutı* (bern.). Bul məsələgə *kirishishtən ilgari* anyqlıyq kiritip aluvğ'a tuvry kelədi (qipch.).

Aldin, əvəl (oldin, avval). Bu ko'makchilar *burun* va *ilgari* ko'makchilariga sinonim bo'lib, ular bildirgan ma'nolarni anglatadi: Bul imaratlar mustaqıllıyqtan alдын (buryn, ilgəri) savet dəvryndə qurylg'an (biyb.).

Ast (ost). Jo'nalish kelishigidagi bu ko'makchi ot (*astyına*) ish-harakatni biror predmetga yoki uning ostki qismiga, tomoniga yo'naltirilganini ko'rsatadi: Səlim kylimsirəp *yastyqtıñ astyna* qol, uzatyp, dəptərdıñ dym ystinən yeki qollar ushlap mə'əlimgə uzattı (biyb.). Jydə əstə yeshkək yeship kiyatqan soñ qayyq suvg'a təñkərilip *taldıñ astyna* chumdy (mang').

O'rin-payt kelishigida bu ko'makchi ot (*astynda*) quyidagi ma'no munosabatlarini ifodalaydi.

1. Ish-harakatni biror predmetning pastki qismida (*asyıda, tiyipdə*) yoki bevosita uning tagida sodir bo'lganini ifodalaydi: Səlim ulqan arba yoldan biraz chetta, ulqan bir *gyjimnyñ astynda* miltirəp yanyp turg'an chyrag'a qaray burylıdy (qipch.). Ballar suvg'a chomylyp, talдың astynda salqyn sayada jazylıp oynarly (qipch.). Chiqish kelishigidagi bu ko'makchi (*ostidan*) ish-harakatni biror predmetdan yoki uning ostki qismidan, tagidan yo'nalganini ko'rsatadi: Zəynəp kəziniñ astynan Zəpərgə kylimsirəp qarap qoydy (mang'). Bu ko'makchi o'rnida bilan ko'makchisini ham qo'llash mumkin: Zəynəp kəziniñ astynan Zəpərgə kylimsirəp qarap qoydy (mang'). Yigit-qiz bir-birimən kəziniñ astynan qarashyp alg'annan soñ kelin salamyıny bashladı (Shimom). Turg'anbay suvдың astynan yyzip

барып, қыздың алдынан шықты (biyb.).

Tiy (tag). Bu ko‘makchi ot ost ko‘makchisiga sinonimdir. Qiyos qiling: Zəynəp kыз tiyinən İraxımjandı kызətти (qipch.).

Yst (ust). Jo‘nalish kelishigidagi bu ko‘makchi ot (*ystinə*) quyidagi ma‘no munosabatlarini ifodalaydi.

1. Ish- harakatning biror predmet ustiga yo‘nalganini ifodalaydi. Quyash kыnbatarg‘a qarap avg‘an, gылdəstələr ystinə qondыrylg‘an altын quyash nurlары bilən kəzni qamashtыrar darajada yashnar yedi (biyb.). Gылbə:ər atasына kəz qыryn tashар qoyды-da, tag‘ы stol ystinə iyildi (qipch.).

2. Biror ish-harakatni to‘ldirish uchun unga qo‘shimcha ravishda va boshqa birining sodir sodir bo‘lishini ifodalaydi: Terimchilardiң hər biri normанны *bəjərgəni ystinə*, dəm alыsh uchun həm pursat tabadı (biyb.). Munың ystinə hasыл toумыз qызg‘ын (mang‘.) Быуыл kыз yertə keldi, uоның ystinə javun-chachым həm kəz achыrмыды (qipch.).

O‘rin-payt kelishigidagi bu ko‘makchi ot (*ustida*) quyidagi ma‘no munosabatlarini ifodalaydi.

1. Ish-harakatning biror predmet ustida sodir bo‘lganini ifodalaydi: Jaylav ystində chaqmaq chag‘ыp gылdirmama gылdirədi (nazx.). Kərim gruppамыs bayrag‘ын bashы ystinə kətərip stadionды aylanыp чарты (qipch.). Уоң qыrg‘aqta yashыл təbə ystində qoy-qozyлыр, yechkilər uotlap yуriptи (biyb.). Cheksiz kəldi yeslətuvчы таqыр ystində chopанның səsti yeshitildi (nazx.).

2. Ish-harakatning sodir bo‘lishidagi vaqt, davr, muddatni ifodalaydi: *Avqat ystində Qəтчə mama avulda болыр yətkən həmmə məydə-чyyдə vaqыya-hadыysalar tuvrалы ayтыр berdi* (xo‘j.).

3. So‘zlash, fikrlashga oid fe‘llar bilai birga kelib, shu protsessni qo‘zg‘atuvchi, sabab predmetni bildiradi va *to‘g‘risida* ko‘makchisiga

sinonim bo'lad: Qiyos qiling: *kiyin ballary u s t i n d a soylavgə yətti - kiyin bolları t u v r ы s ы n d a səyləvgə yətti va b.*

4. Ruhiy holat ifodalaydi. Bunda ko'pincha holat bildiruvchi so'zlar bilan birga keladi: *achuv ystində, jəhl ystində, yəpkə yətində aytyr yūbərđi; g'əzəp ystində va b. Chiqish kelishigida bu ko'makchi ot ystinən (ustidan) quyidagi ma'no munosabatlarini ifodlaydi:*

1. Ish-harakat biror predmetning ustidan yo'nalganini ifodalaydi: Qorang'ilyıqtan yeski kylrəñ paxtalı chapən ystinən belbav baylag'an bir uorta boylı pəjmürdəgənə qarı chyg'ır keldi (bern). Uol aq kamzor ystinən qat-qat oramal baylag'an (bern.).

2. Ish-harahat biror shaxsga qarshi qaratilganini, yo'naltirilganini ifodalaydi: *Uonyñ ystinən arız qyluv kərək-Oning ustida n arz qilshi.* Karima ystinən jazylg'an arzanıñ əvəlgi nusqası yedi (nazx.).

Old (old). Jo'nalish kelishigidagi bu ko'makchi ot (*aldına(oldiga)*) ish-harakatning biror predmetning oldingn qismiga yo'naltirilganini ifodalaydi: *Shovaq sinptashları Zi:banıñ aldına* kelip, uonyuorap aldylar (biyb.). Men *birigattıñ aldına* barıp arız qıldım (qırch.). *Ayar hayalınıñ aldına barıp tiz chəgip kechirim soradı (nazx.).* Uol chaynika chay dəmləp, Һонақтың алдына qoydy (qırch.).

O'rin-payt kelishigidagi bu ko'makchi ot (*aldında(oldda)*) quyidagi ma'no munosabatlarini ifodalaydi.

1. Ish-harakatning biror predmetning oldida sodir bo'lganini ifodalaydi: Səməndər Həliməniñ rəsmi aldynda tigilip qarap turdy (mang'). Sərxan kyyəvinıñ kegənin yeshik aldynda toxtag'an matasekildıñ davushynan bildi (biyb.).

2. Ish-harakatning biror shaxs oldida sodir bo'lganini ifodalaydi: QYZYL shəpkəli milisiya *kamandirdiñ aldında* turıp ches berdi (mang'). Əgər kəzin may basqan bosa, uony *xalq aldında* aytyr tuvrylap qoyuv

kərək (Xitoy).

3. Ish-harakatni majoziy ifodalaigan biror predmet oldida sodir bo'lganini ko'rsatadi: Uol biycharanı bytyn *yel aldynda* haqarat qylda, qulag'yna yzr aytyñ (mang'). Yəñgi dirəktir *məktəp jama:sy aldynda* turg'an bygyngi va keləjek vazyypalardy belgiləp berdi (bern.).

4. Chiqish kelishigidagi bu ko'makchi ot (*oldidan*) quyidagi ma'no munosabatlarini ifodalaydi:

Ish-harakatning biror predmetning oldidan yoki oldingi qismidan yo'nalganini ifodalaydi: Zərip Sabyrnyñ aldyнан qaytyp kiyatqanda Tolyg'a duchlashyp qarty (bern.). Alamin qudasynyñ aldyнан kəvni tolmag'anday bop qaytqannan beri keməy qoydy(qilchb.).

Ish-harakatning biri oldidan boshqasi sodir bo'lganini ifodalaydi: *Yyg'naq aldyнан* rais Nəsi:bə minən səyləship uonyn razylыg'yn ald (qilchb.). Uol *ketyvi aldyнан* alg'an zatlaryn tag'ы bir mərtə kərip chыqty (qipch.).

Arqa (orqa). Jo'nalish kelishigidagi bu ko'makchi ot (*orqasyna*) ish-harakatning biror predmetning orqasiga, qarama-qarshi tomoniga yo'nalganini ifodalaydi: Muxaynik stol arqasyna yazylg'an sxemany kəzdən yətirdi (qilchb.). Nəvchə urlabatqan bala diyvaldyñ arqasyny jashyryndy (qipch.).

O'rin-payt kelishigidagi bu ko'makchi ot (*arqasynda orqasida*) ish-harakatni biror predmetning orqasida sodir bo'lganini yoki predmetning boshqa predmetning orqasida ekanini ifodalaydi: Uon yaqtag'ы gydiləp qoyylg'an *sabannyñ arqasynda* shag'al ulydy (*biyb*). *Diyval arqasynda* yenəsin sag'ыng'an yəjek qatty-qatty baqyrdy (mang').

Chiqish kelishigidagi bu ko'makchi ot (*arqasynan (orqasidan)*) quyidagi ma'no munosabatlarini ifodalaydi:

1. Ish-harakatning biror predmetning orqasidan, orqa tomonidan

yoʻnalganini ifodalaydi: Qyrdyñ arqasyñan uoraqtay oy k   rildi (mangʻ.). Qoshyq yendi   vjig   chyyqqandy, *zaldyñ arqasyñan* hayal kishining achchy davushy yeshitildi (biyb.).

Ish-harakatni biror predmetning orqasidan, ketidan, davomidan sodir boʻlganini ifodalaydi: Toyda *palav arqasyñan* shorva tartylady (nazx.). S  m  t *atasy arqasyñan* toyxanagʻa kirdi (bern.).

Uanynda, yanyina, janynda, yanyina, qashynda, qashyna (yon). Joʻnalish kelishigidagi bu koʻmakchi ot (*uanyina (yoniga)*) ish-harakatning biror predmetning yon tomoniga yoʻnalganini ifodalaydi: R  ziy   k  sptashlary yanyina iyt qaragy  llygind   yetip keldi(biyb.). Gʻulam Abdiraman mollany h  vlyg  ch   chygʻaryp qoydy h  m qoshlashyp, Jumandy h  jrad   k  tip uotyrgʻallardyñ yanyina keldi (bern.). S  rbina kanvert yelimini l  bim  n h  ll  p yaryshtyrdy h  m qo  shyynyñ aynasy aldyina baryp uony chekti (mangʻ.).

Oʻrin-nayt kelishigidagi *yon(yan)* soʻzi (*yonida, yanynda*) ish-harakatning biror predmetning yonida (unga yaqin yerda, joyda), atrofida, qatorida sodir boʻlganini ifodalaydi: S  n  m G  yljamaldyñ janynda uotyryp, ma  layyndagʻy !m  tm  n Z  ripty k  zd  n kechir  rdi (qipch.). Sultan azanda uyqyсыnan turyp, ballary yanynda birg   chay ichm  y Abdiraman mollanikin   qarap ketti (nazx.). Chiqish kelishigidagi bu koʻmakchi ot (*yanyinan, yonidan*) *ish-harakatning* biror predmetning yonidan yoʻnalganini ifodalaydi: Uolar *Qo  rat yol yanyinan* burylyp, uzaqta saraptay k  ring  n yatyq qyrlar qaray ketti (biyb.). Sardar h  m miymallardy miyv  -chiyv   yeyishk   qystar, asasan, *S  n  mniñ yanyinan* ketm  s, uo  a h  r tyrly miyv  l  rd  n tutady (mangʻ.).

Ichind  , ichin  , ichk  risind  , ichk  risin  , ich. Joʻnalish kelishigidagi bu koʻmakchi ot (*ichin  , ichiga*) ish-harakatning biror predmetning ichiga yoʻnalganini ifodalaydi: k  m  kchil  r appaq achylyp turgʻan *paxtazar ichin  * kirip ketti (qipch.). Appaq qar p  rch  l  ri y  dyñ syynyq aynasyñan

yu ichinə burqyp kirədi (biyb.).

O‘rin-payt kelishigidagi bu ko‘makchi ot (*ichində, ichida*) quyidagi ma‘no munosabatlarini ifodalaydi:

1. Ish-harakatning biror predmet ichida, ichki tomonida, orasida sodir bo‘lishini ifodalaydi: *Talzarlar ichində tizilip turushady (mang‘.)*. Nizəmnining kolyndag‘y paryrostan burqyp chyg‘ybatqan tytin *yu ichində* pag‘a-rag‘a bolyp syzip yympti (mang‘.). *Yyg‘naqtan chyg‘yp kegən irəisni kytir uotyruvchylar ichinda Əbdiramān mollāny hām kyrip qaldy (qilchb.)*.

2. Ish-harakatni biror holat, vaziyat ichida sodir bo‘lganini ifodalaydi: *asmannyñ yer bilən tutashqan jayunda alavly bir həvyr ichində* quyash batyp barady (bern.). Qara duman *kuyyn ichində* chañ-tozan kərindi(biyb.). Ataxan Səliməniñ alachubar *kələnkə ichində* xyalchañ bolyp kəringən yuzinə qarady (mang‘.).

Shuningdek, ish-harakatning biror ruhiy xolatda sodir bo‘lganini ifodalaydi: *Hayajan ichində kelip, əvəl Səidəgə qol berdi (bern.)*. *Qatynyñ minə shunday xayajan ichində* birinchi mərtə kərip turuvy (mang‘.).

Ish-harakatning ma‘lum bir davr, vaqt ichida sodir bo‘lganini ifodalaydi: Zulxumar *uch-tərt ay ichində* adam tanymastay bop semirip ketti (biyb.). Bekpolat avulda *bir-yeki saat ichində* ballardan hayaddardan, qarğılardan bir-birinən qyzyq gəplərdi yeshitti (qipch.). *Bir aydyñ ichində* Səlimniñ miymanxanası ədətiy bir məkəməgə aylanyn dep qaldy (mang‘.).

Chiqish kelishigidagi **ich** so‘zi (*ichinən, ichidan*) ish-xarakatni biror predmet ichidan, orasidan yo‘nalganini ifodalaydi: Jəmiylə qaladan kəməkkə kegəllərdi yonırchqalyq ichinən paxta atyzg‘a ap chyqty (bern.). Səməndər təkchəgə syypər qoyg‘an bir uoram qag‘az ichinən bir taxtasyny Yerkəniñ aldyna jaydy (qilchb.). SHul mə:əldə *almalyqtyñ ichinən* chyqqan məktər uoquvchylary muəllimdi uorap aldylyar (mang‘.).

Yaq, qaray, taman (tomon). Bu ko'makchi ma'lum ko'makchili konstruksiyada sof ko'makchiga ham aylangan («jo'nalish kelishigidagi so'zlar bilan keladigan ko'makchilar» ga qarang).

Jo'nalish kelishigidagi bu ko'makchi ot (*tomonga, tomoniga*) ish-harakatning biror prsdmctga tomon yo'nalishini ifodalaydi: Usta Bəhrəm shashyp baryp, balasyның *bosh tamany* na uotyrdy (qipch.). Indinige apasy *quda tamang'a xavar yuvardi* (qilchb.). Qaladag'ylardyn həmməsi achyq turg'an dərvaza tamang'a taman ымтылады (bern.).

O'rin-payt kelishigidagi bu ko'makchi ot (*tomonda, tomonida*) ish-harakatning biror predmet, joy yaqinida sodir bo'lganini ifodalaydi: Bul vaqyia huv kərinip turg'an *tav tamanda bog'andy*(*Yumurtav*). Bilmədim, har halda uol *avul tamanda* turardy (qipch.).

Chiqish kelishigidagi bu ko'makchi ot (*tomondan, tomonidan*) quyidagi ma'no munosabatlarini ifodalaydi.

1. Ish-harakatning biror predmet tomonidan yo'nalganini ifodalaydi: *Uochaq tamannan* kələ-bash-ayaqtyң аңқыг'an iysi kerp, tag'ы kəvnini aynıtty (nazx.). *Eshik tamannan* Xalmyrat həm kərinip qaldy (biyb.).

2. Ish-harakatning sodir bo'lishidagi ob'ekt ma'nosini bildiradi: Kyyəv balany dayyсы həm dayyсының hayaly tamannan qyzg'yn kytir aldy (bern.). Səlimə *tashkəllik tamany*nan sehləngən ulyna qarshy qyzyshyp ketti (mang').

Kelib chiqish, avlodga mansublik bildiradi: Uol *ana tamany*nan qarыndash bossam, ata tamanynan uzaq (qipch.). Alisher - dostym, mуның үstinə mamam tamannan bizgə yaqyn, chatashyг'ы bar (biyb.).

3. Ish-harakat yoki holatga bo'lgan munosabat anglashiladi: Kamyljang'a *qoshyq aytuv tamannan* uoңa teң kelədigəni hazyrycha yoq (bern.). Nurjan dym g'ayrətli bala, menimchə, kərinishi tamannan həm

xushpichim, kəmsitədigən yeri yoq (mang‘.). Bu ko‘makchi otga yaq, yaqqa, yaqta, yaqtan (yok, yoqqa, yoqda, yoqdan); *tərap, tərapən, tərapkə, tərapta; bet, betkə, bettə, bettən* so‘zlari sinonim bo‘lib kela oladi. Qiyos qiling: *yy tamang‘a-yy yaqqa, yy tamanda -yy yaqta, yy tamannan -yy yaqtan* kabilar.

Qarshi. Bu ko‘makchi quyidagi ma‘nolarni bildiradi:

Zidlik ma‘nosini bildiradi: Ədətim karshy byğyn dym artqy partag‘a otyrdym (nazx.). U hozyr juvannyñ aldynda bolyp, uonyn istəginə qarshy hechtəmə dyyalmydy (bern.).

Asha (osha). Bu ko‘makchi: 1) ish-harakatning boshqarilgan so‘zdan anglashilgan vaqt davomida sodir bo‘lishi ma‘nosini ifodalaydi: Xalq baxshylary tərəpinən bul dastallar *əsirlərasha* yyrlynyr kegən (bern.).

2) ish-harakatning boshqarilgan so‘zdan anglashilgan makon bo‘ylab sodir bo‘lishini ifodalaydi: Men Zəynəpkə qarardym, ichimə syymay, yel bop uchqym, avullar asha yelip yygirim kelədi (mang‘.).

Bo‘yicha. Bu ko‘makchi 1) moslik, mutanosiblik ma‘nosini ifodalaydi: *Ədət boyyicha ych kynnən soñ* taza tyshkən kelingə ish berədi (bern.). *Paxta plan boyyicha* yegilədi (qipch.). 2) chegaralash ma‘nosini ifodalaydi: Səlimbay zavut direktorynyñ xojalyq yumyshlary boyyicha yardəmhisi (mang‘.).

Shevalarda *boyyincha* ko‘makchisi adabiy tilimizdagi uzra ko‘makchisining vazifasini bajarib kelib, ish-harakatning biror predmet sathi (sirti) bo‘ylab yo‘nalishi ma‘nosini ifodalaydi: qəni yendi *atyiz boyyincha* tekis nəl olsaq paxtadan (biyb.). *Bashym boyyincha* tylla təksəñəm qylg‘an qylyg‘yndy syra kechirmiymən (mang‘.). *Shomə:əl kyn batyp, qarang‘ylyq dəvərək boylap tyshti* (nazx.).

Uzra ko‘makchi hozirgi zamon o‘zbek tili uchun arxaik bo‘lib, faqat she‘riy asarlarda uchraydi.

O‘zbek adabiy tilidagi **ichrə** ko‘makchisi shevalarda ichində tarzida

ishlatilib, ish-harakatning biror predmetning ichida sodir bo'lishi ma'nosini bildiradi: *yuqirdi ыбырсытыр, чаң-tozan ichində bulg'ama (biyb.). Yavdy kərsəñ arıslan sıñarı tashan, mərtlik minən maydan ichində urısh qıl (bern.). Bag' ichində uəskən qızıyl alma shaqasında syrg'ылып pishipty, yergə top-top tıshipty (bern.).*

Bu ko'makchi mavhum otlar bilan birga kelganda *bilan* ko'makchisiga mos keladi: *Avur dərt ichində (avur dərt bilən)* alaqsyrap yatqan Jumyaz men satmadym dep yərtənədi, kyyinədi (mang').).

Bu ko'makchi hozirgi o'zbek adabiy tili uchun ichra ko'makchisi arxaik bo'lib, ba'zan badiiy asarlarda (ko'pincha, she'riy asarlarda) uchraydi.

Bo'yincha, bo'yicha. Bu ko'makchi biror ish-harakatning sodir bo'lishidagi asos yoki usul ma'nosini anglatadi: *shul vədəñ boıyncha qarızymdy sorap keldim (mang'). Yygə bergən tapshırma boıyncha insha yazuvdan bash tartty uoquvchylar (qipch.).*

Boıy bo'y. Bu ko'makchi vaqt bildiruvchi so'zlar bilan birga kelib, harakat-holatning shu so'zlar ifodalagan vaqt doirasida davomdaligi ma'nosini bildiradi: *Yarıshta qatnashysh uchyn Dosmat ıyl boıy tynmay mashq qıldı (biyb.). Sapar yaz boıy g'avachag'a suv achadı (naym.).* Bunday chokda davomlilik ma'nosi bilan birga vaqt, payt ma'nosi xam anglashilib turadi.

Chamasi. Bu ko'makchi taxminiy o'lchov ma'nosini anglatadi: *Uolar bir sa:at chaması buryn yoldan yətip ketti (qılchb.). Yyz ki:la chaması paxta terdi (mang').* Bu ko'makchi chama bildiruvchi **-cha** affiksiga sinonimdir. qiyoslang: *bir saat chaması — bir saatcha; besh gektar chaması — besh gektar ch a. yyz kilogramm chaması — yuz kilogrammcha.*

Haqında, tuvғысында, jönində. Bu ko'makchi fikr yoki nutqda asos bo'lgan predmet, fikr yoki nutq qaratilgan predmet ma'nosini bildiradi: *Bazarkom haqında duv-duv gəp taraldı. Seniñ tuvғында gəp kəp dım*

(nazx.). Ushbu soʻzlar oʻrnida tuvraly soʻzi sinonim boʻlib keladi: sening tuvrynda - sen tuvraly mysh-mysh k6p (qipch.).

Tuvrysynda, tuvraly, haqqynda, j6nind6 (toʻgʻrisida, haqda) koʻmakchilari oʻzaro sinonimi boʻlib, areal qoʻllanish kasb etadi. Hamda u bildirgan maʼnoni bildiradi. Qiyoslang: bul tuvrysynda, bull tuvraly, bul haqqynda, bull j6nind6 ayt.

Haqynda, tuvrysynda. Bu koʻmakchilar ham fikr yoki nutq qaratilgan predmetlar maʼnosini anglatadi. **Masalan:** Polat y6zi j6nind6 xatynda hecht6m6 yazmapty (Xitoy). Paxta terimin6 qachan tyshyv haqqynda h6kimm6n g6pl6ship aldyq (qilchb.). G6ziyt-jurnalgʻa jazylyuv tuvraly tapshirma berdi (biyb.).

Holda, yoʻsinda (j6nind6). Bu koʻmakchi sifatdosh bilan birga kelib, ish-harakatning sodir boʻlish vaqtidagi holat maʼnosini ifodalaydi: 6m6t baba hasasyn *toqqylyatqan halda* kirip keldi yyg6 (nazx.). Hojabay gʻargy yerg6 qolym6n *tir6ng6n halda* zorgʻa uornynan turdy (xoʻj.).

Jagʻdayda, yagʻdayda (holda, holatda) koʻmakchisi *holda* koʻmakchisining sinonimi boʻlib, u singari, holat maʼnosini ifodalaydi: Ma:mut *alb6raqlagʻan (davdiragan) jagʻdayda* Sabym6n h6jr6g6 kirip keldi (bern.).

Oʻrganilayotgan dialektlarida nari, beri *ravishlari*: nari tur, beri kel va nariga bor, beriga kel *shakllarida, hatto* nariroq tur, beriroq kel *kabi (Samarqand oblastining rayon shevalarida) uchraydi*

Ara koʻmakchisi va uning fonetik variantlari.

Bu koʻmakchilar etimologiyasiga koʻra *ara* soʻziga taalluqlidir. *Ara* ikkita leksik maʼno anglatadi: 1. *Ara* feʼl turkumiga mansub boʻlib, *ar* feʼlining ravishdosh formasidir (Kononov 1960). 2. *Ara* ot turkumiga xos boʻlib, qadimgi turkiy tillar yozma yodgorliklarida ravishga yaqinlashayotgan ot boʻlgan (Nasilov 1960:41,67).

Qadimgi turkiy tillar yozma yodgorliklarida *arala, arasi, arada* shakllarida

ko'makchilar bo'lgan.

Arasi ko'makchisi *ara* otiga III shaxs birlikni ifodalaydigan egalik qo'shimchasining birikishidan paydo bo'lgach.

Arada ko'makchisi esa *ara* otiga-<da o'rin-payt kelishigi qo'shimchasining birikishidan hosil bo'lgan.

Arala ko'makchisining yaratilishi haqida shuni aytish kerakki, u davrda -la affiksi har xil grammatik vazifani bajargan. Shuning uchun ham *ara* otiga -la qo'shib, *arala* fe'lini yasagan va qadimgi turkiy tillar yozma yodgorliklarida ***arala*** fe'li ishlatilgan. Shuningdek, o'sha davrda o'rin kelishikni ifodalaydigan qo'shimchalardan biri-***la*** bo'lgan. Shundan ham ma'lumki, *arala* ko'makchisi ot so'z turkumiga mansubdir.

Arasnda, *aralarında*, *arasına*, *arasınan* ot ko'makchilari ham etimologiyasiga ko'ra *ara* otiga taalluqlidir. *Arala* qadimgi turkiy tillar yozma yodgorliklarida har xil leksik ma'no ifodalagan: 1. *O'rinni bildiradigan ot bo'lgan.* 2. *Predmetlar orasidan o'tmoqni bildirib, fe'l bo'lgan.* 3. *Ikki kishi orasiga tushmoq, ularni kelishtirib, yarashtirib qo'ymoq kabi ma'nolarni ifodalagan (LTS. 502).*

Xuddi shu keyingi xususiyati o'rganilayotgan shevalarda, shuningdek, Urganch, Xiva, Hazorasp shevalarida *aralamoq-yarashtirmoq*, *oraga tushmoq*, *vosita bo'lmoq* ma'nosida hozir ham ishlatiladi (O'zbek xalq shev. morfologiyasi 1984:19).

Arada (yaqın arada) ko'makchisi o'zbek tili tarixida nihoyatda kam ishlatilgan. *Arada* ko'makchisi etimologiyasiga ko'ra takrorlanib keluvchi *arata-arata (ara-arasında)* mustaqil so'ziga taalluqlidir. *Arata-arata*esa vaqti-vaqti bilan degan ma'noda payt ifodalagan (DTS. 50).

Hozirgi o'zbek shevalarida *shu orada*, *tez orada*, *orada* shakllarida qo'llanib, ravish bo'ladi.

Arasi ko'makchisi bosh kelishikdagi otga birikib, o'rin anglatadi: *Ne bar yoqlıq bilən barlıq arası.*

Shevalarda *orasi* shakllarida qo'llanib, bosh kelishikdagi otga birikadi va o'rin, payt ma'nolarini ifodalaydi:

1. O'rin: **Bulutlar arasyman quyash jarqyrap chыqtы (biyb.). Keshtə Baday tog'aydyң arasyman yetyv dым qorqynchly (biyb.).**

2. Ko'makchili birikma predmetniig belgisini ifodalaydi. **Уоны көріп** qyzlar yigitlar arasyna taysaldы (xo'j.).

Aro ko'makchisi holat, payt, sabab, ob'ekt, vosita kabi qator ma'nolarni anglatadi: 1. Ish-harakatning ijro etilayotgai o'rnini bildiradi: Xaloyiq, arosynda Atajanyң atы məshhыр boldы (bern.). Etti yıl yumrtav arasyman qылды ata məkan Yoldash mərgən (Xitoy).

Seningləy avul arasynda miyriban tabылmas maңa(biyb.). 2. Ish-harakatning gorizontaլ yo'nalishiga ko'ra o'rnini bildiradi: Yeki dəyra arasy besh kылlyk yol (nazx.).

Holatni ifodalaydi: Tappay seni avul ara boldым sərsən-sərgirdan (qilchb.). G'am ara meni batырды (bern.).

Paytni bildiradi: Gyriң əra saңa ashыq bog'an(qilchb.). Munday gap əra əylədi hyrmətin(bern)

Sababni bildiradi: Ishq ə r a hech kim mendəy shəyda bomag'an (mang'). Uol mashaqat əra jonyman toyды (nazx.). Ob'ektni ifodalaydi: **Ishqyң a r o** dərt-bələdən bələk zylym yoq (biyb.).

Vosita: Qaysini *ishq a r o* Məjnyn yettiң (xo'j.).

Hozirgi o'zbek adabiy tilidagi *aro* ko'makchisi, asosan, poeziyada saqlanib qolgan. Prozada ko'pincha *o'zaro, xalqaro* kabi birikmali holatda uchraydi.

O'zbek shevalarida uning *orasiga, orqasida, orada, orasidan* shakllari ot ko'makchi sifatida ishlatiladi.

Orasida shakli taxminiy payt ifodalab, ko'makchi bo'lishi ba'zan ta'kidlanadi. *Uozaro, xalqaro* birikmalari esa predmetning belgisini bildiradi (Rustamov 1965:26). **Aro** o'zagidan yaratilgan ko'makchi o'zbek tili tarixida ikki xil yo'nalishda rivojlangan. Ba'zilari (*ara, arala, arassh, arada*) sof ko'makchi sifatida qo'llangan bo'lsa, ba'zilari (*orasinda, orasing'a, orasindin*) ot

ko'makchi bo'lgan.

Yo'nalish, sabab, maqsad munosabatlarini ifodalash uchun qo'llanadigan *kəɾə:gəɾə, qarshı, qarap, qaray, qaramastan, qaramay, qarag'anda, chəlli, chiyin, chəkəm qadar, diyin, dəlli, -gacha* ko'makchilari jo'nalish kelishigidagi so'zni talab qiladi.

Chog'ishtirish, qiyos, ajralish munosabatlarini ifodalash uchun qo'llanadigan *soh, boshqa, bələk, kiyin, ketin, tashqari, tıshqarı, beri, berbag'an, harı, harbag'an* kabi ko'makchilari chiqish kelishigidagi so'zni talab qiladi.

Sintaktik tomondan ko'makchilar quyidagi guruhlariga bo'linadi:

1) bosh kelishikdagi ot va qaratqich kelishigidagi so'zlarni boshqaradigan ko'makchilar; 2) jo'nalish kelishigidagi so'zlarni boshqaradigan ko'makchilar; 3) chiqish kelishigidagi so'zlarni boshqaradigan ko'makchilar.

Vosita, sabab, maqsad, qiyos-o'xshatish munosabatlarini ifodalash uchun qo'llaniladigan *bilan, uchun, kabi, chog'li, qadar, sayin, bo'yicha, orqali, sababli* ko'makchilari bosh kelishikdagi so'zni yoki qaratqich kelishigidagi olmoshlarni talab qiladi.

Yo'nalish, sabab, maqsad munosabatlarini ifodalash uchun qo'llanadigan *ko'ra, qarshi, qarab, qaramasdan, qaramay* ko'makchilari jo'nalish kelishigidagi so'zni talab qiladi.

Chog'ishtirish, qiyos, ajralish munosabatlarini ifodalash uchun qo'llanadigan *so'ng, boshqa, keyin, tashqari, beri, bo'lak* ko'makchilari chiqish kelishigidagi so'zni talab qiladi.

Umumiy xulosalar

Ma'lumki, tilning rivojlanishidagi birinchi va asosiy omil uning ichki qonuniyati bo'lsa, ikkinchi omil tashqi muhitning ta'siridir. Chindan ham, mustaqil so'zlarning ko'makchi so'zlar turkumiga o'tishi undagi leksik va grammatik

xususiyatlarning o'zgarishiga olib keladi. Ko'makchilar grammatik kategoriya bo'lgani uchun ham o'zbek tilida ko'makchilarning paydo bo'lishi o'zbek tili grammatikasining bir elementi hisoblanadi.

1. Umuman, ko'makchilar turkumiga taalluqli qator nazariy masalalar borki, ularni aniq tasavvur qilish uchun ko'makchilarning hozirgi nutqimizdagi xususiyatiga qarabgina emas, balki uning tarixiy taraqqiyoti va dialektal xususiyatiga ko'ra aniqlash lozim bo'ladi.

3. Ko'makchilarni tasnif qilganlarida ko'makchi yuklamalar, yordamchi otlar, sifat-ko'makchilar, ravish-ko'makchilar, fe'l-ko'makchilar deb ataydilar va ular qanday atalmasin, ko'makchilik xususiyati mavjud ekanini tan oladilar. Lekin ko'makchilarning so'z ekaniga shubha qiladilar. Vaholanki, ot-ko'makchilar, sifat-ko'makchilar, ravish-ko'makchilar, fe'l-ko'makchilar deyilgan termin har qanday ko'makchini qaysi so'z turkumlariga taalluqli ekanini qayd etishdir. Shuning uchun ham, ko'makchilar keyingi paytlarda, asosan, ikkita katta guruhga — sof ko'makchilar va funksional ko'makchilarga bo'linadi.

4. Sof ko'makchilar qanday so'z turkumidan o'tib kelishidan qat'i nazar, relyativ munosabatni hosil qilib, undagi leksik ma'no ham ma'lum darajada o'zgaradi. Ya'ni u ko'chma ma'no ifodalaydi yoki o'sha ko'makchi bajarayotgan relyativ munosabatning yaratilishida xizmat qiladi. Sof ko'makchilar tarkibidagi morfologik ko'shimchalar o'zlarining grammatik xususiyatini batamom yoki qisman yo'kotib, o'zi birikib kelgan so'zning ko'makchi funksiyasini bajarishi uchun xizmat qiladi.

5. Funksional ko'makchilar. Hozirgi nutqimizda ham ko'makchi, ham mustaqil so'z sifatida qo'llanayotgan ko'makchilar funksional ko'makchilar termini bilan ataladi. Funksional ko'makchilar ot-ko'makchilar, sifat-ko'makchilar, ravish-ko'makchilar va fe'l-ko'makchilarga bo'linadilar:

6. Ko'makchilarning leksik, grammatik ma'nolari masalasi nazariy masala bo'lib, ko'makchilarning mustakil ma'noli so'zlardan kelib chiqishini aniqlashda yordam beradi.

7. Har qaysi soʻzning leksik maʼnosi boʻlib, u leksik maʼno bitta soʻz turkumiga taalluqli boʻlgan soʻzlarning bir-biridan farqini taʼminlaydi. Masalan, *ot.qalam, daftar*; sifat: *oq, qora*; son: *uch, besh, yigirma*; *feʼl: , kel, yoz, ayt; ravish: erta, kech, tez* va b.

8. Koʻmakchilarda ham kategorial maʼno va oʻziga xos xususiyatga ega boʻlgan leksik maʼno mavjuddir. Koʻmakchilarning kategorial maʼnosi ularning boshqa bir mustaqil soʻzga birikib kelishidir. Koʻmakchilar ikki tomonlama sintaktik munosabatni yaratadilar, yaʼni tobe boʻlakka birikib, oʻsha tobe boʻlakning hokim boʻlakka tobelanish munosabatini taʼminlaydi. Koʻmakchilar shu xususiyati bilan mustaqil maʼnoli soʻzlardan farqlanadi.

9. Koʻmakchilarning mustaqil maʼnoli soʻzlardan farqi koʻmakchilarda mustaqil leksik maʼno yoʻq ekanligidagina emas, balki koʻmakchilardagi leksik maʼno qandaydir oʻziga xos xususiyatga ega boʻlib, ular mustaqil maʼnoli soʻzlarga birikkandagina paydo boʻlishidadir.

10. Koʻmakchilar tarixan mustaqil soʻzlar boʻlgan boʻlsa ham, ular hozirgi zamon oʻzbek tili va uning shevalarida ham oʻzining leksik (material) maʼnolarini yoʻqotgan, grammatik maʼnosigina saqlanib qolgan soʻzlardir. Shuning uchun ular hozirgi zamon oʻzbek tili hamda dialektlarida faqat boshqa soʻzlar bilan birga ishlatiladi.

11. Koʻmakchilar oʻzgarmaydi (turlanmaydi, tuslanmaydi va yasalmaydi), kelishiklarni boshqaradi. Masalan, *menchun:men uchyn*; *senchun:sen uchyn* (bosh kelishik); *senchun:seniñ uchyn* (qaratqich kelishik), *yygə tərəp* (joʻnalish kelishigi).

12. Sintaktik tomondan koʻmakchilar quyidagi guruhlariga boʻlinadi:

1) bosh kelishikdagi ot va qaratqich kelishigidagi soʻzlarni boshqaradigan koʻmakchilar; 2) joʻnalish kelishigidagi soʻzlarni boshqaradigan koʻmakchilar; 3) chiqish kelishigidagi soʻzlarni boshqaradigan koʻmakchilar; 4) vosita, sabab, maqsad, qiyos-oʻxshatish muosabatlarini ifodalash uchun qoʻllaniladigan bilan, uchun, kabi, chogʻli,

qadar, sayin, bo'yicha, orqali, sababli ko'makchilari bosh kelishikdagi so'zni yoki qaratqich kelishigidagi olmoshlarni talab qiladi; 5) yo'nalish, sabab, maqsad munosabatlarini ifodalash uchun qo'llanadigan ko'ra, qarshi, qarab, qaramasdan, qaramay ko'makchilari jo'nalish kelishigidagi so'zni talab qiladi; 6) chog'ishtirish, qiyos, ajralish munosabatlarini ifodalash uchun qo'llanadigan so'ng, boshqa, keyin, tashqari, beri, bo'lak ko'makchilari chiqish kelishigidagi so'zni talab qiladi.

O'z leksik ma'nosidan uzoqlashib, ko'makchiga aylangan fe'llar vazifadoshlik jihatdan boshqa so'z bo'lishiga qaramasdan, fe'lning semantik turkumi doirasidan tashqariga chiqmaydi.

Ko'p jihatdan ot so'z turkumiga yaqin harakat nomi grammatik ma'nosidan qat'iy nazar fe'l turkumiga oidligicha qolaveradi, chunki fe'l vazifadosh shakllarining lug'aviy ma'nosi birmuncha turg'un, kategorial jihat boshqa semantik turkumga o'tishga imkon bermaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch. –T.: Ma'naviyat, 2008.
2. Abdullaev F. Til qanday rivojlanadi. Toshkent, 1972.

3. Abdullaev A. Ko'makchilar yordami bilan tarkib topgan so'z birikmalarida ifodalangan sintaktik munosabatlar, UzDU asarlari, yangi seriya, 91, Samrkand. 1959.
4. Aydarov G. Slujebnshe chasti rechi v yazmke nadpisey orxonekix pamyatnikov //«Issledovaniya po tyurkologii. Alma-Ata, 1969, 6 b.
5. Aliev A.YU. Uychinskiy govor uzbekskogo yazyka. KD. -Tashkent. 1959.
6. Afzalov SH. O'zbek tilining Parkent shevasi, KD, Toshkent. 1952.
7. Axtamova X. T. Birgalik, vosita ma'nolarini bildiruvchi analitik formalar // Sovet maktabi, 1980, 4-son,
8. Ashurboev S. O'zbek tili grammatik qurilishining o'rganilish tarixidan.- Toshkent.1974.
9. Blagova G.F. XU-XU1 asrda eski o'zbek adabiy tilidagi ko'makchilar haqida\\ jurn. O'TA. 1963, 3-son.
10. Borovkov A. K. Rukopis i osobennosti yazshka sredneaziatskogo tefsira
11. XII—XIII vv. // Uchenshe zapiski instituta vostokovedeniya, T. XVI, M.—L., 1952.
12. Berdiyarov X. Poslelogi v sovremennom uzbekskom literaturnom yazshke. AQD. Samarqand, 1949.
13. Dmitriev N.K. Slujebnye imen v turetskom yazыke.\\Sovetskoe yazыkoznanie.T.3. L.: 1937.
14. Doniyarov X. Eski o'zbek adabiy tili va qipchoq dialektlari. Toshkent. 1976.
15. Drevnetyurkskiy slovar.-L.,1969.
16. Zeynalov F.R. Slujebnye chasti rechi v sovremennix tyurkskix yazыках. Baku. 1976.
17. Isangalieva V. A. Slujebnme imena i poslelogi v kazaxskom yazыke Alma-Ata, 1957.
18. Isangalieva V. A. Poslelogi v kazaxskom yazje// Izv. AN

KazSSR. Seriya filologii, iskusstvovedeniya. Vnp. 1—2. Alma-Ata, 1954.

19. I s a n g a l i e v a V. A. Russkie predlogi i ix ekvivalentm v kazaxskom yazыke. Alma-Ata, 1959.

20. K o k l y a n o v a A. A. Poslelogi i slujebnme imena v uzbekskom yazmke // Trudm Instituta yazmkoznaniya AN SSSR. T. 3. M., 1954.

21. K o n o n o v A. N. Poslelogi v sovremennom uzbekskom literaturnom yaznke. Tashkent, 1951.

22. K e n j a b a e v a F. Poslelogi i chastitsn v sovremennom kazaxskom yazmke. AKD. Alma-Ata, 1964.

23. M a m a t o v A. O'zbek tilining Andijon shahar shevasi. KD. Toshkent, 1966.

24. M a h m u d Q o s h g ' a r i y. Devon-u lug'at-it turk (Tarjimon va nashrga tayyorlovchi S. M. Mutallibov). O'z SSR FA nashriyoti. Toshkent. 1-tom. 1960, 2-tom, 1962. 3-tom — 1963.

25. M u s a e v K. M. Grammatika karaimsskogo yazыkka.-M., 1964.

26. N o s i r o v Sh. O'zbek tilining Qo'qon shevasi. QD. Toshkent, 1965.

27. R u s t a m o v T. Hozirgi o'zbek adabiy tilida ko'makchilar. Toshkent. 1965.

28. R e s h e t o v V., Shoaabdurahmonov Sh. O'zbek dialektologiyasi (Fonetika, morfologiya: leksika), Toshkent—1962.

29. T u r g ' u n o v T. O'zbek shevalarining g'arbiy Farg'ona shevalari. KD. - Toshkent, 1968.

30. T u r s u n o v U. O'zbek tilida sof ko'makchilar // O'zbek davlat universitetining asarlari, yangi seriya, 34-son, Samarqand, 1947.

31. F o z i l o v E. O'zbek tilining tarixiy morfologiyasi. Toshkent. 1965.

32. S h a r i p o v S. O'zbek tilining Pop shevasining morfologik xususiyati. KD. Toshkent, 1962.

33. S h e r b a k A. M. Ocherki po sravnitelnoy morfologii tyurkskix yazыkov(narechie, slujebnye chasti rechi, izobrazitelbnye slova). L., 1987.

34. Shoabdurahmonov Sh. Yordamchi soʻzlar. Toshkent, 1953.
35. Shoabdurahmonov Sh. Oʻzbek adabiy tili va oʻzbek xalq shevalari. DD. Toshkent—1963.
36. Shukurov A.Dj. Kvoprosob ob etimologii poslelegov birlan na tyurkskix yazыkax\\Sovetskaya tyurkologiya. 1984, № 4.
37. SHukurov SH. Oʻzbek tili tarixini oʻrganilishiga doir\\OʻTA.1965, № 4.
38. Oʻzbek tilining izohli lugʻati. 1-2 tom, M., 1981.
39. Oʻzbek xalq shevalari morfologiyasi. Toshkent. 1984.
40. Oʻzbek xalq shevalari lugʻati. Toshkent, 1971.
41. Oʻzbek shevalari leksikasi. Toshkent, 1966.
42. Oʻzbek tili grammatikasi. Toshkent, 1975.
43. Gʻulomov A.Gʻ. Koʻmakchili konstruksiya haqida\\OʻzFA. 1940.
44. Gʻulomov A. Gʻ. Oʻzbek sovet tilshunosligi tarixidan, OʻTA 1967. 4-son.
45. Gulyamon YA. G. Iznablyudeniy nad morfologiey Tashkentskogo govora // Oʻzbek dialektologiyasidan materiallar. I. Tashkent, 1957.
46. Qudratov T. Oʻzbek tilining oraliq shevalari.KD.-Tashkent. 1968.
47. Hojiev A.P. Qoʻshma affikslar yordamida yasalgan feʼllarning izohli lugʻatda ishlatilishi\\Oʻzbek tili va adabiyoti, 1984, 5-son.

Internet va Ziyonet saytlari

48. <http://www.literature.uz/>;
49. <http://www.ziyouz.com/>;
50. <http://www.kitob.uz/>.